



Tadqiqot.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI  
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,  
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLIGI: 2018-2025

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

# YANGI O'ZBEKISTON: 2025

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI

MAY

№ 76  
TOSHKENT



CONFERENCES.UZ

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР  
1-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
ЧАСТЬ-1**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
SCIENTIFIC RESEARCH  
PART-1**

**ТОШКЕНТ-2025**



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

Й-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2025]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 76-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2025 йил. – Тошкент: «Tadqiqot», 2025. – 99 бет.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик: – илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

**Маъсул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

## **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

## **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

## **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар -**

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

## **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни -**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

## **5. Давлат бошқаруви -**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

## **6. Журналистика -**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

## **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар -**

Самигова Умида Ҳамидуллаевна ("Kinder land of Asia" НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

## **8. Адабиёт -**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

## **9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

## **10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

## **11. Жисмоний тарбия ва спорт -**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

## **12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

## **13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)



## 14.Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## 15.Музыка ва ҳаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## 16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдукаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

## 17.Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

## 18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар -

Зупарова Зулфия Аҳрор кизи, Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, DSc (фармацевтика фанлари доктори)

## 19.Фармацевтика -

Жалилов Фазлиддин Содиқович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

## 20.Ветеринария -

Жалилов Фазлиддин Содиқович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

## 21.Кимё фанлари ютуқлари -

Раҳмонова Доно Қажҳоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

## 22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## 23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

## 24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қажҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

## 25.География-

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналлов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000





## ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ВА ПАРЛАМЕНТ ПАЛАТАЛАРИ ҲАМКОРЛИГИНИНГ САМАРАЛИ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ЯРАТИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ

Сулаймонов Умиджон Курбонович,  
Тошкент давлат юридик университети  
изланувчиси

**Аннотация:** Мазкур мақолада давлат бошқарувида қонун чиқарувчи ва ижро ҳокимияти органлари ўртасидаги алоқаларнинг такомиллаштирилиши муҳокама қилинади. Муаллиф 2017 йилда таъсис этилган Вазирлар Маҳкамасининг Олий Мажлисидаги Ваколатли вакили институтининг функционал вазифаларини, унинг амалиётдаги самарасини батафсил ўрганган. Тадқиқотда институтнинг қонун лойиҳаларини ишлаб чиқиш, муҳокама қилиш ва қабул қилинган қонунларнинг ижросини таъминлашдаги аҳамияти кўрсатилган.

**Калит сўзлар:** Қонун ижодкорлиги, давлат бошқаруви, Ваколатли вакил институти, ҳокимият тармоқлари, ташкилий-ҳуқуқий механизмлар, Бош вазир, парламент назорати, конституциявий ислоҳот, жамоатчилик назорати, қонунлар ижроси.

Мамлакатимизда сўнгги йилларда Парламент ва Ҳукуматнинг ўзаро фаолиятини такомиллаштиришга қаратилган бир қатор ташкилий-ҳуқуқий механизмлар яратиб келинмоқда.

Жумладан, Давлатимиз Раҳбарининг 2017 йил 28 сентябрдаги ПҚ–3294-сон қарори билан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Ижро этувчи тузилмасида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисидаги Ваколатли вакили лавозими жорий этилган.

Ушбу институтдан кўзланган асосий мақсад, бу Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Олий Мажлис палаталари билан ҳамкорлигининг ташкилий-ҳуқуқий механизмларини янада такомиллаштириш, қонун ижодкорлиги жараёнида ва ижро ҳокимияти органлари фаолияти устидан парламент назоратини амалга оширишда Вазирлар Маҳкамаси иштирокининг самарадорлигини ошириш, мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш вазифаларини бажаришда Ҳукумат масъулиятини кучайтиришдир.

Мазкур қарорга мувофиқ, қуйидагилар Ваколатли вакилнинг асосий вазифалари ҳисобланади:

Бош вазир котибиятининг таркибий бўлинмалари, республика ижро этувчи ҳокимият органлари ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг Олий Мажлис палаталарида кўриб чиқиладиган **қонунлар ва бошқа ҳужжатлар лойиҳаларини тайёрлашда** ўзаро яқин ҳамкорлигини таъминлаш, уларни Бош вазир котибиятида кўриб чиқиш, келишиш ва ахборот бериш жараёнларида **иштирок этиш**;

Вазирлар Маҳкамаси Раёсати мажлисларида қонунлар лойиҳалари, бошқа масалаларни муҳокама қилиш ва Олий Мажлиси палаталарида қонун лойиҳаларини (қонунларни) кўриб чиқишда иштирок этадиган **Ҳукумат вакиллари таркибини шакллантиришда** иштирок этиш;

Вазирлар Маҳкамасининг Олий Мажлис палаталари билан қонун ижодкорлиги фаолиятида, айниқса, мамлакат парламентида қонунларни кўриб чиқиш, муҳокама этиш ва қабул қилиш жараёнларида **яқин ҳамкорлигини ташкил этиш**;

Олий Мажлис палаталарида кўриб чиқиладиган қонун лойиҳалари, қонунлар, давлат дастурлари ва бошқа масалалар юзасидан **Вазирлар Маҳкамасининг келишилган нуқтаи назарини ифода этиш**;

қонун ижодкорлиги жараёни, қонунчилик ташаббусларининг қабул қилиниши, парламент назорати натижалари ва ўз фаолиятига тааллуқли бошқа масалаларнинг Олий Мажлис палаталарида кўриб чиқилиши ҳақида **Бош вазирга** ҳамда Бош вазир котибияти раҳбарига тизимли асосда **ахборот бериш**;

**янги қабул қилинган қонунларни** ўз вақтида ва сифатли амалга ошириш бўйича Вазирлар



Маҳкамасининг топшириқлари, режалари ҳамда қарорлари тайёрланишини ташкил этиш, республика ижро этувчи ҳокимият органлари ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари томонидан амалдаги **қонунлар ижросини ўрганиш ва таҳлил қилиш**;

қонунлар, давлат дастурларининг бажарилиши ва бошқа йўналишлар бўйича **парламент назоратини** амалга оширишда **Вазирлар Маҳкамасининг иштирокини таъминлаш**.

Бугунги кунга келиб Ваколатли вакил институти ўзининг ижобий самарасини бериб келмоқда. Ҳукумат ва Парламент ўртасида қонун лойиҳаларини ишлаб чиқиш, қабул қилиш ва уларнинг ижроси устидан парламент назоратини ўнатишда Ваколатли вакил ишончли ва самарали “кўприк” вазифасини бажармоқда. Жумладан қонун лойиҳаларини Парламентарийлар ўртасида муҳокама қилиш жараёнида келиб чиқаётган саволларга тегишли мутасадди вазирлик ва идораланинг мутахассисларини жалб қилган ҳолда ҳар бир саволга профессионал жавоб олиниши ва келгусида қабул қилинаётган қонунларни равлон, содда ва албатта ҳалқчил бўлишига хизмат қилмоқда.

Бундан ташқари, Ҳукумат, вазирлик ва идоралар, ҳудудлар раҳбарлари депутатлар томонидан жойларда аниқланган муаммоларни ҳал этишда куйи палата кўмиталари билан тизимли ҳамкорликни йўлга қўйишда Ваколатли вакил муҳим роль ўйнамоқда.

Умуман олганда, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Олий Мажлисдаги Ваколатли вакили давлат ҳокимияти ижроия ва қонун чиқарувчи ҳокимият тармоқларининг самарали ҳамкорлигини таъминлаш, давлат аппарати фаолиятини янада мувофиқлаштирилган ва самарали амалга оширишга кўмаклашишда муҳим ўрин тутати.

Шу билан бирга, 2023 йили умумхалқ референдуми орқали қабул қилинган янги Конституцияда парламент ваколатлари кескин оширилди. Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг мутлақ ваколатлари 5 тадан 12 тага, Сенат ваколатлари эса 14 тадан 18 тага етказилди. Суд, коррупцияга қарши кураш ва рақобат органларини шакллантириш бўйича Президентнинг қатор ваколатлари қонун чиқарувчи ҳокимиятга ўтказилди. Парламентнинг Ҳукуматни шакллантиришдаги иштироки, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар устидан назорат механизмлари янада кучайтирилди.

Бу ўзгаришларга мос тарзда Ваколатли вакил институтини ҳам қайта кўриб чиқиш ва унинг ваколатларини қайта кўриб чиқиш ва янада кучайтириш мақсадга мувофиқдир.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон давлат бошқаруви тизимида амалга оширилаётган ислохотлар доирасида Вазирлар Маҳкамасининг Олий Мажлисдаги Ваколатли вакили институти замонавий демократик тамойилларга асосланган ҳокимият тармоқлари ўртасидаги мувозанатни таъминлашнинг муҳим элементи сифатида шаклланди. Бу институт нафақат қонун ижодкорлиги жараёнида самарали ҳамкорликни таъминламоқда, балки қабул қилинган қонунларнинг жойларда ижросини, фуқаролар муаммоларининг ҳал этилишини ҳам мониторинг қилишнинг муҳим воситасига айланмоқда. 2023 йилги конституциявий ислохотлар натижасида Олий Мажлис ваколатларининг кенгайиши шароитида ушбу институтни қайта кўриб чиқиш ва кучайтириш ижтимоий-иқтисодий ривожланиш дастурларининг самарали амалга оширилишини таъминлаш, шунингдек давлат бошқарувини янада демократлаштириш, халқ вакиллиги органининг назорат функцияларини кучайтириш йўлидаги муҳим қадам бўлади.

### Адабиётлар рўйхати

1. Саидов А.Х. Парламент ва қонун ижодкорлиги жараёни: назария ва амалиёт. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – 280 б.
2. Хусанов О.Т. Ўзбекистонда давлат ҳокимияти органлари тизимида Вазирлар Маҳкамасининг ўрни // Юрист ахборотномаси. – 2022. – №4. – Б. 45-52.
3. Исмоилов Н.М. Конституциявий ислохотлар шароитида Олий Мажлиснинг назорат ваколатлари кенгайиши: халқаро тажриба ва миллий қонунчилик таҳлили // Ҳуқуқ ва бурч. – 2023. – №2. – Б. 33-38.



## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ИЖРО ВА ҚОНУН ЧИҚАРУВЧИ ҲОКИМИЯТ ТАРМОҚЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК МЕХАНИЗМЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Сулаймонов Умиджон Курбонович,  
Тошкент давлат юридик университети  
изланувчиси

**Аннотация:** Мазкур тезисда Ўзбекистон Республикасида ижро ва қонун чиқарувчи ҳокимият тармоқлари ўртасидаги ҳамкорлик механизмларини ривожлантириш масалалари кўриб чиқилган. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Олий Мажлисидаги ваколатли вакили институтининг ташкил этилиши, унинг асосий вазифалари ва фаолияти таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** Вазирлар Маҳкамаси, Олий Мажлис, ваколатли вакил, ҳокимият тармоқлари, ҳамкорлик механизмлари, парламент назорати, қонун ижодкорлиги, Конституциявий ислохотлар, ҳукумат масъулияти, ижро ҳокимияти.

Мамлакатимизда Парламент ваколатларини ошириш борасида муҳим ташкилий-ҳуқуқий механизмлар яратиб келинмоқда. Шу борада ижро органининг ҳам масъулиятини кучайтириш борасида тегишли норматив-ҳуқуқий ҳужжалар қабул қилинмоқда.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Олий Мажлис палаталари билан ҳамкорлигининг ташкилий-ҳуқуқий механизмларини янада такомиллаштириш, қонун ижодкорлиги жараёнида ва ижро ҳокимияти органлари фаолияти устидан парламент назоратини амалга оширишда Вазирлар Маҳкамаси иштирокининг самарадорлигини ошириш, мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш вазифаларини бажаришда Ҳукумат масъулиятини кучайтириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 сентябрдаги ПҚ-3294-сон қарори билан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Ижро этувчи тузилмасида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисидаги ваколатли вакили лавозими жорий этилган.

Ваколатли вакилнинг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат этиб белгиланган:

**Қонун лойиҳаларини тайёрлашни мувофиқлаштириш:** Вазирлар Маҳкамасининг таркибий бўлинмалари, давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, шунингдек, маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг Олий Мажлис палаталарида кўриб чиқиладиган қонун лойиҳалари ва бошқа ҳужжатларни тайёрлашда ўзаро ҳамкорлигини таъминлайди;

**Қонун ижодкорлиги жараёнида иштирок этиш:** Вазирлар Маҳкамаси Президиуми мажлисларида қонун лойиҳалари ва бошқа масалаларни муҳокама қилишда ҳамда Олий Мажлис палаталарида қонун лойиҳаларини кўриб чиқишда иштирок этувчи ҳукумат вакиллари таркибини шакллантиришда иштирок этади;

**Ҳукумат позициясини тақдим этиш:** қонунлар, қонун лойиҳалари, давлат дастурлари лойиҳалари ва Олий Мажлис палаталарида кўриб чиқиладиган бошқа масалалар юзасидан Вазирлар Маҳкамасининг келишилган позициясини тақдим этади;

**Ҳукуматни ахборотлаштириш:** Олий Мажлис палаталарида қонун ижодкорлиги жараёнининг бориши, қонунчилик ташаббусларининг қабул қилиниши, парламент назорати натижаларини кўриб чиқиш ва унинг фаолияти билан боғлиқ бошқа масалалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига ахборот бериб боради;

**Қонунлар ижросини таъминлаш:** янги қабул қилинган қонунларни ўз вақтида ва сифатли амалга ошириш юзасидан Вазирлар Маҳкамасининг кўрсатмалари, режалари ва қарорларини тайёрлашни, шунингдек, амалдаги қонунларнинг давлат ва хўжалик бошқаруви органлари томонидан бажарилишини ўрганиш ва таҳлил қилишни ташкил этади;

**Парламент назоратида иштирок этиш:** қонунлар, давлат дастурлари ва бошқа соҳалар ижроси устидан парламент назоратини амалга оширишда Вазирлар Маҳкамасининг иштирокини таъминлайди.

Ваколатли вакил Вазирлар Маҳкамаси Ижроия тузилмаси таркибига киради ва Ҳукумат уйида жойлашган. У Ўзбекистон Республикаси Президенти билан келишилган ҳолда Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири томонидан лавозимга тайинланади ва лавозимидан озод қилинади. Ваколатли вакилнинг фаолиятини Вазирлар Маҳкамаси Бошқаруви мувофиқлаштиради.

Бугунги кунга келиб Ваколатли вакил институти ўзининг ижобий самарасини бериб



келмоқда. Ҳукумат ва Парламент ўртасида қонун лойиҳаларини ишлаб чиқиш, қабул қилиш ва уларнинг ижроси устидан парламент назоратини ўнатишда Ваколатли вакил ишончли ва самарали “кўприк” вазифасини бажармоқда. Жумладан қонун лойиҳаларини Парламентарийлар ўртасида муҳокама қилиш жараёнида келиб чиқаётган саволларга тегишли мутасадди вазирлик ва идораларнинг мутахассисларини жалб қилган ҳолда ҳар бир саволга профессионал жавоб олиниши ва келгусида қабул қилинаётган қонунларни рағбат, содда ва албатта ҳалқчил бўлишига хизмат қилмоқда.

Бундан ташқари, тегишли давлат дастурларини ижросини таъминлаш, Парламент вакилларининг ўз сайловчилари билан учрашиш жараёнида келиб чиқаётган муаммоларни марказлашган ҳолда, яъни Ваколатли вакил орқали Ҳукуматга олдига қўйиш ҳамда уларни тезлик билан ва сифатли ижро этилишини таъминлашда ўз натижасини бермоқда.

Умуман олганда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Олий Мажлисидаги Ваколатли вакили давлат ҳокимияти ижроия ва қонун чиқарувчи ҳокимият тармоқларининг самарали ҳамкорлигини таъминлаш, давлат аппарати фаолиятини янада мувофиқлаштирилган ва самарали амалга оширишга қўмаклашишда муҳим ўрин тутди.

Шу билан бирга, 2023 йили умумхалқ референдуми орқали қабул қилинган янги Конституцияда парламент ваколатлари кескин оширилди. Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг мутлақ ваколатлари 5 тадан 12 тага, Сенат ваколатлари эса 14 тадан 18 тага етказилди. Суд, коррупцияга қарши кураш ва рақобат органларини шакллантириш бўйича Президентнинг қатор ваколатлари қонун чиқарувчи ҳокимиятга ўтказилди. Парламентнинг Ҳукуматни шакллантиришдаги иштироки, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар устидан назорат механизмлари янада кучайтирилди.

Бу ўзгаришларга мос тарзда Ваколатли вакил институтини ҳам қайта кўриб чиқиш ва унинг ваколатларини қайта кўриб чиқиш ва янада кучайтириш мақсадга мувофиқдир.

Ўзбекистон Республикасида ижро ва қонун чиқарувчи ҳокимият тармоқлари ўртасидаги ҳамкорлик механизмларини такомиллаштириш борасида Вазирлар Маҳкамасининг Олий Мажлисидаги ваколатли вакили институти муҳим роль ўйнаб келмоқда. Бу институт қонун лойиҳаларини ишлаб чиқиш, қабул қилиш ва уларнинг ижросини таъминлашда, шунингдек парламент назоратини амалга оширишда самарали воситачи сифатида фаолият юритмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон Республикасида ижро ва қонун чиқарувчи ҳокимият тармоқлари ўртасидаги ҳамкорлик механизмларини такомиллаштириш жараёнида Вазирлар Маҳкамасининг Олий Мажлисидаги ваколатли вакили институти муҳим ислохотларни ҳаётга татбиқ этишда марказий ўрин тутмоқда. Бу институт нафақат қонунларни ишлаб чиқиш ва қабул қилишда, балки уларнинг ижросини таъминлашда, шунингдек ижро ҳокимияти органлари фаолияти устидан парламент назоратини амалга оширишда ишончли “кўприк” вазифасини бажармоқда. Амалиёт шунини кўрсатмоқдаки, ваколатли вакилнинг фаолияти натижасида қонун ҳужжатларининг сифати яхшиланмоқда, ҳалқчил қонунлар қабул қилинмоқда ва энг муҳими, халқ депутатларининг сайловчилар билан мулоқоти жараёнида аниқланган муаммоларни тезкор ҳал этиш механизми йўлга қўйилмоқда. Мамлакатимизда амалга оширилаётган конституциявий ислохотлар, жумладан Олий Мажлис ваколатларининг кенгайтирилиши шароитида ҳокимият тармоқлари ўртасидаги ҳамкорлик механизмларини янада такомиллаштириш, давлат ҳокимияти органларининг фаолиятини янада демократлаштириш ва очиқликни таъминлаш, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегиясини амалга ошириш ва халқ фаровонлигини юксалтириш йўлида муҳим қадам бўлиб хизмат қилади. Шу нуқтаи назардан, ваколатли вакил институтининг ҳуқуқий мақомини кучайтириш ва унинг ваколатларини, имкониятларини кенгайтириш мақсадга мувофиқдир.

### Адабиётлар рўйхати

1. Тошев Б.Н. Ўзбекистонда парламент назорати институтининг ривожланиш тенденциялари: киёсий-ҳуқуқий таҳлил. Монография. – Тошкент: ТДЮУ, 2023. – 240 б.
2. Одилқориев Х.Т., Тультеев И.Т. Икки палатали парламент. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2019. – 224 б.
3. Мухамедов Ў.Х. Давлат ҳокимияти тизимида ижро органларининг конституциявий-ҳуқуқий мақоми: назария ва амалиёт // Давлат ва ҳуқуқ. – 2022. – №3. – Б. 75-83.
4. Қодиров А.А. Вазирлар Маҳкамасининг Олий Мажлиси билан ўзаро ҳамкорлиги механизмларини такомиллаштириш муаммолари // Ҳуқуқ ва демократия. – 2024. – №1. – Б. 112-120.





JINOYAT PROTSESSIDA HAQIQATNI ANIQLASH PRINSIPI: O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGI VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI TAJRIBASI

Suyunboyev Ilxom Oybek o‘g‘li,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

(Jinoiy odil sudlov fakulteti tyutori)

ORCID ID: 0009-0002-3084-264X

Telefon: +998993457612

E-mail: suyunboyevilhom994@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada jinoyat protsessining muhim tamoyili bo‘lgan haqiqatni aniqlash prinsipi tahlil qilingan. O‘zbekiston Jinoyat-protsessual kodeksi misolida mazkur prinsipning mazmun-mohiyati, tergov va sud organlarining haqiqatga erishish borasidagi vazifalari yoritilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyoning Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi davlatlari jinoyat-protsessual qonunchiliklari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazilib, haqiqatni aniqlash prinsipining turli huquqiy tizimlarda qanday ifoda topgani ko‘rsatib berilgan. Musobaqalashuv prinsipi kuchaygan Qozog‘iston va Qirg‘iziston qonunchiligida bu prinsip bevosita nomlanmasa-da, uning g‘oyasi protsess vazifalari va dalillarni baholash qoidalarida aks etishi qayd etilgan. Tojikiston va Turkmaniston esa sobiq ittifoq an‘analarini saqlab qolgan holda haqiqatni har tomonlama aniqlash talablari qonunchilikda mustahkamlangan. Mualliflar xulosasiga ko‘ra, jinoyat ishlarini adolatli hal etish uchun obyektiv haqiqatga erishish barcha ko‘rib chiqilgan tizimlar uchun ustuvor vazifa bo‘lib, u turli shakllarda ifodalangan bo‘lsa-da, mazmunan o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

**KALIT SO‘ZLAR:** Jinoyat protsessi, haqiqatni aniqlash prinsipi, Markaziy Osiyo tajribasi, adolat, tortishuv prinsipi.

Jinoyat-protsessual huquqdagi haqiqatni aniqlash prinsipi jinoyat ishlarini hal etishda adolat va qonuniylilikni ta‘minlaydigan eng muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. Ushbu prinsip mazmunan jinoyat ishlari bo‘yicha obyektiv haqiqatga erishishni, ya‘ni jinoyat voqeasi haqiqatan sodir bo‘lgan-bo‘lmaganini, sodir etilgan bo‘lsa – kim tomonidan va qanday sharoitlarda sodir etilganini hamda ish uchun ahamiyatga molik boshqa barcha holatlarni aniqlashni talab etadi. Shu bois, haqiqatni aniqlash prinsipi jinoyat protsessining asosiy maqsadi – aybsizlarni oqlash va aybdorlarni qonuniy javobgarlikka tortishga erishishning zarur sharti sifatida e‘tirof etiladi.

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodeksi normalari asosida jinoyat protsessida haqiqatni aniqlash prinsipi yoritiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyoning to‘rtta davlati – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston – jinoyat-protsessual qonunchiliklarida ushbu prinsipning huquqiy ifodalanishi va qo‘llanishi qiyosiy tahlil qilinadi. Nazariy asoslar, amaldagi qonun normalari va ilmiy manbalar tahlili orqali haqiqatni aniqlash prinsipining mazmun-mohiyati, uning tergov va sud jarayonidagi o‘rni hamda turli huquqiy tizimlarda namoyon bo‘lish xususiyatlari ochib beriladi.

Haqiqatni aniqlash – jinoyat protsessining bosh maqsadlaridan biri bo‘lib, u jinoyat ishi bo‘yicha to‘liq, haqqoniy va ishonchli axborot asosida xulosa chiqarishni nazarda tutadi. Huquqiy nazariyada “haqiqat” tushunchasi obyektiv reallikka mos keluvchi holatlarning to‘g‘ri aks etishini anglatadi. Boshqacha aytganda, jinoyat protsessida erishiladigan haqiqat – bu jinoyat hodisasi va unga aloqador holatlar qanday bo‘lgan bo‘lsa xuddi shu holicha protsess hujjatlarida va dalillarda o‘z aksini topishi, xato va buzib ko‘rsatishlarsiz ifodalanishidir.

Jinoyat ishlarini yuritishda haqiqatga erishish bevosita jinoyat-protsessual isbot faoliyati orqali amalga oshiriladi. Isbot qilish jarayoni tergov va sud organlari uchun dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash kabi protsessual harakatlarni o‘z ichiga oladi. Isbotning maqsadi esa ish bo‘yicha haqiqiy holatlarni aniqlash va ularni ishonchli dalillar bilan asoslashdir. O‘zbekistonlik tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, aynan isbotlash jarayoni va jinoyatni bilish jarayoni jinoyat protsessida hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, ular orqali ish bo‘yicha obyektiv haqiqatni aniqlash va adolatli sud qarori qabul qilish ta‘minlanadi. B.Hidoyatov va B.Xudaybergenov haqiqatga erishishni jinoyat protsessi funksiyalarining markaziy elementi sifatida e‘tirof etib, isbotlash jarayonini huquqiy haqiqatni tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi dalillarni jamlash va tadqiq etish jarayoni sifatida ta‘riflaydilar.

Haqiqatni aniqlash prinsipi, aslida, sobiq sovet huquqiy maktabidan meros bo‘lib kelgan “obyektiv (material) haqiqat” konsepsiyasiga tayanadi. Bu konsepsiyaga ko‘ra, tergov organlari va sud barcha



choralarni qo‘llagan holda ishda haqiqatan sodir bo‘lgan voqea-hodisalarni aniqlashga intilishi shart, protsessual faoliyatda formallikka yo‘l qo‘yilmaydi. Jinoyat ishi bo‘yicha chiqariladigan qaror (ayblov hukmi yoki oqlov hukmi) faqatgina to‘liq tekshirilgan va haqiqatga mos dalillarga asoslanishi lozim. Shu ma’noda, jinoyat-protsessual huquqda haqiqat prinsipini ta’minlash boshqa qator prinsiplar bilan uzviy bog‘liq: qonuniylik, aybsizlik prezumpsiyasi, himoyani ta’minlash, dalillarning haqiqiyliigi va maqbulligi kabi prinsiplar haqiqatga erishish vositalari sifatida xizmat qiladi. Masalan, protsessual qonun talablari va shakllariga rioya qilish haqiqatni aniqlash va to‘g‘ri qaror qabul qilishning muqarrar sharti ekanligi darsliklarda alohida qayd etiladi.

Shu bilan birga, zamonaviy jinoyat-protsessual nazariya va xorijiy tajribada haqiqat tushunchasiga yondashuv turlicha bo‘lishi mumkin. Anglo-sakson huquq tizimlarida sud jarayoni ko‘proq tomonlarning bahsi (musobaqalashuv)ga asoslanib, sudya passiv kuzatuvchi sifatida qaror chiqaradi va “haqiqat” asosan taraflar taqdim etgan isbotlarga muvofiq shakllanadi – bu ba’zan “formal haqiqat” deb ataladi. Kontinental (romano-german) tizimlarda esa sud va tergov organlari haqiqatni faol ravishda o‘rganishi talab etiladi, ya’ni “obyektiv haqiqat” tamoyili ustuvor hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlari jinoyat-protsessual qonunchiliklari, asosan, kontinental tizim va sobiq SSSR merosiga tayanadi, biroq so‘nggi yillarda ba’zi davlatlarda musobaqalashuv printsipi kuchayishi bilan “haqiqatni aniqlash” tamoyili talablari ma’lum darajada qayta ko‘rib chiqilmoqda. Quyida ushbu prinsipning O‘zbekiston va qo‘shni davlatlar qonunchiligida qanday ifoda etilganiga nazar tashlaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK)da haqiqatni aniqlash prinsipi alohida norma sifatida mustahkamlab qo‘yilgan. JPKning 22-moddasi “Haqiqatni aniqlash” deb nomlanib, quyidagicha mazmunda prinsipni belgilaydi: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat hodisasi yuz bergan-bermaganligini, uni kim sodir etganligini hamda jinoyatga aloqador barcha holatlarni aniqlashga majburdir. Ushbu moddaga muvofiq, ish bo‘yicha haqiqat faqat JPKda belgilangan tartibda topilgan, tekshirilgan va baholangan ma’lumotlar orqaligina aniqlanishi mumkin; shaxsdan zo‘rlilik yoki noqonuniy usullar bilan ko‘rsatma olish taqiqlanadi. Demak, haqiqatni aniqlash qonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan dalillargagina asoslanishi lozim – bu holat, bir tomondan, tergov va sudning haqiqatga erishish burchini belgilasa, ikkinchi tomondan, ushbu burchni amalga oshirishda protsessual qonunning qat’iy rioya etilishini talab qiladi [1].

JPK 22-moddasining davomida dalillarni har tomonlama, to‘la va xolisona tekshirish talabi qo‘yilgan: jinoyat ishi bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan va xolis tekshirilishi, bunda ayblanuvchini fosh qiluvchi hamda oqlovchi, shuningdek javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar ham aniqlanishi va inobatga olinishi shartligi belgilangan. Bu norma jinoyat ishini ko‘rib chiqishda hech bir muhim holat e’tibordan chetda qolmasligi uchun tergov va sudga yuklatilgan vazifadir.

Shuningdek, O‘zbekiston JPK tergov va sud jarayonida noqonuniy usullar bilan dalil to‘plashni taqiqlash va dalillarning maqbulligi (yo‘l qo‘yilargi) prinsipi orqali ham haqiqatni aniqlashni kafolatlaydi. Masalan, JPK 95<sup>1</sup>-moddasiga muvofiq, qonunga xilof ravishda olingan dalillar haqiqiy kuchga ega emas deb topiladi va ish yuritishdan chetlashtiriladi. Bu qoida haqiqatni faqat qonuniy va ishonchli dalillar yordamida aniqlash konsepsiyasining huquqiy ifodasidir. Oliy sud Plenumining tegishli qarorlari ham sudlarga dalillarni baholashda ularning haqqoniyligi va qonuniy olinganligini sinchiklab tekshirish zarurligini uqtiradi [2].

O‘zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligida haqiqatni aniqlash prinsipi faqat tergov organlariga emas, balki sudga ham birdek taalluqli burch sifatida ko‘zda tutilgan. Sud ishning holatlarini to‘liq o‘rganish va tomonlar taqdim etgan dalillarni har tomonlama tekshirish uchun zarur choralarni ko‘rishi mumkin. Masalan, sud muhokamasi vaqtida taraflar taqdim etmagan, biroq ish uchun ahamiyatli bo‘lgan qo‘shimcha dalillarni yuzaga chiqarish maqsadida sud tomonidan qo‘shimcha guvohlarni chaqirish yoki ekspertiza tayinlash kabi tashabbuslar ko‘rilishi mumkin (amaldagi qonunlarga muvofiq). Bunday vakolatlar aynan ish bo‘yicha obyektiv haqiqatni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, sudning passiv kuzatuvchi emas, adolatga erishish uchun faol ishtirokchi ekanini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, “haqiqatni aniqlash” prinsipi O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ham saqlanib qolgan va hatto kuchaytirilgan tamoyildir. JPK qabul qilingan (1994-y.) paytdan boshlab bir necha bor o‘zgartirishlar kiritilgan bo‘lsa-da, 22-moddadagi mazkur prinsipning poydevori o‘zgarmagan. Aksincha, 2019–2021 yillardagi protsessual islohotlar davomida haqiqatni aniqlashga xizmat qiluvchi normalar takomillashtirildi, jumladan dalillarning maqbulligi, himoya huquqi kafolatlari, aybni tan olish bo‘yicha bitim institutini qo‘llashda sud tomonidan haqiqatni tekshirish



kabi jihatlar bo'yicha qo'shimcha kafolatlar joriy etildi. Masalan, kelishuv bitimi tuzilgan hollarda ham sudga ayblovning asoslanganligiga va ish bo'yicha haqiqat aniqlanganiga ishonch hosil qilish majburiyati yuklatilganligi Oliy sud plenum qarorida qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston jinoyat-protsessual huquqida haqiqatni aniqlash prinsipi markaziy o'rin tutadi va u tergov hamda sud organlaridan jinoyat ishini to'la, har tomonlama va xolisona o'rganishni, ish uchun muhim barcha dalil va holatlarni aniqlab, qonuniy xulosaga kelishni talab qiladi. Bu prinsip boshqa protsessual prinsiplar bilan birgalikda (aybsizlik prezumpsiyasi, himoya huquqi va b.) jinoyat ishlarini adolatli hal etishning huquqiy asosini tashkil qiladi.

### **Markaziy Osiyo davlatlari qonunchiligida haqiqatni aniqlash prinsipi: qiyosiy tahlil.**

Qozog'iston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi so'nggi yillarda sezilarli islohotlar natijasida musobaqalashuv va taraflar tengligi tamoyiliga asoslangan yangi modelga o'tmoqda. 2014-yilda qabul qilingan Qozog'iston JPKda alohida "obyektiv haqiqatni aniqlash" prinsipi ko'rsatilmagan bo'lsa-da, jinoyat protsessi vazifalari qatorida jinoyatlarni tez va to'liq fosh etish, har tomonlama tergov qilish va aybdorlarni javobgarlikka tortish vazifasi belgilangan. Ya'ni, Qozog'iston JPK 8-moddasida protsessning vazifalari sifatida "jinoyatlarni tezkor, xolis va to'liq ochish, tergov qilish va jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh etish" qayd etilib, aslida haqiqatga erishish maqsadi vazifa sifatida ifoda etilgan[3].

Shu bilan birga, Qozog'iston JPK jinoyat ishlarini ko'rib chiqayotgan sudning rolini oldingi sovet davridagi faollikdan farqli ravishda betaraf hakam sifatida belgilaydi. Masalan, JPKning 24-moddasida sud "jinoyat ishini ko'rib chiqishda ob'ektivlik va xolislikni saqlagan holda, ayblov va himoya tomonlariga ish holatlarini to'liq va har tomonlama o'rganishlari uchun zarur sharoitlarni yaratadi" deb ko'rsatilgan. Bu norma sudya faqat sharoit yaratishi lozimligini, haqiqatni aniqlash esa asosan tomonlarning zimmasida ekanini anglatadi. Shuningdek, sud tomonlarning dalillarni yetarli deb topishi borasidagi fikriga bog'lanmasligi, lekin asosan taraflar keltirgan dalillar doirasida ishni hal etishi belgilangan.

Qozog'istonda musobaqalashuv prinsipi ustuvor qilib qo'yilgani bois, ayrim huquqshunolar bu holatni "obyektiv haqiqatdan formal haqiqatga o'tish" deb baholamoqda. Ya'ni, sud ishning holatlarini o'zi mustaqil aniqlashga kirishmaydi, balki tomonlar o'rtasida bahsni boshqarib, ularning dalillarini baholaydi. Biroq bu, albatta, Qozog'istonda haqiqat tamoyili umuman yo'qolgan degani emas. Qonunchilik dalillarni aniqligi, haqqoniyligi va to'liqligini ta'minlashga doir qator normalarni saqlab qolgan: masalan, har bir dalil tegishlilik, maqbulligi, ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanib, barcha dalillar yig'indisi asosida xulosa chiqarilishi shartligi belgilangan. Shuningdek, Konstitutsiyaning 77-moddasi hamda JPK normalariga binoan noqonuniy yo'l bilan olingan dalillar kuchga ega emas (bu O'zbekistondagi kabi qoidalaridan biridir).

Qozog'iston tajribasida kuzatiladigan muhim jihat – procesual kelishuvlar (plea bargaining) ham keng joriy etilganidir. Bunday hollarda sud tergov materiallari va taraflar kelishuvini ko'rib chiqib hukm chiqaradi. Shunday jarayonlarda ham Qozog'iston Oliy sudi sudlarga ishdagi holatlar to'liq aniqlanganiga ishonch hosil qilish majburiyatini yuklagan (xususan, aybni tan olish bitimi doirasida). Shu sababli, amaliy nuqtai nazardan Qozog'istonda ham sud tomonidan obyektiv haqiqatga erishish intilishi butkul saqlanadi, lekin uning huquqiy ifodalanishi bevosita "haqiqatni aniqlash" nomi ostida emas, balki jinoyat protsessi vazifasi yoki dalillarni baholash qoidalari tarzida berilgan.

Qirg'iziston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida ham haqiqatni aniqlash prinsipining evolyutsiyasi kuzatiladi. 1999-yilda qabul qilingan eski Jinoyat-protsessual kodeksda haqiqat tamoyili an'anaviy tarzda mustahkamlangan edi: masalan, ushbu Kodeksning 19-moddasi "Ish holatlarini har tomonlama, to'liq va obyektiv tadqiq etish" deb nomlanib, tergovchi barcha choralarni ko'rib, ish holatlarini to'liq, har tomonlama va xolisona o'rganishi shartligi belgilangan edi. Bu norma mazmunan O'zbekiston JPK 22-moddasiga juda o'xshash bo'lib, Qirg'iziston ham dastlab sobiq Ittifoq protsessual an'analarini davom ettirganini ko'rsatadi[4].

Biroq Qirg'izistonda so'nggi yillarda jinoyat protsessida jiddiy islohotlar amalga oshirildi. 2017-yilda yangi Jinoyat-protsessual kodeks qabul qilinib, 2021 yilda yanada takomillashtirilgan tahrirdagi kodeks kuchga kirdi. Yangi JPK musobaqalashuv va tomonlar tengligi prinsipini birlamchi o'ringa qo'ydi. Natijada, jinoyat protsessining umumiy qoidalari Qozog'istondagiga yaqinlashdi: sud faolligi cheklangan, u asosan taraflar bahsini mustaqil va xolis ko'rib, adolatli qaror chiqarishga yo'naltirilgan.

Shunga qaramay, Qirg'iziston qonunchiligida haqiqatni aniqlash g'oyasi bilvosita bir nechta normalarda ifodasini topgan. Masalan, yangi JPKda jinoyat protsessining maqsadi sifatida





“jinoyatlarni tez va to‘liq fosh etish, aybdorlarni javobgarlikka tortish va adolatli sud muhokamasini ta’minlash” ko‘rsatilgan. Bu mazmun jihatidan avvalgi kodeksdagidek haqiqatga erishish talabini o‘z ichiga oladi, faqat endi u alohida prinsip sifatida emas, balki protsessual majmuaning vazifasi sifatida bayon qilingan.

Yana bir jihat – Qirg‘iziston JPKda sudga “zarur holatda ish bo‘yicha qo‘shimcha dalillarni aniqlash to‘g‘risida taraflarga ko‘rsatma berish” huquqi berilishi. Ya’ni, sud bevosita o‘zi dalil to‘plamasa-da, masalan, aniqlanmay qolgan holatlar bor deb hisoblaganda prokuror yoki tergovchiga qo‘shimcha tergov harakatlarini o‘tkazishni topshirishi mumkin. Bu ham aslida obyektiv haqiqatni ta’minlashga qaratilgan mexanizmdir. Shuningdek, Qirg‘iziston Konstitutsiyasi va JPKsi dalillarning qonuniyligini, qiynoqlarga yo‘l qo‘yilmasligini, aybsizlik prezumpsiyasini kafolatlashi orqali haqiqatni aniqlash prinsipi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Umuman olganda, Qirg‘iziston jinoyat-protsessual huquqi Qozog‘istonga o‘xshash ravishda adversarial (bahs-munozarali) modelga intilayotgan bo‘lsa-da, jinoyatlarni to‘liq ochish va tergov qilish majburiyati saqlanib qolgan. Amaliyotda tergov organlari hamon ishni to‘liq o‘rganishlari talab etiladi, sudlar esa protsessual qonun buzilishi tufayli ishning holatlari to‘liq aniqlanmagan deb topsa, materiallarni qo‘shimcha tergovga qaytarish vakolatiga ega. Bu esa mazmun e’tibori bilan haqiqat prinsipi faoliyatini davom ettirishga xizmat qiladi.

Tojikiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi O‘zbekiston bilan eng yaqin o‘xshashlikka ega bo‘lgan soha hisoblanadi. Tojikistonning amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksi (2009-yilda qabul qilingan) mazmunan sobiq ittifoq JPKsi negizida yaratilgan bo‘lib, unda ish holatlarini to‘liq, har tomonlama va xolisona tekshirish talabi qat’iy belgilangan. Masalan, Tojikiston JPKda tergovchi va sudya jinoyat ishini yuritishda har qanday versiyani tekshirish, ayblov va oqlov dalillarini teng darajada to‘plash va baholashga majburligi ko‘rsatilgan. Ish bo‘yicha xulosa faqat ishdagi materiallar bilan tasdiqlangan taqdirdagina haqiqiy deb topiladi. Bu O‘zbekiston JPK 22-moddasidagiga o‘xshash talabdir [5].

Tojikiston qonunchiligida “haqiqat” tushunchasi ham alohida e’tirof etiladi. Huquqiy atamalar lug‘atida keltirilishicha, “Haqiqat jinoyat protsessida isbot qilishning asosiy maqsadi bo‘lib, tergov va sud qarorlari faqat ish bo‘yicha haqiqat aniqlangan taqdirdagina samara beradi”. Ya’ni, Tojikiston nazariyasida ham jinoyat ishi bo‘yicha qarorning haqqoniyligi u qanchalik obyektiv haqiqatga mos kelishiga bog‘liq deb qaraladi. Buning uchun tergov organlari hodisani to‘liq va aniq idrok etib, o‘z xulosalarini voqelikdagi holatga muvofiq chiqarishi talab etiladi.

Tojikiston JPK moddalari har bir dalilni tekshirish, dalillarni bekor qilish va ularni baholash qoidalarini batafsil tartibga soladi. Masalan, dalillarni baholashda ichki ishonch tamoyili amal qiladi – tergovchi va sudya barcha dalillarni majmuaning har biriga baho berib, ularning ish uchun ahamiyatini aniqlaydi; gumon uchun asos bo‘lgan taxminlar va farazlar albatta qo‘shimcha tergov harakatlari bilan tekshirilishi shart. Shuningdek, Tojikiston protsessida sud hokimiyatining mustaqilligini va musobaqalashuv prinsipini tan olgan holda, sudga haqiqatni aniqlash yo‘lida faol harakat qilish vakolati ham qoldirilgan. Sud jazoni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlarni o‘zi tashabbus bilan aniqlashi mumkin, zarur hollarda qo‘shimcha dalillar so‘rab oladi.

Ko‘rinib turibdiki, Tojikiston jinoyat-protsessual qonunchiligida obyektiv haqiqat tamoyili to‘liq saqlanib qolgan va uni ta’minlovchi normalar hamon amalda. Ilmiy adabiyotlarda ham Tojikiston jinoyat protsessining maqsadi sifatida obyektiv haqiqatni o‘rnatish birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Bu O‘zbekistonga o‘xshash ravishda Tojikiston sud-huquq tizimi ham sobit qonuniy prinsiplarni hozircha o‘zgartirmaganini anglatadi.

Turkmaniston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (2011-yilda yangi tahriri qabul qilingan) ham sobiq ittifoq protsessual maktabi tamoyillarini aks ettiradi. Turkmaniston JPK 23-moddasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Ish holatlarini har tomonlama, to‘liq va obyektiv tadqiq etish” prinsipi deb nomlangan bo‘lib, unda tergovchi, prokuror va sud ish bo‘yicha barcha holatlarni to‘la va xolis aniqlash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarni ko‘rishi shart deb belgilangan. Shuningdek, ushbu modda doirasida tegishli organlarga jinoyatni sodir etgan shaxsni, ayb darajasini va boshqa jihatlarini aniqlash vazifasi yuklatiladi [6].

Turkmaniston qonunchiligida dalillarni tekshirish va baholashga oid normalar O‘zbekiston va Tojikiston qonunchiligiga juda yaqin. Barcha to‘plangan dalillar tergov va sud tomonidan sinfiy (har tomonlama) va obyektiv tahlil qilinishi, dalillar tutashligi va ishonchliligi bo‘yicha tekshiruvdan o‘tkazilishi shartligi ko‘rsatilgan. Sudga protsessual rahbarlik va tartibni saqlash vazifalari yuklatilgan bo‘lsa-da, u ham taraflarga ish holatlarini to‘liq yoritishlari uchun zarur sharoit yaratib berishi lozimligi





kodeksda aks etgan. Bu jihatlar Qozog‘iston va Qirg‘izistondan farqli ravishda Turkmaniston hali musobaqalashuv modeliga keskin o‘tmaganini, tergov va sud organlarining hamkorlikda haqiqatni aniqlashi konsepsiyasi davom etayotganini anglatadi.

Turkmaniston amaliyotida jinoyat ishlarini qo‘shimcha tergovga qaytarish, dalillar to‘plamini yetarli emas deb topish hollari uchrab turadi – bu holatlar haqiqat tamoyili to‘liq bajarilishini nazorat qilish vositasidir. Mamlakat sud tizimining o‘ziga xos yopiq holati (ma’lumotlar kam ochiqqlanishi) sababli yangi islohotlar haqida ma’lumot cheklangan, lekin normativ hujjatlar darajasida qaralganda, Turkmaniston JPK obyektiv haqiqat prinsipi bo‘yicha O‘zbekiston va Tojikiston bilan bir xil liniyada ekani ko‘rinadi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat-protsessual huquqda “haqiqatni aniqlash” prinsipi jinoyat ishlarini adolatli hal qilishning asosi sifatida xizmat qiladi. O‘zbekiston qonunchiligida ushbu prinsip alohida norma sifatida mustahkamlangan bo‘lib, tergov va sud organlaridan ishni har tomonlama, to‘liq va xolis tekshirib, jinoyat voqeasi va barcha tegishli holatlar bo‘yicha obyektiv haqiqatni o‘rnatishni talab etadi. Markaziy Osiyo davlatlaridan Tojikiston va Turkmaniston jinoyat-protsessual qonunchiliklarida ham xuddi shunday mazmundagi prinsiplar amal qiladi – bu davlatlar jinoyat protsessida sobiq sovet modelining haqiqatga intilish tamoyilini saqlab qolishgan.

Qozog‘iston va Qirg‘iziston esa so‘nggi islohotlar natijasida jinoyat protsessini demokratlashtirish, ya’ni musobaqalashuv va taraflar tengligi prinsiplarini kuchaytirish yo‘lidan bordi. Natijada bu davlatlarda haqiqatni aniqlash to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomlanmagan bo‘lsa-da, u jinoyat protsessining vazifalari va dalillarni baholash qoidalarida o‘z ifodasini topgan. Sudning roli bu tizimlarda neytral hakam sifatida qaralib, haqiqatga erishish mas’uliyati ko‘proq ayblov va himoya tomonlariga yuklanmoqda. Shunga qaramay, har ikkala davlat qonunchiligida ham jinoyatni to‘liq fosh etish va dalillarni to‘liq tekshirish talablari mutlaq bekor qilinmagan – jinoyat ishida xato qarorlar chiqarmaslik uchun qonuniy kafolatlar saqlanmoqda.

Ilmiy nuqtai nazardan, haqiqatni aniqlash prinsipi tergov va sud faoliyatining bosh mezoni bo‘lib qolayotganini ta’kidlash lozim. Bu prinsipdan voz kechish yoki uni susaytirish bevosita adolat tamoyiliga putur yetkazishi mumkin. Shu bois Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, musobaqalashuv tamoyilini kuchaytirayotgan huquqiy tizimlar ham haqiqatga erishish uchun muayyan darajada muvozanatni saqlashga intilmoqda. O‘zbekiston va Tojikiston kabi tizimlar esa mazkur prinsipni qat’iy rioya etish orqali jinoyat protsessida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda adolatga erishishni ko‘zlamoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, jinoyat-protsessual faoliyatning natijadorligi va qonuniyligi ko‘p jihatdan haqiqatni aniqlash prinsipiga amal qilinishiga bog‘liq. Qonuniy dalillar asosidagina obyektiv haqiqatga erishish mumkin va faqat shundagina chiqariladigan hukm yoki qaror adolatli bo‘ladi. Markaziy Osiyo mintaqasida ham ushbu tamoyilning turlicha ifodalangan bo‘lsa-da, mohiyatan e’tirof etilishi shuni anglatadiki, jinoyat protsessining fundamental vazifasi – haqiqatga erishish va shu orqali adolatni qaror toptirish barcha huquqiy tizimlar uchun ustuvor qiymat bo‘lib qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. 22.09.1994-y. (O‘RQ-110-son, oxirgi o‘zgartishlar bilan). 22-modda (Haqiqatni aniqlash).
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi Qarori. 2018-yil 24-avgust, 24-son “Dalillar ma’qbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”.
3. Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. 04.07.2014-y. (No.231-V, joriy tahrir). 8-modda (Jinoyat protsessining vazifalari); 24-modda (Sudning vazifalari).
4. Qirg‘iziston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. 28.10.2021-y. No.129 (yangi tahrir). [Oldingi 1999-y. JPK 19-moddasi (har tomonlama va to‘liq tergov qilish prinsipi)].
5. Tojikiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. 03.12.2009-y. (qabul qilingan sanasi), joriy tahrir. [Huquqiy atamalar lug‘ati: “Haqiqat” tushunchasi].
6. Turkmaniston Jinoyat-protsessual kodeksi. 18.04.2009-y. (yangi tahrir). 23-modda (Ish holatlarini to‘liq, har tomonlama va obyektiv tadqiq etish).



## ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### КИБЕРЖИНОЯТЧИЛИК МУАММОСИНИНГ ФАЛСАФИЙ-НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Холиқова Покиза

Самарқанд шаҳар бўйича  
ИИО ФМБ 3-сон ИИБ ХҚМБ  
инспектори лейтинант

**Аннотация.** Ушбу мақолада жамият ижтимоий ҳаётида муаммо ҳисобланадиган ёшлар ўртасида девиантлик масаласи ёритилган. Девиантлик унинг оқибатлари ва келиб чиқиш сабаблари мазкур мақолада таҳлил қилинган бўлиб унинг ижтимоий оқибатларини бартараф этиш усуллари ҳақида тўхталиб ўтилган.

**Калит сўзлар:** девиант ҳуқ-атвор, жамият, ахлоқ меъёрлари, инсоний фаолият, хатти-ҳаракат, ижтимоий ҳодиса, ёлғончилик, дангасалик, ўғирлик, ичкиликбозлик, гиёҳвандлик, ўз жонига қасд қилиш, зиддиятли, оғиш, делинквет жиноий ҳуқ-атвор, норма.

**Абстрактный.** В данной статье рассматривается проблема девиантного поведения среди молодежи, которая считается проблемой в социальной жизни общества. В статье анализируется девиация, ее последствия и причины, а также обсуждаются методы устранения ее социальных последствий.

**Ключевые слова:** девиантное поведение, общество, моральные нормы, человеческая деятельность, поведение, социальное явление, ложь, лень, воровство, алкоголизм, наркомания, самоубийство, конфликт, девиация, делинквентное преступное поведение, норма.

**Abstract.** This article discusses the issue of deviance among young people, which is a problem in the social life of society. Deviance, its consequences and causes of origin are analyzed in this article, and methods for eliminating its social consequences are discussed.

**Keywords:** deviant behavior, society, moral norms, human activity, behavior, social phenomenon, lying, laziness, theft, alcoholism, drug addiction, suicide, contradictory, deviation, delinquent criminal behavior, norm.

Бугунги кунда айнан ушбу тушунча ахборот-коммуникация технологиялари соҳасидаги кўплаб турдаги жиноятларни ўзида бирлаштирган. Вирус ва бошқа зарарли дастурлар, қонунга зид ахборотлар тайёрлаш ва тарқатиш, электрон хатларни оммавий тарқатиш (спам), хакерлик хужуми, веб-сайтларга ноқонуний кириш, фирибгарлик, муаллифлик ҳуқуқини бузиш, кредит карточкалари рақами ва банк реквизитларини ўғирлаш (фишинг ва фарминг) ҳамда бошқа турли ҳуқуқбузарликлар шулар жумласидандир. Ушбу ҳолатларда жиноятчилар ўзларини кизиктирган “объектлар”га моддий ва маънавий зарар етказишни ўз олдига мақсад қилиб қўймоқда. Бундай кимсалар доираси эса йилдан-йилга кенгайиб бораётганини ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди.

Ўзбекистон ҳам халқаро ахборот-коммуникация жараёнларида фаол иштирок этаётир. Биринчи Президентимиз Ислом Каримов раҳнамолигида ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш давлат сиёсати ва иқтисодиётимизни модернизация қилишнинг устувор йўналишларидан бири этиб белгиланган. Бу борада қабул қилинган қатор қонунлар, давлатимиз раҳбари ва Вазирлар Маҳкамасининг қарорларига мувофиқ ахборот-коммуникация технологиялари соҳаси янада такомиллаштирилмоқда, ушбу бозор субъектлари ўртасидаги муносабатлар тартибга солинаётир. Мазкур ҳужжатларда ахборот хавфсизлигини таъминлаш масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратилган.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексида ҳам бу масала ўз ифодасини топган. Чунончи, 2007 йил 25 декабрда қабул қилинган “Ахборотлаштириш ва маълумотлар узатиш соҳасида қонунга ҳилоф ҳаракатлар содир этганлик учун жавобгарлик кучайтирилганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги қонунга мувофиқ Жиноят кодекси “Ахборот технологиялари соҳасидаги



жиноятлар” деб номланган 20-боб билан тўлдирилди. Унда ахборотлаштириш қоидаларини бузиш, компьютер ахборотидан қонунга хилоф равишда (рухсатсиз) фойдаланиш, компьютер саботаж, зарар келтирувчи дастурларни яратиш, ишлатиш ёки тарқатиш каби қатор жиноятлар учун жазо чоралари белгиланган.

Бундан ташқари, Жиноят кодексида компьютер техникаси воситаларидан фойдаланиб, ўзлаштириш ёки растрата йўли билан талон-торож қилиш, компьютер тизимига рухсатсиз кириб ўғирлик содир этиш, ноқонуний ахборот тўплаш, ошкор қилиш ёки ундан фойдаланиш каби компьютер жиноятлари таркиби кўзда тутилган.

Кибержиноятчиликка қарши курашда аъзо давлатлар, кузатувчилар ва ҳамкорлар саъй-ҳаракатини бирлаштириш учун ўзига хос платформа бўлган ШХТ бундай халқаро интеграция соҳасида самарали фаолият кўрсатаётган тузилмадир. Сўнгги йилларда бу борадаги ҳамкорлик кўлами тобора кенгайиб бормоқда. Шанхай ҳамкорлик ташкилоти давлат раҳбарларининг 2013 йил 13 сентябрда Бишкекда қабул қилинган декларацияси ҳам бундан далолат беради. Унда давлат раҳбарлари ташкилотга аъзо мамлакатларда сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий хавфсизликка путур етказиш мақсадида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишга қарши туриш, глобал интернет тармоғидан фойдаланган ҳолда терроризм, экстремизм ва сепаратизм ғояларини тарғиб қилишнинг олдини олиш, ахборот маконида мамлакатларнинг ўзини масъулиятли тутиши бўйича универсал қоидалар, принцип ҳамда нормаларни ишлаб чиқиш бўйича яқдил фикр билдирди.

Интернет, шубҳасиз, кишини ўзига тез жалб қилади. Бу эса “ўргимчак тўри”нинг оммалашувиغا ёрдам бераётир. Биринчидан, бугун жаҳон ахборот тармоғидан ҳар қандай киши фойдаланиши мумкин. Иккинчидан, глобал тармоқ “нимани хоҳласанг, шуни қилавер, барибир, ҳеч ким билмайди” қабилида иш юритишга ундаб, шахснинг кимлиги ва хатти-ҳаракати махфийлигини таъминлайди. Учинчидан, бу нафақат билимни бойитиш, зарур ахборотни топишдан ташқари, янги дўстлар орттириш, вақтни мазмунли ўтказиш имкониятидир. Мухтасар айтганда, интернетдан фойдаланувчига тармоқ ичида тўлиқ эркинлик инъом этилади.

Кибержиноятчилар буни жуда яхши билишади ва ўз ҳаракатларида технологик услублардан кўра, кўпроқ инсоннинг нозик жиҳатларидан усталик билан фойдаланади. Улар ҳийла-найранг билан одамларни ўйламасдан ҳаракат қилишга мажбур этадиган ва ахборот хавфсизлигига таҳдид сола оладиган ўзига хос психологлардир.

Масалан, мусиқа кўчириб олиш мақсадида у ёки бу сайтга кирган киши “Фалончи машҳур шахс йўл-транспорт ҳалокатида учради” деган рекламага кўзи тушади ва беихтиёр қизиқувчанлиги ортиб уни очади. У ерда эса яна бир сайт очилади ва ундаги янгилик давомини ўқийди. Натижада ушбу машҳур шахс бор-йўғи йўл-транспорт ҳодисаси туфайли ҳалок бўладиган фильмда роль ижро этгани маълум бўлади. Кибержиноятчилар шундай алдовлар билан ушбу сайтга кирган кишининг компютерига у ҳақдаги махфий маълумотларни кўчириб, унинг қайси тугмани босиши ва қайси паролни теришини кузатадиган “троян” дастурини жойлаштириб қўйиши мумкин. Ушбу ахборот эса тез орада жиноятчилар қўлида бўлади.

Шу ўринда турли хил ҳуқуқшунос олимларнинг бу борадаги турлича қарашлари мавжуд бўлиб, буларнинг барчаси вояга етмаганлар томонидан ахлоқсизлик хатти-ҳаракатларини содир қилишга оилани роли муҳимлиги ҳақида сўз юритилади. Жумладан, В.Я.Рубальская томонидан ўтказилган тадқиқотлар натижасига кўра, 47 % вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлиги ота онанинг салбий таъсири ёки бефарқлигининг, 14,8 % оилада ҳамжиҳатлик йўқлигининг, 38,3% ота ёки онани йўқлигининг, 23,5 % катталарнинг лоқайдлиги туфайли жиноят содир этишнинг асосини ташкил этади.<sup>12</sup>

Ўсмир ҳуқуқлари ўзида бутун инсониятнинг кадр-қимматини мужассам этади. Бу дегани болалик - инсон шахсининг ривожланишида ноёб, муҳим давр демакдир. Инсон ҳуқуқлари аввало, болалар ҳуқуқларидан бошланади. Ҳар қандай жамият ва барча инсониятнинг келажаги ўта юқори даражада ёш авлоднинг моддий ва жисмоний ривожланиш даражасига, унинг инсон ҳуқуқларини шахс ва жамият ҳаётидаги роли ва аҳамиятини тушунишига, шунингдек, ўз тақдири ҳамда ўз ҳаракатлари учун масъулиятига боғлиқ.

“Ижтимоий фикр” жамоатчилик фикрини ўрганиш маркази томонидан ўтказилган жамоатчилик фикри сўрови мамлакатда юз бераётган жамиятнинг ижтимоий тузилмасига дахл қиладиган жараёнлар ижтимоий йўналишларнинг алмашишига ва анъанавий кадриятларнинг

<sup>1</sup> Абдурасулова Вояга етмаганлар жиноятчилиги ва унинг олдини олиш муаммолари. “Қонун ҳимоясида” Т. №1. 2001й. 23 бет.



қайта баҳоланишига олиб келганлигини кўрсатади. Ҳам ижтимоий, ҳам шахсий устуворликлар тобора аҳамиятлироқ бўлиб бормокда. Бу хулосага Ўзбекистон ёшларининг устувор ҳаётий кадриятларини аниқлаш асосида келинди.<sup>1</sup>

Хулоса қилиб, ахлоқ, одоб, адолат ва адолатсизлик; яхшилик ва ёмонлик; эзгулик ва ёвузлик; мақтов ва иснод, жамият томонидан рағбатлантириладиган ва қораланадиган хатти-ҳаракатлар, ор-номус, виждон, бурч, кадр-қиммат ва ҳоказо категориялар кўринишида ижтимоий ҳаёт шароитларининг бевосита таъсири сифатида одамлар онгида пайдо бўладиган қарашлар, тасаввурлар ва қоидалардир.

### Адабиётлар рўйхати

1. Каримова Л.И. Социальная психология и реклама: Учебное пособие для вузов. Т.: Издательско-полиграфический творческий дом им. Г.Гуляма, 2004. С. 20.
2. “Ўзбекистон ёшларининг умумий тарбиясини юксалтиришнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги республика илмий конференцияси материаллари 1-қисм. (Самарқанд, 2002 йил, 24-25 май) Самарқанд-2002.
3. Абдурасулова А. Вояга етмаганлар жиноятчилиги ва унинг олдини олиш муаммолари. “Қонун ҳимоясида” Т. №1. 2001й. 23 бет.
4. Нормаматова Махсуда. Девиант ҳуқ атвор социологияси. Дарслик. СамДУ нашриёти. 2023 йил.

<sup>1</sup> Нормаматова Махсуда. Девиант ҳуқ атвор социологияси. Дарслик. СамДУ нашриёти. 2023 йил





Aslanov Said Karimovich,  
Navoiy davlat universiteti,  
Ijtimoiy fanlar kafedrası tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Boshqaruv nazariyasining qo'llanish doirasi va muayyan holatda hal qilinadigan muammolarga qarab menejment falsafiy, kibernetik, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va boshqa jihatlarida o'rganilishi mumkin. Boshqaruv ob'ektlari (odamlar, hayvonlar va o'simliklar, texnologiya) asosida bir qator mualliflar ijtimoiy, biologik va texnik boshqaruvni ajratadilar. Mazkur maqolada boshqaruvning strukturavuy va metodologik asoslari tahlil qilinib, uning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tashkilot, taraqqiyot, texnologiya, element, kadr, boshqaruv, yetakchilik, menejment, inson

Tashkilotning rivojlanishini boshqarish jarayonini tahlil qilish "rivojlanish" va "boshqaruv" kabi toifalar bilan ishlash orqali amalga oshiriladi. Tashkilotning rivojlanishini boshqarish boshqaruv va ijtimoiy boshqaruv jarayonlarining ajralmas qismidir. Ijtimoiy menejment boshqaruv va etakchilik jarayonlarini o'z ichiga oladi. "Taraqqiyot" tushunchasi "o'zgarish" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Tashkilotning rivojlanishi yoki tashkilotning rivojlanishi tashkilot madaniyati (tashkilot madaniyati), uning missiyasi, imidjida ifodalangan falsafasi kabi omillarni hisobga olishni o'z ichiga oladi. [1] Ijtimoiy boshqaruvning bir nechta darajalarini ajratib ko'rsatish odatiy holdir: eng yuqori - davlat tomonidan, xususiy (katta tizim bo'yicha - mintaq, sanoat), undan ham ko'proq xususiy (o'rta tizim bo'yicha - ijodiy uyushma, birlashma). korxonalar), eng past (kichik tizimni boshqarish; bu erda boshqaruv sub'ekti, birinchi navbatda, umumiy, tashkiliy va tarbiyaviy funktsiyalarni bajaradi). [2] Ushbu ishda biz tizim sifatida tashkilot darajasidagi ijtimoiy boshqaruv haqida gapiramiz. Ijtimoiy menejment ijtimoiy tizimga uning ishlashini optimallashtirish uchun ta'sir ko'rsatadi, asosiy vazifasi jamoani qurish bo'lgan insonparvarlik texnologiyasi va asosiy elementlari kadrlar siyosati, malaka va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi. ishchilarning harakatchanligi, ishchilarni rag'batlantirish va rag'batlantirish, aloqa va qayta aloqani rivojlantirish, nizolarni boshqarish. "Ijtimoiy boshqaruv" tushunchasi ikki ma'noda qo'llaniladi: 1- ijtimoiy tizim va jarayonlarga ta'siri haqida gap ketganda; 2 - tizimning alohida tarkibiy qismlariga ta'siridan farqli o'laroq, boshqaruv sub'ekti butun jamiyatga ta'sirini aniqlashda. Ijtimoiy boshqaruv boshqaruv va yetakchilik jarayonlarini o'z ichiga oladi; ijtimoiy tizimlarni rivojlantirish yoki barqarorlashtirish, ularning faoliyatini optimallashtirish, muammolarni hal qilishda sa'y-harakatlarning birligi va muvofiqlashtirilishini ta'minlashga qaratilgan tashkilotlar, guruhlar va shaxslarning faoliyati. [3]

Boshqaruv turli tekisliklarda ko'rib chiqilishi mumkin. Shundan kelib chiqib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin.

Odatiy "menejment" tushunchasi bilan bir qatorda u "boshqaruv" ga aylandi. Ular ko'pincha bir xil, almashtiriladigan tushunchalar sifatida ishlatiladi. Buning asosi "management" va inglizcha "management" so'zlari bilan ifodalangan toifalarning bir xil mohiyatidir. Tarjima qilinganda, "menejment" boshqaruvni bildiradi; ammo bu so'zning tor ma'nosida menejment, inson va moddiy resurslar bilan va ular orqali tashkiliy maqsadlarga erishish jarayoni sifatida [6] tashkilotdagi boshqaruvning o'rta va quyi darajalari bo'lib, uning maqsadi monitoring, safarbarlikdir. resurslar va amalga oshirish siyosati.

Tashkilotlarni boshqarish sohasini anglatadi, bu barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan maxsus belgilangan faoliyatdir; shu bilan birga menejment ham menejmentni o'rganuvchi fandır[7]. XIX-asr oxirida fan sifatida vujudga kelgan boshqaruv jarayonlar va tizimlar bilan shug'ullanadi. tashkiliy madaniyat va innovatsiyalarni boshqarish muammolari. 90-yillarda etakchilik sohasidagi o'zgarishlar birinchi o'ringa chiqdi, bu bilan tashkilotlar kelajakka umid bog'laydilar.

Yetakchilik, menejmentdan farqli o'laroq, biz uchun boshqaruv sub'ektlarining guruhli o'zaro ta'siri jarayoni sifatida tushuniladi, uning asosiy belgilari shaxsning obro'-e'tibori orqali ta'sir qilish, rahbar va izdoshlar o'rtasidagi munosabatlarning sub'ektiv xarakteridir.

Menejmentning fan sifatida rivojlanishining hozirgi bosqichi jamiyatni yanada samarali rivojlantirish maqsadida menejmentlarning yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratgan holda ilgari paydo bo'lgan barcha sohalarni birlashtirishga urinishdir. Boshqaruv fani va san'ati



sifatida zamonaviy menejmentning eng muhim xususiyati tashkilotlardagi yangi ijtimoiy guruhga - bilimga ega bo'lgan va aqldan qanday foydalanishni biladigan kognitariatga yo'naltirilganlikdir. Axborot oqimlaridan foydalanish imkoniyatiga ega va yuqori madaniyatga ega bo'lgan kognitariat asosiy resurs sifatida qaraladi, undan samarali foydalanish boshqaruv vazifalaridan biriga aylanadi.

Zamonaviy menejmentning o'ziga xos xususiyati shundaki, odamlarning nafaqat boshqaruv sub'ekti sifatida harakat qilish, balki rahbarga ergashish istagini hisobga olish. Rahbar - ma'mur va menejer uchun insonga xos bo'lgan o'z-o'zini rivojlantirish potentsialini amalga oshirish uchun sharoit yaratish muhimdir. Tashkilot madaniyatiga, boshqaruvni demokratlashtirishga, boshqaruv uslubiga, tashkilot xodimlarining rahbarligi va boshqaruvidagi ishtirokiga e'tibor qaratish lozim. Ijtimoiy boshqaruvni ilmiy tushunishni uning tashkilot bilan munosabatlarini tahlil qilmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki ularning ikkalasi ham ijtimoiy tizimning eng muhim atributlari hisoblanadi. Tashkilot ob'ekt sifatida jamiyat tomonidan yaratiladi va u sub'ekt sifatida jamiyatga ma'lum talablarni qo'yadi va unga o'z mahsuloti yoki xizmatlarini qo'shadi.

Boshqaruv va tashkilot o'rtasidagi munosabatlar odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar asosida vujudga keladigan birgalikdagi faoliyat shakli sifatida qaraladi. Shu bilan birga, tashkilot juda keng ko'lamda - umumiy inson faoliyatining ijtimoiy tashkiloti, odamlarning birgalikdagi faoliyati shakli, shaxsning faoliyati jamiyat faoliyatiga jalb qilinadigan universal usul sifatida ko'rib chiqiladi. Shaxslarning ijtimoiy aloqasi ular o'rtasidagi faoliyat almashinuvida hal qilinadigan va ularning ehtiyojlarini qondirishga olib keladigan qarama-qarshilik sifatida amalga oshiriladi. Muayyan sharoitlarda ijtimoiy aloqa shaxslarni ajratish va ularni bir-biridan uzoqlashtirish vositasiga ham aylanishi mumkin. Tashkilot - bu zamonaviy dunyoda inson jamiyatining eng keng tarqalgan shakli, u orqali shaxs jamiyat bilan bog'lanadi; Barcha tashkilotlar odamlarga yolg'iz o'zi qila olmaydigan narsalarni qilishga yordam berish uchun mavjud bo'lgan va mavjud. Tashkilot inson harakatlarining oddiy yig'indisi emas, balki shaxsning o'zini o'zi anglash shakli, shaxs va jamiyat o'rtasida vositachi sifatida ishlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Markov M. Ijtimoiy boshqaruv nazariyasi. Per. bolgar tilidan - M.: Taraqqiyot, 1978. - B. 12
2. Suvorov J.H., Averin A.N. Ijtimoiy boshqaruv. Falsafiy tahlil tajribasi. - M.: Mysl, 1984. - B. 17
3. Voronin A.M. Maktabda innovatsion ta'lim muhitini rivojlantirishni boshqarish: Dis. ...kand. ped. Sci. - Bryansk, 1995. - P. 4;
4. Xodgkinson S. Etakchilik falsafasi. - Nyu-York: St. Martinning matbuoti, 1983. - B. 29.
5. Sobirovich, T. (2025). New Uzbekistan and Political Reform: The Role of National Strategies In Strengthening Governance. Indonesian Journal of Public Administration Review, 2(2), 12-12.
6. Sobirovich, T. B. (2021). The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 197-202.



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШАЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA XORAZMDAGI MAKTABLARNING XORIJIY HAMORLIK ALOQALARI

Sa’dullayev Mirzobek Baxtiyor o‘g‘li  
Turon universiteti 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada so‘nggi yillarda O‘zbekistonda maktab ta’limi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar Xorazm viloyati misolida tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktab, o‘quvchi, ta’lim-tarbiya, hamkorlik, malaka oshirish, o‘qituvchi.

Davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, ta’lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e’tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. Yurtimizda “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi”, degan ezgu g‘oya asosida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda barcha sohalar qatori ta’lim sohasidagi islohotlar ham xalqaro jamoatchilik tomonidan e’tirof etilmoqda.

So‘nggi yillarda barcha sohalar qatori maktab ta’limi tizimida ham xorijiy hamkorlik aloqalari kengayib bormoqda. Xususan, mavzuni Xorazm viloyati misolida tahlil qiladigan bo‘lsak, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-11 sinflari uchun zamonaviy milliy darsliklar yaratish doirasida 1-sinflar uchun yangi fransuz tili darsligi muallifi sifatida Bog‘ot tumanidagi 8-sonli maktabning fransuz tili fani o‘qituvchisi Bobojonov Xamza Yusupovich Xalqaro FSPI tashkiloti tomonidan e’lon qilingan loyihalar tanlovida “Boshlang‘ich sinflar uchun zamonaviy milliy fransuz tili darsligini yaratish” g‘oyasi bilan ishtirok qilib, Fransiyaning Vishi shahrida joylashgan Clermont Auvergne universitetining CAVILAM o‘quv markazida ikki oy davom qiladigan o‘quv kurslarda 2021-yilning 12 iyundan-19 iyulgacha magistratura yo‘nalishida malaka oshirib qaytdi<sup>1</sup>.

Urganch shahridagi 19-sonli maktabning nemis tili fani o‘qituvchisi Sobirova Roza Davlatmurotovna 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligining 2020 yil 23 noyabrdagi “Ustoz-2020 milliy mukofoti” tanlovini o‘tkazish to‘g‘risida”gi 277-sonli buyrug‘i bilan o‘tkazilgan “Ustoz-2020” milliy mukofoti ko‘rik-tanlovida ishtirok qilib, “Ta’limda xizmat ko‘rsatgan ustoz” nominatsiyasi bo‘yicha g‘olib bo‘lib, Xalq ta’limi vazirligining 2021-yil 29-noyabrdagi “Ustoz -2020 milliy mukofoti” tanlovi g‘oliblarini “RewirEd” xalqaro ta’lim sammitida ishtiroki to‘g‘risida”gi 382-sonli buyrug‘i asosida 2021 yil 12-16 dekabr kunlari Dubay shahrida (Birlashgan Arab Amirliklari) o‘tkazilgan “RewirEd” sammitida ishtirok qildi.

Xalq ta’limi vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 01-03/5-754-sonli xatiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimida 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni<sup>2</sup> ijrosini ta’minlash maqsadida Xalq ta’limi vazirligi tomonidan xalqaro ekspertlarni jalb qilindi. Xalq ta’limi vazirligi tomonidan 2021-yil 17-yanvardan 2021-yil 30-dekabrgacha Urganch shahridagi 5-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabiga ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha xalqaro mutaxassis Karolin Mesa jalb qilindi<sup>3</sup>.

Shuningdek, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashlari bilan hamkorlikda “English Speaking Nation” dasturi doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari o‘rtasida ingliz tili darslarini o‘tkazish va malaka oshirish seminarlarini tashkil ingliz tili sohasida tajriba almashish bo‘yicha turli tadbirlarda qatnashish, o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan treninglar samaradorligini monitoring qilish va baholash maqsadida 2021-yil 24-yanvardan 2022-yil 25-yanvargacha hududiy markazga xalqaro mutaxassis Mina M.Geyvell va uning turmush o‘rtog‘i Adam T.Mak Ari (qo‘shimcha Qoraqolpog‘iston Respublikasi) jalb qilindi.

<sup>1</sup> Xorazm viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi joriy arxiv ma’lumotlari. – Urganch, 2025.

<sup>2</sup> Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y., 06/19/5712/3034-son // <https://lex.uz/docs/-4312785>

<sup>3</sup> Xorazm viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi joriy arxiv ma’lumotlari. – Urganch, 2025.



Xalqaro ekspertlar bir yil davomida ingliz tili o'qituvchilariga metodik yordam ko'rsatdilar, dars mashg'ulotlari o'tkazdilar, o'qituvchilarning darslarini kuzatdilar, hamkorlikda faoliyat olib bordilar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, so'nggi yillarda O'zbekistondagi ochiqlik siyosati natijasida mamlakatimizning xorijiy hamkorlik aloqalari kuchayib bormoqda. Buning natijasida maktab ta'limida ham xalqaro baholash tizimlarining joriy etilishi, xalqaro ekspertlarning ta'lim jarayonlariga jalb etilishi yaxshi samara bermoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xorazm viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi joriy arxiv ma'lumotlari. – Urganch, 2025.
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y., 06/19/5712/3034-son // <https://lex.uz/docs/-4312785>
3. INTRNET MA'LUMOTLARI





## СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДАГИ ТУТГАН ЎРНИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### ЁШЛАР ОНГИДА АХБОРОТ ТАҲДИДИГА ҚАРШИ ИММУНИТЕТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЧОРАЛАРИ

Ширинова Фотима Носировна,  
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ  
“Гуманитар фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси  
Телефон: +998 94 420 03 96  
fotima\_shirnova@mail.ru

**Аннотация.** Мазкур мақолада ҳозирги глобаллашув шароитида ёшлар онгини эгаллаш учун олиб борилаётган таҳдидлар ҳамда уларга қарши кураш олиб бориш усуллари, ёшлар онгида мафкуравий иммунитетни шакллантириш чоралари ҳақида фикр юритилган.

**Калит сўзлар:** глобаллашув, ахборот технологиялари ривож, жаҳон ахборот майдони, ахборот уруши, ахборот инқилоби, диний-экстремистик ташкилотлар, миллатлараро ҳамжиҳатлик, миллий ва диний кадриятлар, ватанпарварлик, умуминсоний кадриятлар

Инсоният ҳар доим зиддиятлар ва хавотирлар гирдобидида яшаб келган. У ўз бошидан жаҳон урушлари, ядро қуроли хавфи, турли табиий ва техноген фожияларни кечирган, улар бугун ҳам давом этиб келмоқда. Бугун у ўзининг таъсир кучи билан юқорида келтирилган хавфлардан кам бўлмаган глобаллашувнинг хавф-хатарларига дуч келмоқда. Асосий хавф шундан иборатки, у юксак ривожланган мамлакатларга, эндигина тараққиёт йўлига кириб бораётган мамлакатлардаги миллатлар ва элатларни қарам қилиш, уларнинг моддий бойликларини қўлга киритишда қирғинбарот қурол кучи билан эмас, балки ўзларида мавжуд бўлган фан ва техника, технология ютуқларини оммалаштириш, инвестициялар киритиш, иқтисодий интеграцияни жадаллаштириш каби омиллардан фойдаланиш воситасида уларнинг онги, қалби ва руҳиятини эгаллаш, охир-оқибатда улар устидан ҳукмронликни тўла ўрнатиш имкониятини кенгайтиришга хизмат қилмоқда.

Ҳеч қандай миллий чегараларни тан олмайдиган, дунёда умумий технологик ва ахборот майдони юзага келаётганини характерловчи техносферанинг глобаллашуви унинг яна бир ўзига хос хусусиятидир. Шу билан бирга, сиёсий глобаллашув ҳамда фан, маданият, таълим ва ахлоқ соҳасидаги жараёнларни ифодаловчи ижтимоий-маданий глобаллашув ҳам содир бўлаётганини ёддан чиқармаслик зарур. Глобаллашув жараёнининг яна бир ўзига хос жиҳати унинг мафкуравий таъсир ўтказиш қўламини ҳаддан зиёд кенгайтириб, бекиёс даражада тезлатиб юборганида ҳам кўринади. Ҳозирги шароитда у мафкуравий таъсир ўтказишнинг ниҳоятда ўткир қуролига айланиб, ҳар хил сиёсий кучлар ва марказларнинг манфаатларига хизмат қилаётганини соғлом фикрлайдиган ҳар қандай одам, албатта, кузатиши муқаррар [1].

Мафкуравий глобаллашув ахборот воситаларининг ривож ва бу соҳада содир бўлаётган инқилоб билан боғлиқ. Мутахассислар фикрича, инсоният бугунги кунда янги ахборот инқилобини бошдан кечирмоқда ва у кишилиқ жамияти тарихидаги биринчи инқилоб эмас. Нутқнинг шаклланиши ахборот узатиш имкониятларини кенгайтирган бўлса, ёзувнинг пайдо бўлиши уни узоқ вақт давомида сақлаш ва ахборотни унинг яратувчисидан ажратган ҳолда улкан масофаларга етказиш, ҳатто замонлараро олиб ўтишга йўл очди. Газета ва журналларни нашр этишнинг йўлга қўйилиши ёзма ахборотни узатишдаги тезкорлик ва қамровлилиқни янада кенгайтди. Радио ва телевидение эса ахборотни овоз ва тасвир орқали узатишни таъминлаб, уни янги сифатий босқичга кўтарди.

Бугунги кунда ёшларимиз нафақат ўқув даргоҳларида, балки радио-телевидение, матбуот, Интернет каби воситалар орқали ҳам ранг-баранг ахборот ва маълумотларни олмоқда. Жаҳон ахборот майдони тобора кенгайиб бораётган шундай бир шароитда ёшларнинг онгини фақат ўраб-чирмаб, уни ўқима, бунга кўрма, деб бир томонлама тарбия бериш, уларнинг атрофини темир девор билан ўраб олиш, ҳеч шубҳасиз, замоннинг талабига ҳам, бизнинг эзгу мақсад-муддаоларимизга ҳам тўғри келмайди. Нега деганда, биз юртимизда очик ва эркин демократик



жамият куриш вазифасини ўз олдимизга қатъий мақсад қилиб қўйганмиз ва бу йўлдан ҳеч қачон қайтмаймиз[2]. Бугунги кунда глобаллашув жараёнларида намоён бўлаётган таҳдидлар орасида ахборот таҳдиди энг кўп намоён бўлаётгани сир эмас. Бугунги ахборот инқилоби олдинги даврларда пайдо бўлган ахборот узатиш усуллариининг кўпгина томонларини ўзида синтез қилган замонавий компьютер технологияларига асосланган Интернет каби ходисаларнинг пайдо бўлиши билан боғлиқ. Ҳозирги кунда ахборот уруши шиддат билан авж олмакда. Ахборот уруши (information war) – турли мақсадларга эришиш учун рақибга ғоявий-таъсир кўрсатишдир. Шунингдек, ахборот хуружи рақибга таъсир кўрсатиш орқали жамоатчилик онгини ғаразли йўллар асосида шакллантиришга уринишдир. Манфаатдор кучлар ахборот хуружи қутилган натижани бериши учун ёлғон хабар тарқатиш босимини кучайтириб, интернетни ёлғон маълумотлар, сохта иддаоларга тўлдириш каби усуллардан фойдаланишади[3].

Бугунги кунда айниқса, диний мутаассиб тузилмалар ўз фаолият кўламини янада кенгайтириб, глобал даражада намоён бўлаётгани тинчлик, осойишталик ва халқаро муносабатлар барқарорлигига катта таҳдид туғдирмоқда. Шунинг учун диний экстремизм ва ундан озикланаётган халқаро терроризмнинг давлат ва жамият хавфсизлигига таҳдидини ўз вақтида, тўғри англаш зарур. Шу билан бирга, унга қарши йўналтирувчи услубларни ишлаб чиқиш, кишилиқ жамияти барқарорлигини таъминлашга хизмат қилувчи омилларни амалиётга жорий этиш керак. Бу муаммони барча давлатларнинг куч ва ҳаракатларини бирлаштириш стратегиясини қўллаш йўли билангина муваффақиятли ҳал қилиш мумкин. Диний-экстремистик ташкилотлар фаолиятининг таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, деярли барча кўринишдаги экстремистик ва террорчи оқимлар асосан ижтимоий-психологик ва мафкуравий таъсир омилларига катта эътибор қаратмоқдалар[4].

Дунёнинг барча динлари асрлар бўйи миллатлараро ҳамжиҳатликка, тинч-тотув ҳаёт кечиришга даъват этиб келган, одамларга ишонч ҳиссини мустаҳкамлаган. Чинакам дин уларни жисман ва руҳан поклаб, юксалтирган, ҳаёт синовлари, муаммо ва қийинчиликларни енгиб ўтишларида куч бағишлаган. Умуминсоний ва маънавий қадриятларни сақлаб қолиш ҳамда авлодларга етказишга ёрдам бериб келган. Бугунги кунда ижтимоий хавфи тобора ортиб бораётган ақидапарастлик, диний экстремизм ва фундаментализм ўзининг чиркин ғоялари ва ёвуз мақсадларига кўра, диний таълимотларига, қадриятларига тамомила хилофдир. Кишилар онги ва қалбини эгаллаш учун кураш мафкуравий жараёнларнинг бош мақсадига айланган ҳозирги глобаллашув замонида мустақил онг ва мустақил фикрга эга бўлган шахсни тарбиялаш масаласи нафақат маънавий, балки, муҳим сиёсий аҳамият касб этмоқда. Шу боисдан, Ватанимиз келажаги учун қайғурад эканмиз, фарзанд тарбиясини издан чиқарувчи ёт таъсирлардан ёшларимизни ҳимоя қилиш, уларда ахборот таҳдидларга қарши тура оладиган маънавий иммунитетни ҳосил қилиш мақсадида қуйидаги вазифаларни амалга ошириши мақсадга мувофиқдир:

- Ёшларда ташқи таҳдидлар, бузғунчи таъсирларга қарши тўғри, ҳушёр муносабатни шакллантириш;
- Ёшларнинг билимини ошириш, уларда воқеа-ҳодисалар моҳиятини таҳлил қилиш малакасини шакллантириш;
- Аҳолининг холис ва ҳаққоний ахборотга эга бўлишини таъминлаш, шунингдек, ахборот оқимида жамият ва давлат манфаатларига мос бўлган ахборотларни одамлар тезроқ қабул қиладиган ва ишонадиган даражага кўтариш;
- Ёшларга миллий ва диний қадриятлар асосида тарбия бериш ҳамда ватанпарварлик, умуминсоний қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялаш.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. Т.: Академия, 2007. 336-б.
2. Омонов Б.А. Жамиятни модернизациялашнинг концептуал асослари. – Т.: Алоқачи, 2019. – Б. 91, 195.
3. Тулепов А. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя: Ёрдамчи ўқув қўлланма. Тошкент: Movarounnahr, 2015, 15- бет
4. Тулепов А. Интернетга уй қурган “ўргимчаклар”. Т.: Movarounnahr, 2014, 11-бет.



## ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### О‘ЗБЕК ТИЛИГА ОИД REALIYALARNING LINGVOMADANIY TADQIQI

**Djumakulova Dilnoza Kudratovna,**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

**Turayeva Umida Shuhratovna,**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti katta o‘qituvchisi (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi realiyalar tushunchasi, ularning tarjimada tutgan o‘rni hamda lingvomadaniy yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Realialarning turlari, ularni tarjima qilishda oddiy lingvistik usullardan tashqari, madaniy kontekstni chuqur anglash zarurligi ta’kidlanadi. Shuningdek, maqolada maqolada realialarni tarjima qilishda lingvomadaniy yondashuvning ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** realiya, geografik realiya, etnografik realiya, ijtimoiy realiya.

Bugungi kunda tillararo tarjimada faqat grammatik va leksik moslik emas, balki madaniy komponentlar, xususan, realialarni to‘g‘ri talqin qilish va ularni mazmun jihatdan mos ekvivalentlar bilan berish muhim masalaga aylangan. Realialar bir xalqning madaniy hayoti, urf-odatlar, tarixiy hamda ijtimoiy muhitini aks ettiruvchi leksik birliklar bo‘lib, ularni tarjima qilish jarayoni lingvistik yondashuvdan tashqari, chuqur lingvomadaniy tahlilni ham talab etadi.

“Realia” tushunchasi tarjimashunoslik va lingvomadaniyatshunoslikda muhim o‘rin tutadi. Ushbu tushunchani birinchi bo‘lib bolgar olimlari S.Vlaxov va S.Florin fanga kiritgan bo‘lib, ular realialarni tarjimada qiyinchilik tug‘diradigan va madaniy xususiyatlarga ega bo‘lgan so‘zlar sifatida tavsiflagan. G.D.Tomaxin ushbu tushunchani quyidagicha ta’riflaydi: “Realialar faqat muayyan millat va xalqlarga tegishli bo‘lgan moddiy madaniyat predmetlari, tarixiy dalillar, davlat institutlari, milliy va xalq og‘zaki ijodiyoti qahramonlari, afsonaviy mavjudotlar va h.k. nomidir” [2; 5]. Realialar odatda xalqning geografik, tarixiy, ijtimoiy yoki etnografik hayoti bilan bog‘liq bo‘ladi va boshqa tilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega emasligi sababli ularni tarjima qilish murakkab jarayondir.

Sh.Usmonovning so‘zlariga ko‘ra, “Realia boshqa tilda so‘zlashuvchilarning amaliy tajribalarida mavjud bo‘lmagan predmetlar, tushunchalar va vaziyatlarni ifodalovchi so‘zlar. Masalan, moddiy va ma’naviy madaniyatdagi milliy taom nomlari, milliy libos nomlari va h.k.” [5; 84]. Realia atamasi lingvistika va tarjimashunoslikda keng qo‘llanilib, muayyan xalqning madaniyati, tarixi, geografiyasi yoki ijtimoiy hayotiga xos bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarni anglatadi.

Tarjimashunoslik bo‘yicha ko‘plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, S.Vlaxov va S.Florin “realia” tushunchasini tarjima nazariyasiga kiritgan eng muhim olimlar hisoblanib [1], realialarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilgan va ularni qanday tarjima qilish mumkinligini taklif etgan hamda quyidagi realia turlarini aniqlagan: Geografik realialar (tog‘, daryo, shahar nomlari); Etnografik realialar (kiyim-kechak, ovqat, an’analar); Ijtimoiy realialar (unvonlar, davlat tashkilotlari, tarixiy hodisalar). A.Fedorov tarjimashunoslikda madaniy tafovutlar va realialar masalasini o‘rgangan va realialarni tarjima qilishning usullari va strategiyalarini ishlab chiqqan [3]. Mazkur fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, tarjimashunoslikda realialarni tarjima qilish masalasi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, bu borada bir qator olimlar muhim tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, “realia” tushunchasini tarjima nazariyasiga kiritgan va ularni leksik-semantik jihatdan tahlil qilib, geografik, etnografik va ijtimoiy realialar kabi turlarga ajratgan. Ular realialarning o‘ziga xosliklarini saqlab qolgan holda tarjima qilishning turli yo‘llarini taklif etganlar. Shuningdek, tarjimada madaniy tafovutlarni inobatga olish zarurligini ta’kidlab, realialarni tarjima qilishning samarali usullari va strategiyalarini ishlab chiqqan.

Ushbu tadqiqotdagi nazariy qarashlar hamda yondashuvlar asosida G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asaridan keltirilgan matnlardan parchalar tahlil qilinib ko‘rib chiqiladi.

““Yalang‘och poyga” degan o‘yinimiz yaxshi o‘yin” [4; 55]. Ushbu gapda “yalang‘och poyga” deb nomlangan o‘yin nomi etnografik realia hisoblanadi. U o‘zbek bolalari o‘ynaydigan milliy o‘yin



bo‘lib, bu boshqa xalqlarda mavjud bo‘lmasligi yoki turlicha nomlanishi mumkin.

““Qushim boshi” shunaqa o‘yin: bolalar ikki to‘daga ajralishadi, ular ichidan ikkitasi “onaboshi” bo‘ladi” [4; 55]. Mazkur gapda “qushim boshi”, “onaboshi” kabi realiyalar mavjud bo‘lib, ular etnografik realiyalar sanaladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib shuni xulosa qilib aytish mumkinki, realiyalarni tarjima qilishda faqatgina til qoidalariga amal qilish yetarli emas, balki ularning madaniy mazmunini to‘g‘ri tushunish ham zarur. Chunki realiyalar milliy madaniyat, urf-odat va ijtimoiy hayot bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan birliklardir. Shu bois, bunday leksik elementlarni tarjima qilish jarayonida lingvomadaniy yondashuv asosiy rol o‘ynaydi va tarjimondan madaniyatlararo bilim va ko‘nikmalarni talab qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – Москва Высш. шк., 1986. – 416 с.
2. Томахин Г.Д., Теория перевода.– Москва, 1988. – 239 с.
3. Федоров А.В., Основы общей теории перевода. – М.: Высш. шк., 1983. – 344 с.
4. Ғафур Ғулом. Шум бола. Қиссалар ва хикоялар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б.183.
5. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya (darslik), Toshkent, 2019. – 245 b.





IDEOLOGICAL REFLECTIONS IN COMPARATIVE POLITICAL PHRASEOLOGY:  
A LINGUISTIC STUDY OF UZBEK AND ENGLISH POLITICAL DISCOURSE

Nozima Toshpo'latova

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Ilmiy-texnik tarjima 2-kurs magistranti

nozimatoshpolatova@gmail.com

+998880352648

**ABSTRACT:**

Political language plays a pivotal role in shaping national identity, public opinion, and international communication. This article presents a comparative analysis of political phraseology in the Uzbek and English languages, with a focus on commonly used political expressions, slogans, and key terms. Through contextual and cultural evaluation, this study highlights how these phrases reflect differing sociopolitical values, institutional frameworks, and ideological underpinnings. The research also explores challenges in translation and the nuances necessary to retain ideological fidelity across linguistic boundaries. Findings indicate that while many terms share structural similarity, their connotative meanings often diverge significantly, reflecting distinct political histories and cultural expectations.

**KEYWORDS:**

Political language, phraseology, Uzbek, English, translation, ideology, sociopolitical discourse, political slogans, semantic equivalence

**Introduction**

Political phraseology is a vital component of any language, serving both rhetorical and strategic functions. It reflects the power structures, historical struggles, and ideological leanings of a society. In multilingual and multicultural settings, political phrases undergo transformation not only in vocabulary but also in meaning and purpose. This article investigates key political phrases in Uzbek and English, exploring their structural forms, usage contexts, and ideological implications.

**1. Comparative Political Phrases in Discourse**

A fundamental aspect of political communication lies in the recurring use of specific phrases in political speeches, media commentaries, and legislative documents. Table 1 presents selected phrases in Uzbek and their English translations, along with usage contexts.

**Table 1: Comparative Political Phrases**

| Political Phrase (Uzbek)   | Translation (English)   | Usage Context (Uzbek)                  | Usage Context (English)          |
|----------------------------|-------------------------|----------------------------------------|----------------------------------|
| Xalqaro munosabatlar       | International relations | Diplomatik, siyosiy aloqalar haqida    | Diplomacy, foreign policy        |
| Ommaviy qo'llab-quvvatlash | Public support          | Saylovlarda yoki siyosiy harakatlarda  | Electoral or political support   |
| Hukumatning islohotlari    | Government reforms      | Hukumat siyosatini o'zgartirish        | Reforming government policies    |
| O'zgarishlar kiritish      | Introducing changes     | Qonunlar yoki siyosatdagi o'zgarishlar | Political or legislative changes |

These phrases reveal both linguistic parallelism and political divergence. For instance, “Ommaviy qo'llab-quvvatlash” in Uzbek may suggest grassroots political movements, while in English it is often associated with institutional polling and media endorsements.

**2. Translation and Ideological Variations in Political Slogans**

Political slogans represent distilled ideological messages meant to resonate emotionally with the public. When translated, they often lose or shift meaning depending on cultural relevance and political climate.



Table 2: Translation Variations in Political Slogans

| Political Slogan (Uzbek)     | Literal Translation (English) | Contextual Translation (English) | Cultural/Political Differences                               |
|------------------------------|-------------------------------|----------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| Vatanni himoya qilish        | Defending the Homeland        | National Defense                 | Strong emphasis on nationalism in Uzbekistan                 |
| Adolatli jamiyat             | Fair Society                  | Just Society                     | Reflects emphasis on justice and social equality             |
| Yangi O'zbekiston            | New Uzbekistan                | A New Uzbekistan                 | Symbol of ongoing reforms and modernization                  |
| Erkin va rivojlangan jamiyat | Free and Developed Society    | A Free and Progressive Society   | Idealized goal of political freedom and economic development |

The slogan “Yangi O‘zbekiston” is emblematic of President Mirziyoyev’s reform agenda and national rebranding. In English, its translation maintains tone rather than precise lexical meaning, emphasizing a progressive vision rather than literal “newness.”

### 3. Semantic and Cultural Implications of Key Political Terms

Certain political terms possess semantic depth due to their historical or institutional significance. Table 3 outlines key Uzbek terms and their English counterparts, with attention to their political weight.

Table 3: Political Role of Key Terms in Both Languages

| Term                 | Uzbek Definition                                 | English Equivalent       | Political Implication                                       |
|----------------------|--------------------------------------------------|--------------------------|-------------------------------------------------------------|
| O'zbekiston hukumati | The governing body of Uzbekistan                 | Government of Uzbekistan | Centralized executive authority                             |
| Mustaqillik          | Freedom from foreign control                     | Independence             | Often linked to post-Soviet national identity in Uzbekistan |
| Ijtimoiy adolat      | Equitable distribution of wealth and opportunity | Social justice           | A principle of modern political reform and fairness         |
| Inqilob              | Systemic or ideological overthrow                | Revolution               | Significant transformation, either democratic or radical    |

While “Mustaqillik” evokes strong national memory in Uzbekistan (independence from the USSR), in English discourse, “independence” is a more neutral term applied to various forms of autonomy.

### 4. Discussion: Challenges in Translating Political Phraseology

Translating political language goes beyond linguistic fidelity; it requires cultural competence. Literal translations may strip phrases of their intended emotional or ideological resonance. For instance, translating “Adolatli jamiyat” as “Just Society” retains general meaning, but the cultural value of “adolat” in Uzbek—as a divine and historical concept—adds depth absent in English equivalents.

Furthermore, political phraseology can function as propaganda or ideological branding. Translators must be aware of connotative shifts that may distort the intended message or render it politically insensitive in another language.

### Conclusion

This comparative analysis underscores the complexity of translating political phraseology between Uzbek and English. While many terms share surface similarities, their meanings diverge significantly when viewed through cultural, historical, and ideological lenses. Understanding these distinctions is critical for translators, linguists, and political scientists engaged in cross-cultural discourse. Ultimately, political language is not only a medium of communication but a reflection of national identity and ideological priorities.

### References:

- Crystal, D. (2003). *Language and the Internet*. Cambridge University Press.
- Fairclough, N. (2001). *Language and Power* (2nd ed.). Longman.
- Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The Translator as Communicator*. Routledge.
- Lakoff, G. (2004). *Don't Think of an Elephant!: Know Your Values and Frame the Debate*. Chelsea Green Publishing.
- Schäffner, C. (2004). Political discourse analysis from the point of view of translation studies. *Journal of Language and Politics*, 3(1), 117–150.
- Ubaydullayev, X. (2023). *Ijtimoiy tarmoqlarda ta'lim migratsiyasini sotsiologik tahlil qilish*. Andijon Davlat Universiteti.



Djalilova Nilufar Dilshodovna  
TUIT, foreign languages department  
Teacher  
998977115751, nilufar\_dd@mail.ru

**Abstract.**

This paper explores the difficulties involved in translating phraseological units, investigates the underlying reasons for these challenges, and discusses practical strategies for overcoming them. Using examples from English, Uzbek and Russian, it illustrates how phraseological expressions operate within various cultural and linguistic frameworks.

**Keywords:** phraseological units, stylistic integrity, equivalence, cross-cultural communication, idiom, literal translation.

**Introduction**

In the recent decades, translation and research of phraseological units have attracted growing attention in linguistics and translation studies. Phraseological units—as idioms, proverbs, and fixed expressions—are culturally bound language items that pose significant challenges to interlingual translation. Such issues are particularly complex in translating between languages with different linguistic structures and cultural worldviews. In the Uzbekistan situation, where Uzbek is the national language and Russian is spoken and used extensively, with increasing exposure to English, the correct translation of phraseological units is not merely a linguistic exercise but also a cultural negotiation.

Linguistic diversity in Uzbekistan creates a unique environment for the exploration of translation issues. As Uzbek translators work with Russian, English, and other language texts, they often encounter idiomatic expressions that lack close counterparts in the target language. This is especially evident in literary translation, where it is necessary to maintain stylistic, emotional, and cultural implications of phraseological units to provide the author's intended meaning and artistic expression. However, due to differences in metaphorical imagery, historical references, and socio-cultural overtones, many phraseological units are not literally translatable, which poses a range of interpretive and strategic issues to the translator.

This article addresses the key problems of translation of phraseological units into and out of Uzbek with a specific focus on semantic loss, cultural mismatch, and the strategies employed to overcome the difficulties. Phraseological units hold a privileged position in the lexical-semantic makeup of any language. They transmit a people's national historical experience, worldview, and national features. They frequently possess figurative sense and function as preconceived form in speech. Phraseological expressions are shown to be able to convey the aesthetic properties of a language, emotional nuance, humour, and cultural finesse. Consequently, their translation necessitates special attention and linguistic sensitivity.

In modern translation theory, the translation of phraseological units remain one of the most complicated and pressing issues. This is due to the fact that they lack direct translations in other languages, possess indirect meanings, and are culture and context-dependent. Each language has its own system of imagery, which deeply influences how idioms are formed and understood. Consequently, translators must possess not only strong linguistic skills but also intercultural awareness and contextual analysis abilities.

The central challenge lies in achieving equivalence: transferring not just the literal meaning, but also the emotional, stylistic, and cultural weight of the original expression. When direct equivalents are unavailable, translators must resort to other strategies such as contextual adaptation, semantic paraphrasing, explanatory additions, or, in some cases, creative transformation of the source unit.

Phraseological expressions are lack direct equivalents: most idioms are culturally bound and unique to a language. They are highly contextual: their meanings may shift depending on the situation. Also they are figurative: literal translation often leads to semantic failure.

**Example:**

The English idiom “to kick the bucket” means “to die.” Its Russian equivalent is “сыграть в ящик” and in Uzbek, “dunyodan ko‘z yummoq” (“closed their eyes to the world”). A literal translation into Uzbek as “chelakni tepmoq” would be meaningless or even humorous in an unintended way.



While translating phraseological units the translators can face such problems as lack of equivalents, cultural discrepancies, stylistic and emotional nuance. Many idioms have no direct equivalents in the target language. The cultural imagery behind the expression may be unfamiliar or even irrelevant in the target language.

Phraseological units often carry stylistic coloration — they may be humorous, ironic, dramatic, or colloquial. These nuances are difficult to preserve in translation.

One of the strategies for translating phraseological units is using an equivalent idiom: if the target language has a corresponding idiom with the same meaning and stylistic tone, it should be used. **“to break the ice”** — Russian: **“растопить лёд”**, Uzbek: **“muzni eritmoq”** (used figuratively to describe easing tension in social interaction).

Another strategy is semantic paraphrasing. When no equivalent exists, the meaning of the idiom can be conveyed through a paraphrased explanation.

“Hit the sack” becomes “go to bed” in both Russian and Uzbek.

Avoiding literal translation is also the strategy of translating phraseological units. Literal translation of idioms often results in nonsense or unintended humor. It should be avoided unless the expression is widely understood. Sometimes, the translator may use an explanatory phrase or footnote, especially when the idiom is unique or culturally loaded.

English Idiom: **“Let the cat out of the bag”**

Russian equivalent: **“выдать секрет”**

Uzbek equivalent: **“sirni fosh qilish”**

### Conclusion

Phraseological units translation is a complex task requiring more than direct linguistic substitution. It demands cultural sensitivity, deep contextual understanding, and stylistic awareness. Successful translation preserves both the literal and figurative meanings, as well as the emotional and cultural nuances of the original. Therefore phraseological translation remains one of the most creative and intellectually demanding aspects of the translator’s work.

### References

1. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation (3rd ed.). Routledge.
2. Cowie, A. P. (1998). Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. Oxford University Press.
3. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.





USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN FORMATION INTERCULTURAL  
COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH TEACHERS

**Razzakova Gulchekhra Rustamovna**

A senior teacher of Foreign languages department of TUIT

Телефон: +998(97)0073452

Gulyarazzakova@mail.ru

**Abstract.** This article is devoted to the problem of the use of information technologies in the formation of intercultural communicative competence of future teachers of English. Some issues connected with the formation of intercultural competence in the process of teaching a foreign communication taking into account cultural and mental distinctions, that is a necessary condition for the successful dialogue of cultures of native speakers are mentioned in this article. The use of ICT in the class realized in the forms such as: the use of computer presentations; the use of interactive whiteboard; work with educational multimedia CDs programs; work with Internet resources are also reflected in the article.

**Key words:** competence, communicative competence, intercultural communicative competence, language competence, multimedia, computer technology, information technology.

Formation of the intercultural communicative competence, readiness to real foreign language communication, is the main aim of teaching foreign languages at the present stage. The competence refers to the ability creatively carrying out activities based on the formed motives, personal qualities, the ability to use legal and acceptable patterns of behavior in the professional field. Mastering competence provides the basis for the development of professionalism and skill.

The term “communicative competence” was created by Dell Hymes [10. P. 35] on the basis of a certain N. Chomsky’s concept of “language competence”, which scientist used to name individual internal mental grammar, claiming that it is presented in the form of abstract language set of rules that is most clearly reflected in the individual subconscious intuitive idea of language [10. P. 154].

D. Hayms defined communicative competence as internal knowledge of situational appropriateness of the language [12. P. 269—293]. Thus, communicative competence involves knowledge of native and other languages, providing ownership of ways of communication and interaction with people, the performance of various social roles in society, the ability to use a variety of communication objects to solve specific situations. Communicative competence has rather clear structure, the main components of which are the various competencies, with different points of view and it is characterized by giving a total overall, a fairly complete description of the concept of “foreign language communicative competence”. Revealing the essence of the concept of “intercultural communicative competence”, Leontovich O.A. stresses that intercultural competence “is a conglomeration of three components: linguistic, communicative and cultural competence. We agree with statement of Leontovich O.A. about formation of a qualitatively new one, “which has its own characteristics, different from each of the components taken separately” [4. P. 32—33].

Intercultural communicative competence is the major in foreign language education system and is aimed at the formation of the “subject of intercultural communication”.

In recent years, the question of using new information technologies in secondary school is raised more often. This is not only new hardware, but also new forms and methods of teaching, new approach to teaching. The main objective of foreign language teaching is the formation and development of communicative culture of students, teaching practical mastery of a foreign language [5. P. 25].

The intercultural communicative competence has a particular importance for modern education, so as it is school graduates who will carry out not only an intercultural communication in the professional sphere, but also to solve the problems of the formation and development of intercultural competence in their future professional activity. A modern education is designed to meet the challenges of educating cross-cultural personality, and also to provide the readiness of graduates to interact with other people in the process of exchanging the cultural values, knowledge, ways of activity. The use of various information technologies in a foreign language classes has a great role in the development of students’ intercultural communicative competence.

It is not necessary to convince teachers and students in the importance of information technology for modern education. It is obvious that the development of intercultural communicative competence



in teaching foreign languages is unthinkable without becoming familiar computer classes, multimedia educational software, the Internet, distance learning. Information technologies act as innovative interactive learning tools that have the ability to visualize the phenomena, dynamically represent the process of explaining, to handle significant amounts of educational information, contribute to the dynamics of learning process, turn the lesson into a colorful interactive activity.

Tasks of modernization of education cannot be solved without the optimal implementation of information technology in all its spheres. The introduction of the personal computer, multimedia technologies and global information network of Internet affects the educational system, causing significant changes in the content and teaching methods, including foreign languages.

The task of the teacher is to create the conditions of practical language learning for each student, to choose such training methods that would allow each student to show their activity, their creativity. The task of the teacher — to strengthen the cognitive activity of the student in the process of learning foreign languages. Modern teaching techniques such as cooperative learning, project methodology, the use of new information technologies and Internet resources help to implement a student-centered approach to learning, to provide individualization and differentiation of teaching taking into account the abilities of the students, their level of training, aptitudes [6. P. 9].

The computer can be used effectively to introduce the new language material, new samples of statements, as well as the activities of communicating in a foreign language. At the stage of training and application of generated knowledge, skills and abilities, the computer can be used in a variety of communicative tasks and situations, taking into account the personal characteristics of trainees. An important feature of the computer in the educational process of learning a foreign language is that it can be “companion” the student, i.e. work in communicative-directed online. Also, the use of ICT makes it possible to work on three channels of human perception: visual, kinesthetic, and thus contributes to more efficient assimilation of educational material. The use of ICT in the classroom can be realized in the following forms: the use of computer presentations; the use of interactive whiteboard; work with educational multimedia CDs programs; work with Internet resources.

Let us examine each in more detail. In our work, we make extensive use of presentations. It has become a commonplace in the classroom. Presentations, prepared for the lesson, comprehensive in content, vivid and memorable. The apparent advantage of multimedia presentations in comparing with usual visual materials is a great emotional impact on the students. It is generally more colorful, attracts an emotional response that helps to create a favorable emotional climate in the classroom, concentration and, therefore, better assimilation of the material. But the most important and productive use of presentations, in our opinion, is the fulfillment of individual and group projects on the same topic by the students themselves. This cooperation is often used in the form of project training activities. Independent creative work of students in the creation of computer presentations as well as expands supply of an active vocabulary, stimulate its creativity and independence, as well as develops the skills in information.

An important invention is the interactive whiteboard. Using this board, it is possible to combine the used methods and techniques for working with the normal board with a set of interactive and multimedia features.

Whiteboard allows you to compare the words and their meanings, choose the correct answer; fill in the gaps, tables, crossword puzzles and find the words and right answers; place the objects in the picture; find the words corresponding to the pictures; realize the active comment on the material: the selection, specification, the addition of more information and others. But the most important, in our view, an important feature of the board is that it is “live”. Work on creating the lessons with the interactive whiteboard is close to creating presentations, but you can not change the presentation, contribute something in the lesson [9. P. 41].

Whiteboard provides more opportunities in this respect, and stimulates cognitive interest of students. Of great interest is the work individually with tutorials the students. The training simulator is a computer program that organizes the work of an independent learner, manage, and create the conditions in which students form their own knowledge. Multimedia training programs help in learning lexical, grammatical aspects of speech, training dialogic speech, spelling, listening. The mastery of communicative competence is impossible without the practice of communication. That is, the training programs can act as “a real cultural media” in the process of intercultural communication.

Electronic programs give the opportunity to choose the optimal pace of learning, to monitor and correct the course of mastering the material, the result is not distant, it can be seen directly in class.



Training disks also have a rich educational opportunities: develop attention, organization. Means of graphics, music fragments relieve tension. The work with Multimedia develops the ability to plan their activities, to take responsible decisions. Now everyone knows that the Internet has a huge information opportunities. The internet provides a unique opportunity for foreign language learners to use authentic texts, listen and communicate with native speakers. Unfortunately, the possibilities of the Internet in the school does not always allow the use of its resources directly in the classroom in real time (because of the lack of high-speed Internet), for the same reason it is impossible and chat in a mode on-line, that's why many authentic reading materials are necessary to select, prepared in advance and give the guys in the recording (audio, video) or printed form. Or give the job to an independent search for information after the lessons on the Internet.

At present, a variety of computer programs are used at foreign language lessons more and more. As a rule, training programs used for individualized learning are realized in the form of so-called multimedia training programs. The word multimedia appeared without a connection of computers in the English-Russian-Uzbek dictionary. That time, the lesson conducted by a teacher, was called media, if there was a story of a teacher, and sound recordings, and film, and slides, and any other technical means of learning. Today, the "multimedia training program" means a computer program using the text, sound, color, and motion graphics.

Currently, there are a wide variety of computer programs such as: "Tripple play plus in English", "English Gold", "Test", "Talking Oxford Dictionary", "English -Russian Dictionary" and others.

Existing multimedia programs make it possible to organize independent actions of each student. When training to audition each student has an opportunity to hear the foreign language speech; in teaching speaking, each pupil can utter phrases in a foreign language into the microphone; in the training of grammatical phenomena each student can perform grammar exercises, ensuring correct answers.

Thus, the forms of work with computer training programs at foreign language lessons include:

- the study of vocabulary;
- practicing the pronunciation;
- training dialogue and monologue speech;
- teaching writing;
- practice of grammatical phenomena.

In foreign language lessons using computer programs can solve a series of didactic problems:

- forming the skills of reading, using materials of the global network;
- improving writing skills of students; enlarging students' vocabulary;
- forming students' sustained motivation to learn English;
- forming students' communicative competence.

Thus, the use of educational software in the English classroom is the main feature of the positive results of creative activity of the teacher with the students.

The work with programs for foreign language in the display class helps students to overcome the psychological barrier. When the students saw schemes, colorful pictures on the computer screen, they are more receptive and easily learn a new complex material. Material from the program, allows to achieve the following methodical tasks (for example, when fixing forms of the verbs): 1) develop the skills to formulate an answer to the question in the same form which posed the question; 2) fix the skills of recognition of the verb forms of the studied tense; 3) develop the skills of reading carefully the issue on the basis of the installation given on the screen; 4) to form the motor skills of writing grammatical material on the examples of given exercises where the student must choose the correct answer himself; 5) to fix the visual image working on the material.

All of the properties of multimedia programs help to solve the main problem of language education, determined by the Program of foreign languages — formation of students' intercultural communicative competence. Noting all positive aspects of the use of multimedia programs, it should be noted that none of the very latest electronic technology can not replace the teacher in the classroom. Only the teacher can awake emotions and look into the soul of the children. The most important thing at the lesson is a natural communication. The joy of creativity, the joy of teaching and learning can be given to each other only by the teacher and his students. Only the teacher with his personal charm and high professionalism can create psychologically comfortable environment in the classroom. No one will replace the teacher to the students as a model for imitating when developing pronunciation skills, there is no alternative work in pairs and groups in the classroom for teaching communication



in educational-speech situations. Therefore, using even the most successful textbooks and multimedia programs can not replace the natural communication in the classroom. Thus, a major and a leading figure in the classroom is the teacher, and the use of computer technology should be considered as one of the effective ways of organizing the process of education. And since there is modernization of education, one of the basic requirements for the professional work of the teacher is the information competence. Thus, the use of information technology in the English classroom is an actual and effective, it increases the level of practical master of language and a computer, and the most important thing is that it generates self-employment skills and initiative. Information space contains a huge cultural and didactic potential, which is already used in training throughout the world.

#### LITERATURE

1. Гриншкун В.В. Качество информационных ресурсов и профессиональные качества педагогов. Взаимосвязь и проблемы // Информатика и образование. 2013. № 1 (240). С. 79–81.
2. Гриншкун В.В. Информатизация как значимый компонент совершенствования системы подготовки педагогов // Вестник Московского городского педагогического университета. Серия «Информатика и информатизация образования». 2014. № 1(27). С. 15–21.
3. Зубов А.В., Зубова И.И. Информационные технологии в лингвистике: Образовательное руководство для студентов лингвистических факультетов, средних школ. М.: Академия, 2004. 140 с.
4. Леонтович О.А. Международное обучение на базе американского центра Волгоградского государственного педагогического университета // Модернизация обслуживания и методы иностранного обучения как приоритетное направление в условиях непрерывного языкового образования. Волгоград: Перемена, 2003. С. 32–33.
5. Медведева И.Л. Психолингвистические проблемы функционирования лексики неродного языка: автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. Уфа, 1996. 46 с. Kudabayeva P.A. Using information technologies in formation intercultural communicative competence... 49
6. Мильруд Р.П. Максимова И.Р. Современные концептуальные принципы коммуникативных обучающихся иностранных языков // Иностранные языки в школе. 2000. № 4. С. 9–15.
7. Плужник И.Л. Формирование межкультурной коммуникативной компетентности студентов гуманитарного профиля в процессе профессиональной подготовки: автореф. дисс. ... д-ра наук. Тюмень, 2003. 15 с.





## АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### VAFO FAYZULLOH SHE'RIYATIDA PEYZAJ TASVIRI

Hamidov Sardor Nurali o'g'li

Navoiy davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

1 kurs magistranti

Telefon: 99897 366 27 24

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan biri bo'lgan Vafo Fayzulloh ijodidagi peyzaj tasvirlarining badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir tabiat manzaralarini tasvirlash orqali inson ruhiy holatini, ichki kechinmalarini peyzaj orqali yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Vafo Fayzulloh, lirika, peyzaj tasviri, tabiat, ruhiyat, tasavvuf, lirik qahramon.

O'zbek adabiyotida o'z o'rniga, o'z so'ziga ega ijodkor Vafo Fayzulloh she'riyati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Badiiy ijod olami cheksiz, unda nazm ayro, nasr ayro chashma bulog'idir. Ijodkor ahli boshqa dunyoda yashaydi. Ular tashqi olamni bizdan farqli ko'radi. Qayg'uning bag'rida quvonchni, quvonchning yonida dardni ko'ra biladilar. Vafo Fayzulloh ijodining o'ziga xosligi shundaki, lirik qahramon o'zining holatini peyzaj tasviri bilan hamohang tarzda ifodalaydi.

Bahodir Karimov aytganidek "Vafo Fayzulloh mohiyatga intilib, ko'ngilga qarab, muhitga qaramay, birovdan so'ramay o'ziga xos yozadi. Uning yozganlarida an'anaviy qolipli, hamma ijodkor asarlariga tushaveradigan bosmaqolip - stereotiplar yo'q hisobi. Har inson ijodini tushunib, hatto, ularning ayrimlarini rag'batlantirib, qo'llab-quvvatlab quvontiradi. O'rni kelsa adashganga tanbeh berishni ham unutmaydi. Xiyonatni yomon ko'radi. Sodiq'larga havas qiladi. Yoza turib to'g'rilikni ko'zlaydi. Vafo adabiyotga sadoqatdan, va'daga vafodan so'zlaydi."<sup>1</sup> Darhaqiqat uning she'rlarida so'zga sadoqatni, ijodga mehrni, tabiatga oshuhtalikni ko'rishimiz mumkin. Lirik qahramon sog'inchini, dardini, afsus-nadomatini peyzaj tasviri bilan ifodalab, kitobxonni o'ziga jalb qiladi. Azaldan insoniyat ona tabiatdan zavqlanib, uning bag'rida kamol topgan, panohi tabiatdan, ilk mehri, ilk ishq uning ko'ksida vujudga keladi.

*Sarg'aygan mehrlardan o'sayotgan don,*

*Dalani to'ldiradi hali ham sho'xlik.*

*Mening yuragimni sug'organ osmon,*

*Bevafo bahor bilan ketayotgan yoshlik<sup>2</sup>.*

Shoirning eng beg'ubor davri, bolaligi bahor fasli bilan uni tark etganligini yoshlik o'lislarda qolganligi, dalalardagi sho'xliklari ham endi unga begonaligini ta'kidlangan. Bahor fasli yosharish, yangilanish fasli, lekin ijodkor unda antitezadan foydalanib, aynan bolaligi uni bahorda tark etganligini aytadi.

*Sodda sofliklarga qanotlar tilab,*

*Tuma arg'imchog'i bilan tillashdim.*

*Navqiron ariqlarga yalpizlar yo'llab,*

*Yalangoyoq bahor bo'ldi ulashim.*

Lirik qahramon tabiat tasviri bilan hamohanglikda, sodda sofliklarini, navqiron yoshlik chog'larini yodga oladi. Zero bolaligining har lahzasi tabiat bilan uyg'unlikda tasvirlanadi, undan ayro tasavur qilish qiyin aslida.

*Shafaq yo'rgagida to'qqiz "alla"si,*

*Uch oy bormaganim uzr, onajon.*

*Bahor hur quyoshning to'ng'ich bolasi,*

*Mangu tiriklikka lahzali ehson.*

<sup>1</sup> Fayзуллох Вафо. Чақмоқ ёруғи - Мухаррир нашриёти. Тошкент: 2012 й. 4 б.

<sup>2</sup> Фаёзуллох Вафо. Азалий ғусса ёхуд фаришталар учраштирди орзуларни. – Шарқ нашриёти. Тошкент. 2013 й. 55 б.



Quyosh mehr-muhabbatning timsoli, uning taftidagi sog'inch ayrodir. Uch oy ona qishlog'iga borolmaganligi, onasini ham ko'rolmagangini ta'kidlayapti. Diydor ham asli mangu tiriklikdagi ehson ekanligi, bir on, bir lahzaga bo'lsa ham bolalikka qaytmoqlikni orzu qiladi. Lirik qahramon quyosh taftida mehrni, bolaligini his qiladi. Maysalar nish urib chiqishni boshlaganda, tabiat uyg'onishni bilan olislarda qolgan bolalik dilga armon soladi.

*Ortdan yuguradi mening uchun ham,*

*Bo'talog'i kabi dardmand tuyaning.*

*Yoningizda halak jigarim ko'klam,*

*Meni sog'insangiz unga suyaning.*

Lirik qahramonni doim sog'inch qiynaydi. Ko'klamga jigarim deb murojaat qiladi, gar meni sog'insangiz bahorga suyaning, unda orom oling deydi. Har qancha vaqt o'tsa ham ko'ngil sarhadidagi sevgi, qalbidagi cho'g' hechqachon so'nmasligini, har bahor kelganda ko'nglidagi cho'g' lola gulida alanga olishini yozadi. Ijoddan taskin topadi, tabiatdan panoh oladi.

*Ko'ngil sarhadida ko'kardi sevgi,*

*Aprel oxiridek o'zgargan tusim.*

*Qirda meni kutgan lolalar bilan*

*Ul qizning ismini yozmoqchi edim.*

Xulosa qilib aytganda, shoir ijodida peyzaj va vatan mavzulariga e'tibor qaratib, zamonaviy ko'rinishdagi she'riy janrlarda ijod qilmoqda. Shoirning she'rlaridagi so'zlar sodda, lekin ma'nolari teran tasvirlangan. O'z ovozi, poetik til yaratishda peyzajdan unumli foydalanib, an'analarni saqlagan holda o'ziga xos uslub yarata oldi. Vafo Fayzullohning ijodidagi turfa rang-barangligi va o'ziga xosligi bilan lirik qahramon tasviri, boshqa ijodkorlardan ajralib turadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Файзуллоҳ Вафо. Чақмоқ ёруғи - Мухаррир нашриёти. Тошкент: 2012 й. 256 б.
2. Файзуллоҳ Вафо. Азалий ғусса ёхуд фаришталар учраштирди орзуларни. – Шарқ нашриёти. Тошкент. 2013 й. 240 б.
3. Норматов Умарали. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007 й.- 352 б.
4. Қуронов Дилмурод. Адабий ўйлар. – Тошкент: Турон замин зиё, 2016 й. 112 б.



MUSTAQILLIK DAVRIDAN KEYINGI O‘ZBEK VA QORAQALPOQ ADABIYOTI  
O‘RTASIDAGI ADABIY ALOQALAR

**Nurlibaeva Umida Baxadir kizi**

Qoraqalpoq pedagogika insituti 1-kurs magistranti

Telefon: (+998)905932501

nurlibaevaumida2501@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada mustaqillikdan keyingi davrda o‘zbek va qoraqalpoq adabiyoti o‘rtasidagi adabiy aloqalarning yangi bosqichga ko‘tarilgani, ularning mazmunan boyib, estetik va g‘oyaviy jihatdan yaqinlashgani tahlil etiladi. Ikkala adabiy makonda ham milliy o‘zlik, tarixiy xotira, istiqlool g‘oyasi, zamonaviy shaxs portreti kabi mavzular ustuvor bo‘lib, bu holat umumiy adabiy tafakkur va ma‘naviy birlikni ifodalaydi. Tarjima jarayoni, adabiy uchrashuvlar, shuningdek yosh ijodkorlar o‘rtasidagi onlayn muloqotlar orqali yuzaga kelayotgan madaniy integratsiya yangi davr adabiy muhitining ochiqligi va ijtimoiylashuvi bilan uzviy bog‘liq. Xususan, yosh qoraqalpoq va o‘zbek yozuvchilari o‘rtasidagi o‘zaro fikr almashuvlar, elektron nashrlar orqali asar tarqatish va baholash amaliyoti ikki adabiy makonning zamonaviy muvofiqligini ta‘minlamoqda. Mazkur tadqiqot o‘zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalarining hozirgi bosqichi va istiqbollarini tahlil etishga qaratilgan.

**KALIT SO‘ZLAR:** O‘zbek adabiyoti, qoraqalpoq adabiyoti, mustaqillik davri, adabiy aloqalar, madaniy integratsiya, tarjima, yosh ijodkorlar, estetik yaqinlik, milliy o‘zlik, zamonaviy shaxs, elektron adabiyot.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, xalqimizning milliy o‘zligini anglash, ma‘naviy merosga qaytish, milliy qadriyatlarni yangilash yo‘lida ulkan imkoniyatlar yaratdi. Bu jarayon nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarida, balki adabiyot va madaniyatda ham chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi [1]. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi yillarda o‘zbek va qoraqalpoq adabiyoti o‘rtasidagi adabiy aloqalar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

O‘zbek va qoraqalpoq xalqlari tarixan yagona madaniy-mintaqaviy makonda yashab kelgan, ularning adabiy tafakkuri, og‘zaki ijodi, poetik timsollar tizimi o‘xshash va uyg‘un [2]. Bu uyg‘unlik mustaqillikdan keyingi davrda adabiy aloqalarning izchil rivojlanishiga zamin yaratdi.

Adabiy almashinuv va tarjima jarayon. Mustaqillikdan so‘ng o‘zbek va qoraqalpoq yozuvchilari asarlarini o‘zaro tarjima qilish ancha faollashdi. Jumladan, qoraqalpoq shoirlari – Temirbay Egambergenov, Allayar Tazhimuratov, Qadir Murtazayev singari ijodkorlarning asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi [3]. O‘z navbatida, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf kabi shoirlarning she‘rlari qoraqalpoq tiliga o‘girilmoqda [4]. Bu tarjimalar ikki adabiy makon o‘rtasidagi ruhiy yaqinlikni mustahkamlaydi.

Ikki xalq adiblari o‘rtasida o‘tkazilayotgan ijodiy uchrashuvlar va seminarlar adabiy jarayonni jonlantirmoqda. Jumladan, “Qoraqalpoq adabiyoti va zamonaviylik” mavzusida Nukusda o‘tkazilgan davra suhbatlari, Toshkentda tashkil etilgan “O‘zbekiston – umumiy Vatanimiz” nomli adabiy tadbirlar bu boradagi muhim qadamlar bo‘ldi [5].

Zamonaviy o‘zbek va qoraqalpoq adabiyotining tematik yo‘nalishlarida muayyan mushtaraklik, mavzu va g‘oya uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Istiqlool davri ijodkorlari milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va qadriyatlarni tiklash, zamonaviy shaxs obrazini yaratish kabi g‘oyaviy-estetik maqsadlarni o‘z asarlarida ustuvor yo‘nalish sifatida ilgari surmoqdalar. Ayniqsa, mustaqillik yillarida milliy adabiy tafakkurda tarixiylik va zamonaviylik uyg‘unligida yaratilayotgan badiiy obrazlar orqali o‘ziga xos g‘oyaviy izchillik vujudga kelgan.

Ikkala adabiyotda ham milliy g‘urur, vatanparvarlik, erk va ozodlik singari g‘oyalar tarixiy shaxslar siymosida mujassamlashtirilmoqda. Masalan, qoraqalpoq adabiyotida Tomaris yoki Alpamis obrazlari orqali xalqning jasorat va qahramonlik ruhiyati ifodalansa, o‘zbek adabiyotida Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy shaxsiyatlar orqali milliy qaror, yurt himoyasi va vatanparvarlik g‘oyalari aks ettiriladi. Bunday obrazlar nafaqat tarixiy xotiraning tiklanishiga, balki zamonaviy avlodni milliy ruhda tarbiyalashga xizmat qiluvchi kuchli ideologik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda [6].

Zamonaviy shaxs portretining yaratilishi esa yangi davr adabiyotining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Istiqlool tufayli shakllangan erkin tafakkur, o‘zligiga ega, ijtimoiy faol va madaniy ongli shaxs badiiy adabiyotda ilgari surilayotgan yangi tipajdir. Bu obrazlarda ko‘pincha tarixiy ildizlar bilan



zamonaviy qarashlar o‘zaro uyg‘unlashadi, bu esa o‘quvchi ongida uzviylik, davrlararo davomiylik hissini shakllantiradi.

Demak, zamonaviy o‘zbek va qoraqalpoq adabiyotida mavzu va g‘oyaning bunday uyg‘unlashuvi umumiy adabiy tafakkurning mushtarak mezonlarini ko‘rsatadi. Bu holat ikki adabiy makon o‘rtasida nafaqat madaniy aloqalar, balki g‘oyaviy va ma‘naviy integratsiya, o‘zaro ta‘sir va boyitish jarayonining borayotganini isbotlaydi.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida yosh ijodkorlar orasidagi aloqalar va hamkorlik shakllari sezilarli darajada yangilanmoqda. Ayniqsa, qoraqalpoq va o‘zbek yosh yozuvchilari o‘rtasidagi adabiy muloqotlar ijtimoiy tarmoqlar, elektron nashrlar, onlayn adabiy platformalar orqali faol rivojlanmoqda. Bu jarayon nafaqat ijodiy g‘oyalar almashinuviga, balki ikki millat yoshlari o‘rtasidagi madaniy anglanish va o‘zaro tushunishni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yosh adiblar o‘z asarlarini bir-biriga yuborish, o‘qib baholash, fikr-mulohaza bildirish orqali nafaqat individual mahoratini oshirmoqda, balki umumiy adabiy muhitni boyitmoqda. Bu esa ularning ijodida yangi uslublar, badiiy ifoda vositalari va mavzularning shakllanishiga olib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yosh qoraqalpoq va o‘zbek yozuvchilari o‘rtasidagi bunday hamkorlik zamonaviy davr madaniy integratsiyasining muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida e‘tirof etilishi mumkin.

Shuningdek, bu integratsion jarayonni adabiy ijtimoiylashuv va zamonaviy adabiy maydonning demokratlashuvi sifatida ham baholash mumkin. Chunki ilgari nisbatan cheklangan adabiy doiralar endilikda raqamli muhit vositasida ancha ochiq va inklyuziv tus olmoqda. Shu orqali yosh ijodkorlar o‘z ovozi topish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘ziga xos tarzda ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, bu hodisa millatlararo madaniy hamkorlikni chuqurlashtirish, turli madaniyatlar o‘rtasida ko‘priklar yaratish, o‘zaro hurmat va anglashuvni kuchaytirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek va qoraqalpoq adabiy muhitlarining bir-biriga yaqinlashuvi, yoshlar orasidagi ijobiy ta‘sirlar almashinuvi kelajakda yanada uyg‘un va boy adabiy makon shakllanishiga asos bo‘la oladi. [7].

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, o‘zbek va qoraqalpoq adabiyotlari o‘rtasidagi aloqalar yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu yaqinlik endi faqat tarjima va uchrashuvlar doirasida emas, balki umumiy estetik yo‘nalishlar, milliy o‘zlik, tarix, istiqlool va zamonaviylik kabi g‘oyalar atrofida shakllanmoqda. Har ikki xalq yozuvchilari o‘z asarlarida o‘zaro mushtarak mavzularni yoritish orqali adabiy tafakkurda bir-birini boyitmoqda. Bu adabiy hamkorlik ikki xalqning ma‘naviy jihatdan bir-biriga yanada yaqinlashishiga, umumiy qadriyatlar asosida taraqqiy etishiga xizmat qilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Karimov I.A. \*Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch.\* – T.: Ma‘naviyat, 2008.
2. Mamatqulov M. \*Turkiy adabiyotlarda motivlar uyg‘unligi.\* – T.: Fan, 2005.
3. Rajabov A. “Tarjima – madaniyatlar ko‘prigi” // \*O‘zbek tili va adabiyoti\*, 2016, 4. Bozorov B. “O‘zbek va qoraqalpoq adabiyotlarining o‘zaro ta‘siri” // \*Sharq yulduzi\*, 2018,
5. Qoraqalpoq adabiyotining zamonaviy rivoji to‘g‘risida ma‘lumotlar // Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi arxivi.
6. To‘xtaboyev A. \*Adabiyot va tarixiy ong.\* – T.: Akademnashr, 2012.
7. Internet-jurnal “Ijodkorlar.uz” (<https://ijodkorlar.uz>) orqali yosh adiblar ijodi tahlili.





## ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### IQTISODIYOTNING BARQARORLIGINI TA'MINLASH VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA KLASSTERLASHNING O'RNI

**Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori,

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini mudiri, i.f.d.

mirzayevkulmamat@gmail.com.

**Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya** ushbu maqolada iqtisodiyotning xizmatlar sohasida yuzaga kelgan holatlarni yaxshilash yo'llariga alohida e'tibor qaratilgan. Jahon tajribasida keng miqyosda kuzatilayotgan faoliyatni klasterli tashkillashtirish usuli yordamida ushbu sohani rivojlantirish masalalari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** klaster tizimi, qishloq xo'jaligi, soha, ishlab chiqarish, aholi, raqobat, kadr.

**Аннотация** В статье рассматриваются пути улучшения ситуации в сфере услуг экономики. Раскрываются вопросы развития данной сферы с использованием метода кластерной организации деятельности, который в широких масштабах наблюдается в мировом опыте.

**Ключевые слова:** кластерная система, сельское хозяйство, отрасль, производство, население, конкуренция, кадры.

**Abstract** The article examines ways to improve the situation in the sphere of economic services. The issues of development of this sphere are revealed using the method of cluster organization of activities, which is widely observed in world experience.

**Key words:** cluster system, agriculture, industry, production, population, competition, personnel.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasi tezkor rivojlanayotgan tarmoqlardan biridir. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning samarali vositasi sifatida, iqtisodiyotning turdosh sohalari rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi. Jahon tajribasi ko'ra, xizmatlar sohasi taraqqiyoti mintaqaviy iqtisodiyotni jonlantirish, mahalliy sanoatni va tadbirkorlikni qullab-quvvatlash hamda mamlakatimizning yashil iqtisodiyotini samarali rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi mintaqadagi turli shakldagi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish korxonalarining o'zaro hamkorligini klaster asosida rivojlantirish amaliyoti muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tizim mintaqqa iqtisodiyoti, shu jumladan aholi farovonligini oshirishda, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Barqaror iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlashda iqtisodiyotda xizmatlar sohasini barqaror rivojlantirishda klasterlashdan foydalanish muhim hisoblanadi.

Soha mutaxassislari va olimlarining bu borada olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, klasterlar rivojlanishiga XX asrning oxirlarida sezilarli hissa qo'shgan A.Marshall hamda klaster iqtisodiyoti asoschisi A.Smitning fikrlariga ko'ra soha rivojida muhim o'rin tutuvchi “Alohida hududlarda ixtisoslashgan ishlab chiqarishning konsenrasiyalashuv” masalalarini o'rgangan<sup>1</sup>.

A.G.Granbergning fikricha, hududiy-ishlab chiqarish majmuasi boy ishlab chiqarish resurslariga ega yangi xududlarni o'zlashtirish orqali mintaqaviy, milliy va xalqaro miqyosda ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, yirik ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarni o'z ichiga oluvchi texnologik bog'langan ishlab chiqarish majmuasidir<sup>2</sup>.

Ayniqsa bu borada ilmiy-amaliy nuqtai nazardan yondashganda “klaster – bu yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan agrar, sanoat va boshqa izdosh korxonalar majmui bo'lib, u ilm-fan, ta'lim hamda agrar sanoat sohaslarida ishlab chiqarish integrasiyasini chuqurlashtirish, fan-texnika yangiliklarini, innovatsion g'oyalarni, yangi texnika va texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy

<sup>1</sup> Маршалл, А. Принципы политической экономии: в 3 т. / А. Маршалл. М.: Прогресс, 1983. Т. 1.

<sup>2</sup> Гранберг А. Г. Основы региональной экономики: Учебник для вузов. – 3-е изд. – М.:ГУ ВШЭ, 2003.-495 с



etib, mehnat unumdorligini, qo'shimcha mahsulot yaratishni oshirish imkonini beruvchi xo'jalik tizimidir"<sup>1</sup>. Klaster tizimi respublikamizda dastlab paxtachilikda tashkil etilgan bo'lib, bu paxta xomashyosi o'zlari tomonidan yetishtirilib, qayta ishlashning barcha bosqichidan o'tib, eksportbop tovarga aylantirishni ko'zda tutadi. Biroq, bu klaster tizimi nafaqat mahsulot yetkazib beruvchi subyektlarni, balki, turli oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va tajriba-sinov byurolari hamda ulardagi olim-mutaxassislarining ishlanmalar va ixtirolarini amaliyotga joriy etish tizimini yagona maqsad yo'lida birlashtirishni taqozo qiladi.

Klasterlash tizimi iqtisodiyotning turli sohaları, ayniqsa, agrar sohada alohida ustuvorlik asosida rivojlantirildi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19-maydagi "Buxoro viloyatida zamonaviy paxta-to'qimachilik klasterini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2978 sonli va 2020 yil 6-martdagi "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4633-qarorlariga asosan ushbu viloyatda "Paxta-to'qimachilik klasteri"ni tashkil etish va uning faoliyatini yanada rivojlanti-rishning ustuvor vazifalari belgilab berildi. Biroq, ushbu klaster shakli faoliyati bo'yicha tadqiqot olib borgan iqtisodchi olimlar xulosalariga asoslanib "...ta'kidlash lozimki, Buxoro viloyatining paxtachilik tarmog'i rivojlangan barcha tumanlarida kooperasiya munosabatlariga asoslangan paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil qilingan. Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatida ham ichki, ham tashqi kooperasiya munosabatlari aksariyat hollarda tarkibiy subyektlar manfaatlariga to'liq javob bermaydi. Tahlillar ko'rsatishicha, paxta-to'qimachilik klasterlarida paxta xom-ashyosi yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarining moddiy manfaatdorligi past dara-jada bo'lib, ular faoliyatida rag'batlantirish mexanizmlari deyarli qo'llanilmayapti"<sup>2</sup>.

Alohida ta'kidlash joizki, klasterlashni agrar sohada joriy etilishi sohaning iqtisodiyotdagi o'rni bilan bevosita bog'langan. Mamlakatimizda bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasi katta salohiyatga ega bo'lgan yetakchi tarmoq hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, mamlakat yalpi ichki mahsulotining to'rt dan biri, aynan mazkur sohaga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, respublika bo'yicha band bo'lgan aholining qariyb 24,9 foizi qishloq xo'jaligi tarmog'iga to'g'ri kelib, bu ko'rsatkich 3,5 mln.kishini tashkil etmoqda<sup>3</sup>.

Bularning barchasi sohada yangicha yondashuvni klasterlash asosida agrar sohani rivojlantirishni talab etadi. Bu esa, nafaqat iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va aholi farovonligini oshirishda qishloq xo'jaligi tarmog'ining o'rni g'oyatda muhim ekanligini, balki bevosita sohada amalga oshiriladigan islohotlarga ham bog'liqligini ko'rsatmoqda.

Samarqand viloyatida agrar soxada xizmatlari xududiy klasterini shakllantirish quyidagi yangi imkoniyatlarni ochib beradi:

- agrar sohada yagona innovation, moliyaviy va axborot muhitini shakllantiriladi;
- agrar sohada raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda, savdo jarayonlarini sifatli va shaffof tashkil etish imkoniyati yaratiladi
- agrar sohada taraqqiyotiga yangi g'oya, fikr va ishlanmalarni tizimli qo'llash uchun ilmiy tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlari bilan yaqindan hamkorlik yo'lga qo'yiladi;
- hududlarda agrar soxada bo'yicha yagona maqsad sari savdo hududiy klasterga birlashgan holda yuqori daromad va foyda olish imkoniyatlari yaratiladi;
- faoliyati yo'lga qo'yilgan "agrar soxada hududiy klasteri" Kengashi asosida yangi yuqori daromad keltiruvchi boshqaruv tuzilmasi shakllantiriladi;
- viloyatda agrar soxada xizmatlari xududiy klasterining samarali faoliyati natijasida yalpi xududiy mahsulot hajmi keskin oshishi imkoniyati yaratiladi.

Umuman olganda, respublika iqtisodiyotini barqaror ta'minlash hamda o'sib borayotgan aholini yetarli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirishda yangicha tizim klasterlash tizimini rivojlantirish yangi iqtisodiy imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Маршалл, А. Принципы политической экономии: в 3 т. / А. Маршалл. М.: Прогресс, 1983. Т. 1.
2. Гранберг А. Г. Основы региональной экономики: Учебник для вузов. – 3-е изд. – М.:ГУ ВШЭ, 2003.-495 с

<sup>1</sup> Ш.Шодмонов, М.Рахматов. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик.-Т.: "Замин нашр"- 4426. (85 б).

<sup>2</sup> Ҳ.Р.Туробова. Фермер хўжаликларини ривожлантиришда кооперация муносабатларини такомил-лаштириш моделлари ва механизмлари. -Т.: Иқтисодиёт фан. бўйича фалсафа (PhD) дисс. автореферати.- б. 19.

<sup>3</sup> <https://strategy.uz/index.php?news=1767>



3. К.Д.Мирзаев., З.Рахимов. Агросервисда кластерлаш “Иқтисод ва молия” илмий-амалий журналі № 3 (135), 25.09.2020 й. 38-45 бет.

3. Асланова Д.Х., Алимова М.Т. Худудий туристик кластернинг шаклланиш жараёнини аниқлаш усули // Халқаро ва ички туризмни ривожлантириш муаммолари (республика илмий-амалий анжумани материаллари) – Самарқанд, СамИСИ, 2016, Б. 3-8.

4. Ленчук Е.Б., Власкин Г.А. Кластерный подход в стратегии инновационного развития зарубежных стран. Журнал. Проблемы прогнозирования. – 2010г. – № 5. – С. 38-51.



## ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИСЛОҲОТЛАР ВА УЛАРНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Марям .Шариповна Назарова

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси,  
чорвачилик ва биотехнологиялар университети  
“Иқтисодиёт ва бухгалтерия ҳисоби” кафедраси катта ўқитувчи

**Аннотация** ушбу мақолада олий таълим тизимини ривожлантириш, битирувчиларни олий таълимга қамраб олинишини кўпайтириш, ёшларнинг касб эгаллашини таъминлаш борасидаги амалий саъй-ҳаракатларга алоҳида эътибор қаратилган.

**Калит сўзлар:** олий таълим, малакали мутахассис, модернизация қилиш, илғор таълим технологиялари, ижтимоий соҳа, иқтисодиёт тармоқлари

**Аннотация** В статье рассматриваются практические меры по развитию системы высшего образования, увеличению приема выпускников в высшие учебные заведения и обеспечению занятости молодежи.

**Ключевые слова:** высшее образование, квалифицированный специалист, модернизация, передовые образовательные технологии, социальная сфера, отрасли экономики.

**Abstract** The article examines practical measures to develop the higher education system, increase the admission of graduates to higher education institutions and ensure youth employment.

**Key words:** higher education, qualified specialist, modernization, advanced educational technologies, social sphere, economic sectors.

Мамлакатимизда таълим тизимининг барча бўғинларида, жумладан, олий ва ўрта махсус таълим тизимини модернизация қилиш, илм-фанни ривожлантириш, ўқитишнинг замонавий шакл ҳамда технологияларини жорий этиш бўйича кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда.

Халқимизнинг эркин ва фаровон, қудратли Янги Ўзбекистонни барпо этиш бўйича хоҳиш-иродасини рўёбга чиқариш, ҳар бир фуқарога ўз салоҳиятини ривожлантириш учун барча имкониятларни яратиш, соғлом, билимли ва маънавий баркамол авлодни тарбиялаш, глобал ишлаб чиқаришнинг муҳим бўғинига айланган кучли иқтисодиётни шакллантириш, адолат, қонун устуворлиги, хавфсизлик ва барқарорликни қафолатли таъминлаш мақсадида “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини амалга ошириш энг муҳим вазифалардан бири сифатида майдонга чикди.

Соҳада давлат бошқаруви самарадорлигини янада ошириш, тизимдаги муассасаларнинг сифатли фаолият юритишини таъминлаш орқали юқори малакали мутахассислар тайёрлашни ташкил этишга оид қатор фармон ва қарорлар қабул қилинди. Ўтган давр мобайнида иқтисодиётнинг реал сектори ва ижтимоий соҳа эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда, ҳудудларда янги, жумладан, етакчи хорижий олий таълим муассасалари ташкил этилди, замонавий ўқув босқичлари жорий этилиб, талаб юқори бўлган бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари бўйича кадрлар тайёрлаш йўлга қўйилди. Республикада 114 та олий таълим муассасаси мавжуд бўлиб, шундан 93 таси маҳаллий ҳамда 21 таси хорижий олий таълим муассасаси, уларнинг филиаллари ҳисобланади. Жумладан, кейинги уч йилда янги 6 та олий таълим муассасаси, 17 та филиал ва 14 та хорижий олий таълим муассасаси филиали ташкил этилди.

Кадрлар буюртмачилари таклифлари асосида Олий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари классификаторига 329 та таълим йўналиши ва 582 та магистратура мутахассислиги киритилган. Шунингдек, 2019/2020 ўқув йилида 59 та олий таълим муассасасида сиртқи таълим, 10 та олий таълим муассасасида кечки таълим шакли жорий этилган. Натижада республика бўйича олий таълим муассасаларида таҳсил олаётган талабалар сони бакалавриат таълим йўналиши бўйича 410 минг, магистратура мутахассислиги бўйича эса 13 минг нафарни ташкил қилиб, сўнгги уч йилда 1,7 бараварга ошган.

Шу билан бирга, 2019/2020 ўқув йили учун қабул параметрлари 121 мингтани ташкил этиб, ўтган йилга нисбатан 18 фоизга, 2016 йилга нисбатан эса 92 фоизга ошган. Республиканинг 16 та олий таълим муассасасида 2018/2019 ўқув йилидан бошлаб хорижий олий таълим муассасалари билан ҳамкорликда қўшма таълим дастурлари асосида кадрлар тайёрлаш фаолияти йўлга қўйилган.





Бугунги кунда Ўзбекистонда таълимга бюджетдан ажратилаётган маблағ ЯИМга нисбатан 6,5 фоиз атрофида бўлиб, айрим халқаро ҳамкорлик давлатларига (Тожикистонда 5,2 фоиз, Беларусияда 4,8 фоиз, Россияда 3,8 фоиз, Туркменистонда 3,0 фоиз, Қозоғистонда 2,95 фоиз) нисбатан анча юқори.

Мамлакатимизда олий таълим тизимини ривожлантириш, битирувчиларни олий таълимга қамраб олинишини кўпайтириш, ёшларнинг касб эгаллашини таъминлаш борасидаги амалий саъй-ҳаракатларга кўплаб мисоллар келтириш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг жорий йил 8 октябрдаги Фармони билан Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси тасдиқланди. Мазкур Концепцияда олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишлари - замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий ғазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда, ижтимоий соҳа ва иқтисодий тармоқларини ривожлантириш борасида стратегик вазифалар белгилаб берилди.

Мазкур вазифалар соҳада мавжуд муаммоларни бартараф этишга, соҳани замонавий стандартлар даражасида ташкиллаштиришга қаратилган. Жумладан, олий таълимда давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш, ҳудудларда давлат ва нодавлат олий таълим муассасалари фаолиятини ташкил этиш асосида, 2030 йилгача олий таълим билан қамров даражасини 50 фоиздан ошириш кўзда тутилган.

Дарҳақиқат, айти пайтда дунё миқёсида аҳолининг 2 миллиардга яқинини ёшлар ташкил этади, уларнинг аксарияти ривожланаётган мамлакатлар, жумладан, Марказий Осиё ҳиссасига тўғри келади. Таҳлилчиларнинг фикрича, бу кўрсаткич яқин ўн йил ичида яна кўпаяди ва бунда ҳам туғилишнинг ортиши минтақамиз ҳиссасига тўғри келади. Дунё аҳолисининг ёшлар ҳисобига кўпайиши, ўз навбатида, иқтисодий-ижтимоий ривожланиш учун ҳам имкониятдир.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги ПФ-5847-сонли Фармони.
3. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. «Экономика», «Дело», Москва, 1993.
4. Стиглиц Дж., «Экономика государственного сектора», Инфра-М, Москва, 1997.



## ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КЛАСТЕР ТИЗИМИНИ АҲАМИЯТИ

Раббимов Абдор Меҳриддин ўғли

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти  
мустақил изланувчиси

**Аннотация** ушбу мақолада хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда кластер тизимининг аҳамиятига алоҳида эътибор қаратилган. Кластер тизимининг яққол кўзга ташланадиган жиҳати унинг тармоқ ва ҳудудга тааллуқли эканлиги бўйича фикр ва мулоҳазалар билдирилган.

**Калит сўзлар:** кластер, ҳудудий чегара, рақобат, “харидор-таъминотчи”, “таъминотчи-харидор”, корхона.

**Аннотация** В статье рассматривается значение кластерной системы в развитии сферы услуг. Важным аспектом кластерной системы является ее сетевая и региональная значимость.

**Ключевые слова:** кластер, территориальная граница, конкуренция, «покупатель-поставщик», «поставщик-покупатель», предприятие.

**Abstract** The article examines the importance of the cluster system in the development of the service sector. An important aspect of the cluster system is its network and regional significance.

**Key words:** cluster, territorial boundary, competition, “buyer-supplier”, “supplier-buyer”, enterprise.

Кластернинг турли таърифлари мавжуд бўлиб, улар микёси, мақсади ва унга нисбатан методологик ёндашувга қараб фарқ қилади. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, муайян тармоқнинг рақобатбардош фирмалари турли мамлакатлар бўйлаб тизимсиз жойлашган эмас ва улар концентрациялашув хусусиятига эга. Одатда бир нечта йирик компаниялар бир мамлакатда ёки битта минтақада жойлашган бўлади. Бу айниқса иқтисодий кластерларда яққол намоён бўлиб, ўзаро бирлашиш ёки яқин жойлашиш натижасида тармоқ, минтақа, мамлакат ва халқаро бозорларда ўз рақобат устунлигини намоён қилади. Кластерларга бўлган қизиқиш минтақа иқтисодиётининг ҳаракатчанлиги ва ўзгаришларга мойиллигига асосланади.

Кластерни таърифлашга ёндашувлар шуни кўрсатадики, уларнинг барчаси дастлаб иккита тушунчага асосланади: ўзаро алоқадор бўлган компанияларнинг ҳудудий жиҳатдан бир-бирига яқинлиги ва унинг таркибига кирувчи компанияларнинг рақобат устунлигига эга эканлиги.

«... ўлчами ва шаклига кўра фарқ бир-биридан фарқ қилувчи кластерлар доимо мавжуд бўлган. ... кластернинг аниқ таърифини бериш ва уни муайян бир типга тааллуқли эканлигини кўрсатиш албатта хато бўлган бўлар эди. Биз барча компонентларни эътиборга олмоғимиз ва кластерларни корхоналарнинг аниқ бир бирлашуви ёки уюшмаси эмас, улар ўртасидаги экстерналияга асосланган ҳодиса сифатида қарашимиз зарур...»<sup>1</sup>

Умуман олганда кластерлар сифатида компанияларнинг ҳудудий чегараланган мажмуаси бўлиб, ўзаро алоқалар туфайли ушбу ҳудудда рақобат устунлигини самарали фойдаланадилар ва амалга оширадилар. Бунда маъмурий ҳудуд учун солиқ тўловчилар сони ва солиқ базаси ортади, иқтисодиётнинг диверсификациялашуви кузатилади, бизнес учун эса харажатларнинг камайиши, янги ишланмаларни тадқиқ этиш ва яратиш учун инфратузилманинг шаклланиши, шунингдек инновацияларнинг жорий этилиши амалга ошади.

«Кластер» атамасининг яққол кўзга ташланадиган жиҳати унинг тармоқ ва ҳудудга тааллуқли эканлигидир.

Шу боис бу хусусиятлардан саноат ва ҳудудий кластерларни алоҳида фарқланишини кузатишимиз мумкин. Саноат кластерлари кўплаб тармоқлар мажмуи бўлиб, ўзаро «харидор-таъминотчи» ёки «таъминотчи-харидор» муносабатлари асосида ўзаро бирлашадилар. Шу билан бирга умумий технология, сотиш ва харид каналлари, умумий меҳнат ресурсларидан фойдаланиш имкониятига эга бўладилар. Ҳудудий кластерлар сифатида эса географик жиҳатдан бир-бирига яқин жойлашган бир ёки турли тармоқ компаниялари, уларни қўллаб-қувватловчи институтлар, ўхшаш ва тўлдирувчи маҳсулот ишлаб чиқарувчи ҳамкор компаниялар мажмуи бўлиб, иштирокчилар ўртасида эркин ахборот алмашинуви ҳисобига жаҳон бозорида умумий рақобатбардошликни намоён этади.

<sup>1</sup> Michael E. Porter. TCI Conference. 2002.



Бугунги кунда иқтисодий адабиётларда «кластер» тушунчасининг бугунги кунга қадар ҳам аниқ таърифи ишлаб чиқилмаган. Ҳақиқатда ҳар бир муаллиф кластерга ўзига хос таъриф беришга ҳаракат қилади.

Умумий ҳолда кластер сифатида ҳудудий жиҳатдан чегараланган компаниялар мажмуи бўлиб, ўзаро алоқалари ва биргаликда ҳаракат қилиш натижасида ўзи жойлашган ҳудудда рақобат устунлигини намоён қилади.

Кластерларнинг иқтисодий моҳиятини ёритиб беришда кластер ҳодисасини аниқлаб олиш зарур. Кластерлар ҳақида гап кетганда энг аввало АҚШнинг Калифорния штатидаги Силикон водийси, Германиядаги автомобил компаниялари, Италиядаги пойафзал ишлаб чиқарувчилар, Галливуд кино саноати мисол қилиб кўрсатилади.

Ишлаб чиқилган таърифларнинг бир-бирига яқинлиги уларнинг турли тиллардан таржима қилиниши, кластернинг турли мамлакатларда турлича маънога эга эканлигидан далолат беради.

Шундай қилиб, кластер учун умумий бўлган яхлит таъриф мавжуд эмас. Иқтисодий адабиётларда кластер тушунчасига даставвал М.Портер томонидан урғу берганлиги боис, бугунги кунда у географик жиҳатдан бир-бирига яқин, ўзаро алоқадор аниқ белгиланган соҳада фаолият юритувчи ва бир-бирини тўлдириб турувчи фирмалар гуруҳи ва шунга ўхшаш ҳодисаларни ёритиб беришда кенг қўлланилади.

М.Портер ҳам ўз тадқиқотларида кластернинг яхлит таърифини ишлаб чиқмаган. Унинг тадқиқотларида кластернинг бир-биридан фарқ қилувчи бешта таърифи ишлаб чиқилган<sup>1</sup>. Шу сабабли бизнингча, илгари ишлаб чиқилган таърифларни тўлдирувчи ва уларга янада аниқлик киритувчи муаллифлик таърифини ишлаб чиқиш бўйича уринишларни кузатиш мумкин. Янги ишлаб чиқилган таърифнинг ўринли бўлиши учун кластер тушунчасининг ва унга турдош бўлган тушунчаларнинг моҳиятини очиб берувчи яхлит тушунчалар тизимини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб, иқтисодиётнинг хизматлар соҳасида юзага келдиган ҳолатларни яхшилашнинг йўлларида бири жаҳон тажрибасида кенг миқёсда кузатиладиган кластерлаш тизимини тўғри ва самарали ташкил этиш усулига мурожат қилиш лозим бўлади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Маршалл, А. Принципы политической экономии: в 3 т. / А. Маршалл. М.: Прогресс, 1983. Т. 1.
2. Гранберг А. Г. Основы региональной экономики: Учебник для вузов. – 3-е изд. – М.: ГУ ВШЭ, 2003. – 495 с
3. К.Д.Мирзаев., З.Рахимов. Агросервисда кластерлаш “Иқтисод ва молия” илмий-амалий журнали № 3 (135), 25.09.2020 й. 38-45 бет.
3. Асланова Д.Х., Алимова М.Т. Ҳудудий туристик кластернинг шаклланиш жараёнини аниқлаш усули // Халқаро ва ички туризмни ривожлантириш муаммолари (республика илмий-амалий анжумани материаллари) – Самарқанд, СамИСИ, 2016, Б. 3-8.
4. Ленчук Е.Б., Власкин Г.А. Кластерный подход в стратегии инновационного развития зарубежных стран. Журнал. Проблемы прогнозирования. – 2010г. – № 5. – С. 38-51.

<sup>1</sup> Портер М., 2005, Конкуренция. : Пер. с англ. - М.: Издательский дом «Вильямс», с. 263



**IQTISODIY FAOLLIKNI OSHIRISHDA KREDIT TIZIMIDA KREDITLASH  
AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA  
ULARNING YECHIMLARI**

**Nazarov Dilshat Primkulovich,**

Alfraganus University

Iqtisodiyot fakulteti

2-kurs magistranti

Телефон: +998992951111

*dilshat.nazarov@gmail.com*

**ANNOTATSIYA:** Hozirgi kunda iqtisodiy faollikni oshirishda tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan kreditlash amaliyotidagi mavjud muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va hal etish yo'llari tahlil qilingan. Kredit tizimini takomillashtirish orqali bank faoliyatining samaradorligi va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari oshiriladi.

**KALIT SO'ZLAR:** kreditlash amaliyoti, iqtisodiy faollik, tijorat banklari, kredit tizimi, moliyaviy barqarorlik, real sektor, kreditga layoqatlilik, likvidlik, kredit monitoringi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy faollikni ta'minlashda bank tizimining roli beqiyosdir. Xususan, tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan kreditlash amaliyoti mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu tizimda bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular kredit resurslarining yetarlicha taqsimlanmasligi, kreditga layoqatlilikni baholashdagi sustlik, axborot bazasining to'liqsizligi va muammoli kreditlarning ko'pligi bilan bog'liqdir. Mazkur maqolada aynan shu muammolar atroflicha tahlil qilinib, ularni hal etish yo'llari yoritiladi..

Kreditlash tizimining iqtisodiy faollikdagi o'rni ko'plab iqtisodchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan, X. Хакимов o'zining asarida tijorat banklarining kredit siyosatini amalga oshirishdagi qiyinchiliklar va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilib, banklar tomonidan foiz stavkalarining noto'g'ri belgilanishi resurslar samaradorligini pasaytirishini ta'kidlaydi [1].

М. Юсупов esa tijorat banklari tomonidan kredit shakllaridan to'liq foydalanilmasligi va axborot bazasining yetarli emasligi sababli kredit risklari ortayotganini qayd etadi [2].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki materiallarida esa tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligini baholash tizimi takomillashmaganligi, bu esa muammoli kreditlar ulushini oshirishga olib kelayotgani aytiladi [3].

IMF va Jahon bankining xalqaro tahliliy hisobotlarida kredit infratuzilmasining rivojlanmaganligi, mijozlarning moliyaviy savodxonligining pastligi bank tizimining barqarorligiga tahdid soluvchi omillar sifatida ko'rsatilgan [4], [5].

"Bank ishi" fanidan nashr etilgan ma'ruzalar matnida esa banklarning likvidlik darajasi pastligi, bu esa ularning ishonchliligini kamaytirib, kredit portfeli sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi alohida ta'kidlangan [6].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 23-apreldagi 197-sonli qarorida Kredit axborotlari milliy institutining tashkil etilishi va kredit tarixini hisobga olish tizimini joriy etish bo'yicha amaliy mexanizmlar bayon etilgan [7].

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR) tomonidan e'lon qilingan tahlillarda esa kredit tanlovi va kredit monitoringining sustligi bank resurslarining noto'g'ri taqsimlanishiga va iqtisodiyotda xavfli oqibatlarga olib kelayotganiga e'tibor qaratilgan [8].

Iqtisodiy faollikni oshirishda moliya-kredit tizimi, ayniqsa tijorat banklarining kreditlash amaliyoti beqiyos ahamiyat kasb etadi. Banklar iqtisodiyotda moliyaviy vositachi sifatida faoliyat yuritib, jamg'armalarni ishlab chiqarishga, xizmat ko'rsatish sohasi va tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish orqali iqtisodiy barqarorlik va o'sishni ta'minlaydi. Biroq bu jarayonlar to'liq amalga oshishi uchun kreditlash tizimining samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilayotgan mavjud muammolarni aniqlash va bartaraf etish zarur.

Avvalo, jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotida uchrayotgan muammolarga e'tibor qaratish kerak. Ko'plab tijorat banklari aholining kreditga layoqatliligini aniqlashda aniq mezonlarga ega emas. Daromad manbalari to'liq tasdiqlanmagan mijozlar uchun kredit ajratish jarayoni murakkablashadi. Aholi o'rtasida norasmiy daromad oluvchilar ulushi yuqori bo'lgani sababli, ularning kredit olish





imkoniyati pasayadi. Bunga qo'shimcha ravishda, banklar tomonidan olingan kreditlarning maqsadsiz ishlatilishi ustidan nazoratning sustligi, kredit risklarining ortishiga olib kelmoqda. Shuningdek, resurs bazasining yetishmasligi sababli banklar uzoq muddatli va qulay shartlardagi kreditlarni taqdim eta olmayapti. Odatda tijorat banklari yuqori foizli omonatlarni jalb qilgan holda, kam foizli kreditlar ajratishga majbur bo'lmoqda, bu esa iqtisodiy jihatdan samarasizlikka olib keladi.

Kredit shakllarining cheklanganligi ham kreditlash samaradorligini pasaytiruvchi omil hisoblanadi. Hozirgi kunda tijorat banklari asosan an'anaviy kredit turlarini taqdim etmoqda. Xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan kontokorrent, overdraft, forfeiting va faktoring kabi zamonaviy kreditlash shakllarining cheklanganligi bank xizmatlari ko'lamini toraytiradi. Bunday sharoitda yirik loyihalarni moliyalashtirish va kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay moliyaviy vositalar mavjud emas. Kredit turlarining to'liq tanlovini ta'minlamaslik bank mijozlari ehtiyojlarini qondira olmaydi va iqtisodiy faollikni cheklab qo'yadi.

Kredit axborot tizimining rivojlanmaganligi ham muhim muammo sifatida e'tirof etiladi. Ko'plab banklar o'z mijozlari haqidagi ma'lumotlarni yetarli darajada to'plamaydi. Kredit tarixini shakllantirish, qarzdorlik darajasini aniqlash, boshqa banklardagi moliyaviy faoliyatni baholash imkoniyatlari cheklangan. Bu esa kredit qarorlarini qabul qilishda xatolarga olib keladi. Kreditlar o'z vaqtida qaytmasligi, muammoli aktivlar ulushining oshishi – bularning barchasi axborot etishmovchiligi oqibatidir. Bu borada yagona kredit byurosi va banklararo axborot tizimini takomillashtirish juda muhim hisoblanadi.

Kreditga layoqatlilikni baholash tizimidagi mavjud kamchiliklar esa kredit siyosatini yuritishda eng og'riqli nuqtalardan biridir. Ayni paytda banklar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligi umumiy mezonlar asosida baholanadi. Mijozning faoliyat sohasi, biznes modeli, moliyaviy hisobotlari chuqur tahlil qilinmasdan kredit ajratilishi banklar uchun katta xavf tug'diradi. Bundan tashqari, ko'plab bank xodimlarining moliyaviy savodxonligi va tajribasi yetarli emas. Moliyaviy hisobotlar tahlili o'rniga tayyor kompyuter dasturlariga tayanish hollari keng tarqalgan bo'lib, bu esa analitik fikrlashning zaifligiga olib kelmoqda. Natijada, noto'g'ri baholangan kreditlar muammoli portfollarni shakllantiradi, bu esa butun bank tizimining ishonchililigiga ta'sir ko'rsatadi.

Kredit monitoringining sustligi ham tizimli muammolardan biridir. Ajratilgan kreditlar ustidan doimiy va aniq monitoring olib borilmasligi ularning maqsadsiz sarflanishiga, noto'g'ri ishlatilishiga sabab bo'ladi. Xususan, ayrim holatlarda kredit oluvchilar tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar bo'yicha noto'g'ri yoki soxta ma'lumotlar taqdim etilishi mumkin. Monitoring tizimi yo'q bo'lsa, bunday xatti-harakatlar vaqtida aniqlanmaydi, bank esa muhim yo'qotishlarga duch keladi. Monitoring tizimining mustahkam bo'lishi esa kreditlarning qaytarilishiga, bank faoliyatining barqarorligiga va kredit portfeli sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Banklarning likvidlik darajasi masalasi esa kreditlash imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Likvidlik – bu bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olish qobiliyatidir. Likvidlik darajasi past bo'lsa, bank mijozlarning talablariga javob bera olmaydi, investorlar va omonatchilar ishonchini yo'qotadi. Shu sababli kreditlar ajratishda, ayniqsa investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bank o'zining mavjud resurslarini to'liq tahlil qilishi va faqat real asoslangan loyihalarga ustuvorlik berishi kerak. Agar kreditlar to'liq ta'minlanmagan bo'lsa, yoki iqtisodiy jihatdan asoslanmagan holda ajratilsa, bu bankning nafaqat likvidligiga, balki butun moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy faollikni oshirishda kreditlash amaliyotini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biridir. Ushbu yo'nalishda mavjud muammolarni aniqlash, ularga aniq tahlil asosida yondashish, tizimli islohotlar olib borish, zamonaviy kredit shakllarini joriy etish, kreditga layoqatlilikni baholash tizimini takomillashtirish, axborot tizimini kuchaytirish orqali banklar faoliyati samaradorligini oshirish mumkin. Natijada, iqtisodiyotga ko'proq moliyaviy resurslar jalb qilinadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, real sektor barqaror moliyalashtiriladi va makroiqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. ХАКИМОВ Х. *Pul-kredit siyosatining banklar faoliyatiga ta'siri*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
2. ЮСУПОВ М. *Bank ishi va kredit siyosati*. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2021.
3. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. *Tijorat banklarida kredit siyosati: holat va takliflar*. – Toshkent, 2022.
4. World Bank. *Enhancing Financial Infrastructure in Emerging Markets*, Washington D.C.,



2019.

5. IMF. *Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program*, Country Report No. 20/354, Washington D.C., 2020.

6. Moliya instituti. *Bank ishi fanidan ma'ruzalar matni*. – Toshkent, 2024.

7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 23 апрелдаги 197-сонли қарори.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR) tahlillari.



ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ МАЛАКАЛИ  
МУТАХАССИСЛАРГА ТАЛАБНИНГ ОШИШИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ВОСИТА

Саламов Иброхим

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси,  
чорвачилик ва биотехнологиялар университети  
“Иқтисодиёт ва бухгалтерия ҳисоби” кафедраси доценти, и.ф.н.

**Аннотация** ушбу мақолада мамлакатимизда таълим хизматлари бозорининг рақобатбардошлигини ошириш билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилиш масалаларига алоҳида урғу берилган. Таълим хизматлари бозорининг инновацион ривожланиши буйича давлат сиёсати самарадорлигини баҳолаш ва тартибга солишнинг самарали усуллари аниқлаш ва бартараф этиш йўллари ўрганилган.

**Калит сўзлар:** олий таълим, сифат, янги босқич, ижтимоий соҳа, иқтисодиёт тармоқлари, меҳнат бозори, малакали кадр.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы решения проблем, связанных с повышением конкурентоспособности рынка образовательных услуг в нашей стране. Исследованы оценка эффективности государственной политики по инновационному развитию рынка образовательных услуг и пути выявления и устранения эффективных методов регулирования.

**Ключевые слова:** высшее образование, качество, новый этап, социальная сфера, отрасли экономики, рынок труда, квалифицированные кадры.

**Abstract:** This article examines the issues of solving problems related to increasing the competitiveness of the educational services market in our country. The article examines the effectiveness of state policy on innovative development of the educational services market and ways to identify and eliminate effective regulation methods.

**Key words:** higher education, quality, new stage, social sphere, economic sectors, labor market, qualified personnel.

Ҳозирги кунда мамлакатимизда замонавий иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларини модернизациялаш жараёнида ҳўжалик субъектларининг рақобатбардошлигини оширишга асосланган тизимли узвий тараққиёт босқичига қадам қўйганлигини кўрсатмоқда. Таълим хизматлари бозорида олий таълим муассасалари мамлакат иқтисодиёти ва унинг тармоқларида кадрлар салоҳиятини шакллантириш манбасини ўзида номоён этади. Бозор инфратузилмаси ва ишчи кучига талаб ва таклиф ўзгаришининг юқори динамикаси ҳамда хусусиятли жиҳатлари бозор иштирокчилари ўртасида сабаб-оқибат алоқаларини ёритиш ва ўлар ўртасидаги ўзаро боғлиқлик механизмини аниқлашни, ўрганишни зарурат этади.

Республикаимизда таълим хизматлари бозорининг шаклланиб бориши малакали мутахассисларга талабнинг ошишини таъминловчи восита ҳисобланиб, мутахассисларнинг касбий тайёргарлиги эса уларнинг бозордаги рақобатбардошлиги орқали баҳоланмоқда. Бундан келиб чиққан ҳолда юзага келаётган янги ижтимоий-иқтисодий шароитларга битирувчиларда кўникмаларни ҳосил қилиш мақсадида олий таълим муассасалари янги стратегияларни ишлаб чиқишлари зарур бўлмоқда. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маъсус таълим вазирлиги томонидан жадал суръатлар билан ҳаётга татбиқ қилинаётган эътиборга молик масалалардан бири, бу таълим, фан ва ишлаб чиқариш ўртасидаги интеграцияни янада мустаҳкамлашдир. Бу борада олий таълим муассасалари билан ишлаб чиқариш корхоналари ўртасида ўзаро манфаатли, инновацион корпоратив ҳамкорлик алоқаларини ўрнатиш асосий вазифадир. Шунга кўра, инновацион ривожланиш шароитида таълим хизматлари бозорини самарали шакллантириш алоҳида аҳамият касб этади.

Мамлакатимизда таълим тизимини ривожлантиришнинг концептуал йўналишлари Президентимизнинг 2020 йил 29 декабрда Олий Мажлисга Мурожаатномасида яна бир бор қайд этилди. Ушбу мурожаатномада таъкидланишича, “Бунда, аввало, таълим ва тарбияни ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, илм-фан ва инновацияларни тараққий эттириш миллий ғоямизнинг асосий устунлари бўлиб хизмат қилиши лозим”<sup>1</sup>. Шу

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>



туфайли мазкур масалага мамлакатимизда жуда катта аҳамият берилмоқда. Кейинги йилларда мамлакатимизда таълим тизимини изчил ривожлантириш борасида кенг кўламли ислохотларни амалга оширишга қаратилган қонун, фармон ва қарорлар таълим тизимидаги ислохотларнинг жадаллаштиришга асос бўлди.

Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида “олий таълим мазмунини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларининг барқарор ривожланишига муносиб ҳисса қўшадиган, меҳнат бозорида ўз ўрнини топа оладиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш”<sup>1</sup> вазифаси белгиланган.

Олий таълим мазмунини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш учун сифат билан боғлиқ барча ички ва ташқи омилларни ишга солишга тўғри келади. Бу эса ўз навбатида таълим хизматлари сифати ва олий таълим муассасалари рақобатбардошлигини баҳолашни тақозо қилади. Олий таълим муассасаларида рақобатбардошлик даражаси унинг кадрлар салоҳияти, профессор-ўқитувчиларнинг малака даражаси, ўқув жараёнларининг техник-технологик модернизациялашганлик даражаси, таълим хизматларининг такомиллашуви ва диверсификациялашуви, бизнес, таълим ва фан ўртасида интеграцияни таъминлаш, илмий ишланмаларнинг амалиётга жорий этилиши ҳамда бошқа бир қанча омилларга боғлиқдир.

Ҳозирги кунда мамлакатимизда таълим хизматлари бозорининг рақобатбардошлигини ошириш билан боғлиқ муаммолар сифатида таълим хизматлари бозори инновацион ривожланишига методологик ёндашувлар, унинг самарали шаклланишининг асосий мезонлари ва кўрсаткичларини назарий ва услубий жиҳатдан тадқиқ этиш, олий таълим муассасаларида мутахассислар тайёрлаш ва уларнинг иш билан бандлигини таъминлаш ҳолатини тадқиқ этиш, таълим хизматлари бозорининг инновацион ривожланиши буйича давлат сиёсати самарадорлигини баҳолаш ва тартибга солишнинг самарали усуллари аниқлаш каби муаммоларни алоҳида қайд этиб ўтиш лозим.

Олий таълим хизматларининг хусусиятларини чуқурроқ таҳлил қиладиган бўлсак, кўпчилик илмий-тадқиқотчиларнинг фикрига кўра таълим хизматлари “жамоатчилик манфаати (товари)” ҳисобланади. Шунини таъкидлаш жоизки, жамоатчилик манфаати(товари)га - бозор бера олмаган пул миқдорида ўлчаб бўлмайдиган жамият эҳтиёжларини қондиришга қаратилган иш ва хизматлар киради. Ўз ўрнида, жамоатчилик манфаати (товари)ни унинг қиймати ва уни амалга оширишга бўлган маъсулиятни давлат ўз зиммасига олади. Бироқ, кўпчилик мутахассислар мазкур турдаги хизматлар фақат жамоатчилик манфаатидаги товар деб ҳисоблашмайди. Масалан, иқтисодчи олим С.Фишер бунда: “давлат жамоатчилик манфаати ҳақида ғамхўрлик қилиши, бизнес соҳасини таълим хизматларини кўрсатишда иштирок этишини чекламайди”<sup>2</sup>, деб фикр билдиради. Иқтисодчи Дж.Стиглиц эса: “маълум бир қисмдаги, яъни бошланғич ва ўрта таълим хизматларини жамоатчилик манфаатидаги, қолган қисмини эса, яъни олий, малака ошириш, қайта тайёргарлик ва касбий таълим хизматларини эса жамоатчилик манфаатидан устун хизматлар”<sup>3</sup> деб эътироф этади.

Юқоридагилардан ташқари, олий таълим хизматларини яна бир қатор муҳим жиҳатларини эътиборга олиш жоиз деб ҳисоблаймиз. Улар:

- мавсумийлик;
- юқори қиймат (олий таълим хизматлари юқори қийматга эга (катта миқдорда тўловни талаб қилади), чунки бунда мутахассиснинг шахсияти шаклланади, бу турли ривожланган мамлакатларда яхши малакали, дипломли мутахассис юқори ҳақ эвазига ишга таклиф қилинади);
- узоқ муддат талаб қилиши (мамлакатимизда бакалавриатура – 4 йил, магистратура – 2 йил, жами 6 йил);
- ўз натижасини тезда бермаслиги;
- натижаларнинг таълим олувчининг истиқболдаги ҳаёти ва иш шартларига боғлиқлиги;
- истиқболда ҳам таълим хизматларидан фойдаланишнинг зарурлиги;
- таълим хизматлари истеъмолчиларининг ёшига боғлиқлиги.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги ПФ-5847-сонли Фармони.

<sup>2</sup> Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. «Экономика», «Дело», Москва, 1993.

<sup>3</sup> Стиглиц Дж., «Экономика государственного сектора», Инфра-М, Москва, 1997.





Олий таълим хизматларини кўрсатиш учун ишлаб чиқилган дастурлар олий таълим муассасалари, яъни университетлар, академиялар ва институтлар томонидан яратилади ва амалга оширилади. Бунда, дастурлар авваламбор турли соҳа ва тармоқлар учун ақлий меҳнат қиладиган юқори малакали мутахассислар учун мўлжалланган бўлади. Шунингдек, олий таълим муассасасини тамомлагандан сўнг ҳам малакасини ошириш, илмий фаолият (докторантура, таянч докторантура ёки мустақил изланувилик институтлари орқали докторлик диссертациясини тайёрлаш, химоя қилишда амалий ёрдам кўрсатиш) билан шуғулланиш кабилар ҳам олий таълим хизматларининг узвий давоми ҳисобланади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги ПФ-5847-сонли Фармони.
3. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. «Экономика», «Дело», Москва, 1993.
4. Стиглиц Дж., «Экономика государственного сектора», Инфра-М, Москва, 1997.



## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLİYAVIY AKTIVLARNING AHAMIYATI.

**Odiljonova Oybachin Fayzullo qizi**

“Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti”

maqsadli tayanch doktoranti va ISFT institutini stajyor-o`qituvchisi

+998938128797

omonboyevoybachin@gmail.com

### Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy aktivlarning tutgan o‘rni, ularning raqamli muhitda rivojlanish istiqbollari, iqtisodiy o‘rinishga ta’siri tahlil qilinadi. Xususan, moliyaviy aktivlarning raqamlashtirilishi, ularning investitsion muhitga ta’siri va fuqarolarning moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasiga oid masalalar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan..

**Kalit soʻzlar:** Raqamli iqtisodiyot, moliyaviy aktivlar, moliyaviy instrumentlar, investitsiya muhiti, raqamlashtirish.

### Kirish

Zamonaviy iqtisodiy jarayonlarda raqamli texnologiyalarning tutgan o‘rni tobora ortib bormoqda. Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy faoliyatning raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilishi bo‘lib, u ishlab chiqarish, moliyaviy operatsiyalar va iste’mol sohalarini qamrab oladi. Bunday sharoitda moliyaviy aktivlarning boshqaruvi ham tubdan o‘zgarishga uchrayapti. Raqamlashtirish natijasida moliyaviy xizmatlar ko‘lamining kengayishi, ularning aholiga yetkazish mexanizmlarining takomillashuvi va iqtisodiy samaradorlikning oshishi kuzatilmoqda.

Maqolaning maqsadi — O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy aktivlarning ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilish, mavjud holatni baholash va istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlashdan iborat.

### Asosiy qism

Raqamli iqtisodiyot – bu texnologik yechimlar asosida iqtisodiy resurslarning boshqaruvi, ishlab chiqarish jarayonlari, moliyaviy va bank xizmatlarini avtomatlashtirish orqali amalga oshiriladigan tizimdir (Brynjolfsson & McAfee, 2017). Mazkur iqtisodiy modelda moliyaviy aktivlar, ya’ni aksiya, obligatsiya, valyuta, kriptovalyutalar, derivativlar kabi vositalar raqamli vositalar orqali boshqariladi.

Shundan bilib olishimiz mumkinki, moliyaviy aktivlar bu- bu har qanday aktiv bo‘lib, ularga quyidagilar kirishi mumkin:

- naqd pul mablag‘lari;
- boshqa tashkilotlarning ulushli vositalari;
- shartnomadan kelib chiqib, boshqa xo‘jalik subyektlaridan pul mablag‘larini yoki moliyaviy aktivlarni olish va almashtirish huquqi;
- kompaniya o‘z hissa instrumentlari bilan hisob-kitob olib borishi bo‘yicha shartnomalari.

Moliyaviy aktivlar iqtisodiy tizimda resurslar oqimini samarali taqsimlashda, investitsiya jarayonlarini moliyalashtirishda, bozorlarning likvidligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning raqamli shaklda mavjud bo‘lishi esa ushbu jarayonlarni tezlashtiradi, xavflarni kamaytiradi va ishonchlilikni oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, to‘lov tizimlari (masalan, Click, Payme, Apelsin), onlayn bank xizmatlari, elektron hamyonlar va raqamli identifikatsiya tizimlari joriy etildi.

Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilayotgan “raqamli so‘m” konsepsiyasi esa moliyaviy operatsiyalarning raqamli asosda yuritilishi uchun zamin yaratmoqda. 2023–2024 yillarda mamlakatda FinTech sektorining yillik o‘sishi 15–20% atrofida bo‘lgani kuzatildi (Statista, 2024).

Moliyaviy aktivlarning raqamlashtirilishi quyidagi asosiy yo‘nalishlarda iqtisodiy samaradorlikni oshiradi:

- Likvidlikni oshiradi: aktivlarning tez aylanishiga yordam beradi;
- Xavfsizlikni kuchaytiradi: blokcheyn texnologiyalari orqali qalbakilashtirish xavfi kamayadi;
- Kichik investorlar uchun imkoniyatlar yaratadi: elektron savdo platformalari orqali kirish qulaylashadi;



- Operatsion xarajatlarni kamaytiradi: vositachilar soni kamayadi.

Raqamli texnologiyalar orqali aksiyalar va obligatsiyalarning sotilishi, boshqarilishi va tahlili avtomatlashtiriladi. Bu esa investitsion faoliyatni jadallashtiradi va iqtisodiy faollikni oshiradi.

### **Xulosa**

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy aktivlarning ahamiyati ortib bormoqda. Ularning raqamlashtirilishi investitsiya muhitining yaxshilanishi, moliyaviy xizmatlarning tez va samarali ko'rsatilishini ta'minlaydi. Mavjud islohotlar va infratuzilmaning rivojlanishi mamlakatning moliyaviy bozorini zamonaviy bosqichga olib chiqmoqda. Kelgusida raqamli so'm, blokcheyn texnologiyalari va sun'iy intellekt asosida moliyaviy boshqaruvning joriy etilishi bu jarayonni yanada tezlashtirishi kutilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. IFRS Foundation. (2023). International Financial Reporting Standards (IFRS). Retrieved from [<https://www.ifrs.org/>](<https://www.ifrs.org/>)
2. Beke, J. (2011). International Accounting Harmonization, Banking Regulation, and Islamic Finance . IGI Global.
3. Deegan, C. (2013). Financial Accounting Theory . McGraw-Hill Education.
4. Nobes, C., & Parker, R. (2016). Comparative International Accounting . Pearson Education.
5. IFRS 9 Standard. (2023). Financial Instruments . International Financial Reporting Standards.
6. Kieso, D. E., Weygandt, J. J., & Warfield, T. D. (2020). Intermediate Accounting: IFRS Edition . John Wiley & Sons.
7. Scott, W. R. (2014). Financial Accounting Theory . Pearson.
8. Choi, F. D. S., & Meek, G. K. (2011). International Accounting . Pearson.
9. Alexander, D., & Nobes, C. (2010). Financial Accounting: An International Introduction . Pearson Education.
10. Ball, R. (2006). International Financial Reporting Standards (IFRS): pros and cons for investors . Accounting and Business Research, 36(sup1), 5-27.



## ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА СТРУКТУРУ ЗАНЯТОСТИ

Эркинбаева Камила,  
УрГУ, магистрантка группы  
241-Цифровой экономики.

**Аннотация:** В статье показаны влияние цифровой экономики на структуры занятости, её положительные и отрицательные влияния, а также способы их предотвращения.

**Annotatsiya:** Maqolada raqamli iqtisodiyotning bandlikga ta'siri, uning qanday yaxshi va yomon ta'sirlarini oldini olish yo'llari bo'yicha masalalar qo'rsatib o'tilgan.

**Abstract:** The article discusses the influence of the impact of the digital economy on employment structures, its positive and negative influences, and there are also ways prevent them.

**Ключевые слова:** Цифровая экономика, занятость, автоматизация, искусственный интеллект, кибербезопасность, дефицит навыков, трудовая эксплуатация, фрилансер.

**Kalit so'zlar:** Raqamli iqtisodiyot, bandlik, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, ko'nikmalar yetishmasligi, mehnat ekspluatatsiyasi, frilanser.

**Key words:** Digital economy, employment, artificial intelligence, cybersecurity, skills deficit, labor exploitation, freelancer.

В эпоху стремительного развития цифровых технологий трансформация структуры занятости становится одним из наиболее актуальных вызовов современности. Цифровая экономика, с одной стороны, открывает новые возможности для создания рабочих мест и повышения производительности труда, а с другой — вызывает серьезные изменения в спросе на рабочую силу, порождая как новые профессии, так и угрозу безработицы для отдельных категорий населения. Эти изменения требуют адаптации системы образования и профессиональной подготовки к новым запросам рынка труда, а также разработки эффективных механизмов социальной поддержки для работников, чьи профессии подвержены автоматизации. Необходимы новые подходы к оценке и развитию навыков, ориентированных на творчество, коммуникацию и решение нестандартных задач, которые будут востребованы в условиях цифровой экономики. Без активного вмешательства государства и общества, направленного на поддержку переподготовки кадров и создание новых рабочих мест, потенциально могут возникнуть серьезные социальные проблемы, такие как рост неравенства в доходах и увеличение числа людей, не имеющих возможности адаптироваться к новым требованиям рынка труда.

Цифровая экономика оказывает как положительное, так и отрицательное влияние на структуру занятости, порождая сложный и динамичный процесс трансформации. Важно понимать, что эти влияния неравномерно распределены по различным группам населения и отраслям.

Положительные влияния:

Создание новых рабочих мест: Цифровая экономика порождает новые профессии, связанные с разработкой, внедрением и обслуживанием технологий. Это включает в себя специалистов по искусственному интеллекту, данным, кибербезопасности, разработке программного обеспечения, аналитики больших данных и т.д. В некоторых отраслях происходит автоматизация рутинных задач, освобождая людей для более творческих и сложных ролей.

Увеличение производительности труда: Автоматизация, использование роботизированных систем и искусственного интеллекта в производственных процессах повышает эффективность и производительность труда. Это может привести к росту экономики и созданию новых возможностей для развития.

Стимулирование инноваций: Цифровые технологии способствуют развитию инноваций в различных секторах, от здравоохранения до сельского хозяйства. Это создает новые рынки и возможности для предпринимательства так как положительное влияние цифровой экономики на структуру занятости с одной стороны тоже является движущим силам экономики.

Отрицательные влияния.

Автоматизация и потеря рабочих мест: Автоматизация процессов и использование роботов и искусственного интеллекта могут привести к сокращению рабочих мест в некоторых отраслях, особенно тех, где преобладают рутинные задачи. Это особенно актуально для низкоквалифицированных работников.

Усиление неравенства: Цифровая трансформация может усугубить социальное неравенство,





так как доступ к технологиям, образованию и новым профессиям часто неравномерно распределен по различным социальным группам.

Новые виды трудовой эксплуатации: Работа в удаленном режиме, особенно в сфере фриланса, может породить новые формы трудовой эксплуатации, связанные с отсутствием гарантий, неполной оплатой и чрезмерной нагрузкой.

Кибербезопасность: Цифровая экономика подвержена различным угрозам кибербезопасности, которые могут привести к утечке данных, финансовым потерям и нарушениям нормальной деятельности.

Дефицит навыков: Для работы в цифровой экономике необходимы новые навыки, и не все работники готовы или способны их приобрести. Это может привести к дефициту специалистов и трудности адаптации на рынке труда.

Новые формы обучения, интегрирующие дистанционные технологии и учитывающие потребности различных социальных групп, являются ключом к преодолению неравенства, возникающего из-за трансформации структуры занятости. Индивидуальные обучающие программы, доступные онлайн и офлайн, адаптированные к разным стилям обучения и уровню предыдущих знаний, помогут преодолеть географические барьеры и повысить доступность качественного образования для всех социальных групп, включая тех, кто проживает в отдаленных районах или имеет ограниченные возможности. Ключевым моментом является гибкость и персонализация обучения. Разработка модульных курсов, позволяющих адаптировать программу к индивидуальным потребностям и стилям обучения, а также к изменениям на рынке труда, позволит людям эффективно осваивать новые навыки и повышать свою квалификацию. Это обеспечит возможность непрерывного профессионального развития, не ограничиваясь традиционными рамками образования, и снизит разрыв в возможностях между разными группами населения.

Для минимизации негативных последствий цифровизации на рынок труда государственная поддержка тоже играет важную роль как оказывание социальной защиты и регулирование рынка труда. Разработка законодательства регулирующего отношения между платформами цифровой экономики и фрилансерами гарантирующего права работников и предотвращающего трудовую эксплуатацию.

В заключение, цифровая экономика, с ее неизбежными преобразованиями в структуре занятости, предоставляет как новые возможности, так и вызовы.

Понимание как положительных, так и отрицательных аспектов этих изменений критически важно. Развитие новых форм обучения, адаптированных к потребностям современного рынка труда, является важным шагом в решении проблем, связанных с автоматизацией и переходом к новым профессиям. Только комплексный подход, сочетающий гибкие образовательные программы с поддержкой переквалификации и адаптации, поможет сбалансировать положительные и отрицательные последствия цифровой трансформации, создавая более справедливую и динамичную структуру занятости. В свою очередь, цифровизация оказала сильное влияние на рынок труда и сделала ему вызов. Так как человеческий труд в производственной сфере стали заменять технологии нового типа структура рынка труда находится в активном процессе трансформации. Структурные изменения коснулись характера трудовой деятельности досуга рабочего графика и организации труда. На данной момент очень важно принять все необходимые управленческие решения чтобы избежать негативных последствий.

### Список использованной литературы:

1. Кознов А. Б. Влияние цифровизации на рынок труда. International journal of Humanities and National Sciences
2. Сапрыкин В. А., Бочкова Т. А. Рынок труда: текущее состояние и современные тенденции // Journal of Economy and Business, 2022;(4-2): 101-104.
3. Цифровая экономика : крат. стат. сб. / Г.И. Абдрахманова, Л.М. Гохберг, А.В. Демьяненко [и др.].
4. Григорьев И.Е. Рынок труда и механизмы его регулирования в условиях формирования новой экономики. /дис.,... к. э. н. – СПб.



## ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### THE ROLE OF ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION, EDUCATION AND BUSINESS

**Majidova Firangiz Mavlonovna**

Buxoro viloyati Jondor tuman

5-umumta'lim maktabi oliy toifali ,

C1 darajali ingliz tili fani o'qituvchisi

+998997366960firangizmajidova932@gmail.com.

**Annotation:** This article analyzes the role of English in global communication, education and business. In particular, it highlights the importance of English as a means of international communication, its widespread use in scientific and educational processes and its role in global business. The article shows the importance of language learning in modern life and justifies the opportunities that its mastery creates for every person.

**Key words:** English, communication, business, role global, education, language, international, economic, world, modern knowledge.

In education, in business, in diplomacy- English is the bridge  
that connects minds and markets”

Prof. David Crystal.

The process of globalization is deeply penetrating all aspects of human life. Especially in the fields of international communication, education and business, the need for a single concept and language is growing. One of the most powerful tools that can satisfy this need is English. Today, English is the most widely used and studied language in the world. Through it, cooperation between countries is established, modern knowledge is mastered, and active participation in global economic processes is ensured. This article analyzes the role of English in these three areas - communication, education and business.

Today, English has official or unofficial status in more than 70 countries and is used by more than 1.5 billion people. English is also among the working languages of international organizations - such as the UN, UNESCO, and the World Health Organization. In addition, more than 50 percent of the information available on the Internet is in English. This language remains the main tool for global communication.

In higher education institutions of many developed countries, educational processes are conducted in English. Knowledge of English is required to participate in international grants, scholarships and scientific exchange programs. English also plays a significant role in the development of science - the majority of prestigious scientific journals and articles are published in English. Students are finding their place in the international arena by proving their level of English proficiency through tests such as IELTS and TOEFL.

English has become a global language in business and economics. English is used as the main means of communication in international trade, finance, IT and marketing. Many large companies and brands have chosen English as their corporate language. This makes learning English a necessity for businessmen, entrepreneurs and professionals.

In conclusion, The global influence of English is increasing day by day. Learning it opens up new opportunities for everyone - through this language you can not only study in foreign countries, but also participate in international projects, gain modern knowledge and run a successful business. Therefore, learning English is one of the most important needs today.

#### References

1. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press.
2. Graddol, D. (2006). English Next. British Council.
3. Nunan, D. (2003). The Impact of English as a Global Language on Educational Policies and



Practices in the Asia-Pacific Region. TESOL Quarterly, 37(4), 589–613.

4. British Council. (2020). The Future Demand for English in the World. [www.britishcouncil.org](http://www.britishcouncil.org)

5. Statista. (2024). Most spoken languages worldwide 2024. [www.statista.com](http://www.statista.com)

6. Internet World Stats. (2023). Internet Users by Language. [www.internetworldstats.com](http://www.internetworldstats.com)

7. OECD. (2022). Global Competency for an Inclusive World. [www.oecd.org](http://www.oecd.org)



## SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA B2 DARAJASIDAGI O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Kabulova Tumaris Xojabaevna**

Ajiniyoz nomidagi

Nukus davlat pedagogika instituti

tayanch doktoranti

telefon: +998971212345

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanib, B2 darajasidagi chet tilini o'rganayotgan o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning samarali metodik yondashuvlari yoritiladi. Metodik asoslar CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) talablariga tayanadi hamda zamonaviy texnologik vositalar asosida taklif etilgan. Shuningdek, maqolada eksperimental tadqiqot natijalari ham ko'rib chiqilgan bo'lib, ular orqali amaliy natijalar asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, kommunikativ kompetensiya, B2 daraja, chet tili, metodika, til o'rgatish, interaktiv o'qitish, texnologik yondashuv.

Zamonaviy ta'lim tizimida chet tillarini o'rganishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, B2 darajasi til o'rganuvchilar uchun yuqori darajadagi ijtimoiy va akademik muloqotda qatnashish imkoniyatini yaratadi. So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari ushbu jarayonga faol tatbiq etilmoqda va metodik yondashuvlarda yangiliklar kiritilmoqda. Har bir o'quvchi uchun individual yondashuv talab etiladi va bunda sun'iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan o'quv dasturlarini yaratish imkoniyati mavjud.

### 1. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi

Kommunikativ kompetensiya deganda tilni muloqot jarayonida to'g'ri, mos va erkin qo'llay olish qobiliyati tushuniladi. Bu kompetensiya nutqiy, sotsiolingvistik, pragmatik, madaniy va strategik ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. CEFR mezonlariga ko'ra, B2 darajadagi o'quvchilar ancha murakkab muloqotda mustaqil ravishda ishtirok eta oladi, o'z fikrini asoslaydi va tushunarli tarzda bayon qiladi.

### 2. Sun'iy intellekt imkoniyatlari

Sun'iy intellekt asosidagi dasturlar (ChatGPT, Duolingo, ELSA Speak, Grammarly, Speakly va boshqalar) quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Shaxsiylashtirilgan mashg'ulotlar orqali har bir o'quvchining ehtiyojiga mos yondashuv;

Real vaqtda tahlil va teskari aloqa, xatolarni aniqlash va tuzatish;

Ovoz va matn asosida muloqot qilish orqali talaffuz va nutq rivoji;

Nutq va yozuv ko'nikmalarini avtomatik baholash va reytinglash;

Interaktiv mashqlar orqali mustahkamlash va takrorlash imkoniyati;

O'quvchining rivojlanish trayektoriyasini kuzatish va tavsiyalar berish.

### 3. B2 darajasiga mos metodik yondashuvlar

B2 darajadagi o'quvchilarga quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

Sun'iy intellekt orqali taqdim etilgan vaziyatli dialoglar asosida mashqlar, ya'ni real hayotiy vaziyatlarga asoslangan suhbatlar orqali til o'rgatish;

SI yordamida yozma topshiriqlarni avtomatik tahlil qilish va grammatika, uslubiy xatolarni ko'rsatish;

Virtual suhbatdoshlar orqali og'zaki muloqotni takomillashtirish, bu orqali ijtimoiy muloqotga tayyorgarlik;

SI asosida muammoli vaziyatlarni hal etish bo'yicha interaktiv topshiriqlar, masalan, mehmonxonada bron qilish, aeroportda suhbat, ish intervyulari;

O'yinli ta'lim (gamification) asosida rag'batlantiruvchi va qiziqarli topshiriqlar yaratish.

### 4. Amaliy tajriba va tahlil

Bir guruh B2 darajadagi o'quvchilar ishtirokida olib borilgan eksperimentda ChatGPT platformasi asosida haftalik mashg'ulotlar tashkil qilindi. 2 oy davomida og'zaki nutq, yozma fikrlash va interaktiv muloqot ko'nikmalari sezilarli darajada o'sdi. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarga har xil turdagi mashqlar, jumladan, muloqot ssenariylari, insho yozish, fikr bildirish va bahs-munozaralarda ishtirok etish topshiriqlari berildi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, 85% ishtirokchi sun'iy intellekt yordamida o'zining kommunikativ



faolligi oshganini ta'kidlagan. Shuningdek, baholash natijalari asosida grammatik xatolar soni kamaygani, talaffuz aniqroq bo'lgani va fikr bayon qilish silliqqligi oshgani kuzatildi. O'quvchilar sun'iy intellekt yordamida xatolarini mustaqil tahlil qilishni o'rgandilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak sun'iy intellekt imkoniyatlari B2 darajasi o'quvchilari uchun kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Uning yordamida shaxsiylashtirilgan, interaktiv va teskari aloqaga boy mashg'ulotlar tashkil qilish mumkin. Bu esa zamonaviy ta'limda yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Metodik yondashuvlar zamonaviy texnologiyalarga asoslangan bo'lib, o'quvchilarni tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularga o'z fikrini erkin ifoda etish, turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali muloqot qilish imkoniyatini beradi. Kelajakda sun'iy intellekt imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish, uni o'quv dasturlariga integratsiya qilish va pedagoglar uchun treninglar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages (CEFR). 2020.
2. Saparniyozova, G. (2022). Chet tilini o'qitishda raqamli texnologiyalar. Toshkent: TDPU Nashriyoti.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
4. Sodiqov, A. (2021). Til o'qitish jarayonida sun'iy intellektning roli. O'zbek tilshunosligi jurnali.





**O'QITUVCHILARDA MEDIASAVODXONLIK KO'NIKMALARINI  
TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDOSHUVLARI**

**Olimov Talat Shavkatovich**

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning mediasavodxonlik ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega. Mediasavodxonlik, ya'ni axborot va media resurslarini tanlash, tahlil qilish, baholash va foydalanish qobiliyati, o'quvchilarga zamonaviy axborot muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarurdir. Ushbu maqolada o'qituvchilarda mediasavodxonlik ko'nikmalarini takomillashtirish usullari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** mediasavodxonlik, mediasavodxonlik ko'nikmalari, o'qituvchi, zamonaviy yondoshuvlar.

**Аннотация.** Навыки медиаграмотности учителей важны в современной системе образования. Медиаграмотность, то есть умение отбирать, анализировать, оценивать и использовать информацию и медиаресурсы, необходима студентам для успешного функционирования в современной информационной среде. В данной статье рассматриваются способы повышения уровня медиаграмотности учителей.

**Ключевые слова:** медиаграмотность, навыки медиаграмотности, учитель, современные подходы.

**Abstract.** In the modern education system, teachers' media literacy skills are of great importance. Media literacy, that is, the ability to select, analyze, evaluate and use information and media resources, is necessary for students to successfully operate in the modern information environment. This article considers methods for improving teachers' media literacy skills.

**Keywords:** media literacy, media literacy skills, teacher, modern approaches.

Bugungi kunda ta'lim tizimida rivojlanishning asosiy tendensiyalari jumlasida axborotlashgan jamiyatga o'tish, barcha jabhalarda media vositalaridan foydalanishning axborot texnologiyalari amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Pedagoglarda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish, globallashtirish va axborot makonining ochiqligini ta'minlash yangi bilimlar, qarashlar, faktlar, konsepsiyalarni yaratish, medialar orqali tarqalayotgan axborotlar hamda axborot muhitini mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish asosida takomillashtirishga qaratilgan yirik loyihalarni tadbiiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Mediasavodxonlik - bu shaxsning axborot manbalarini tanlash, tahlil qilish, baholash va ulardan samarali foydalanish qobiliyati. O'qituvchilar uchun bu ko'nikma, o'quvchilarga to'g'ri va ishonchli axborotni yetkazishda, shuningdek, ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatishda muhimdir. Mediasavodxonlik media funksiyalarini tushunish, mazkur funksiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o'z-o'zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg'u beradi.

Mediasavodxonlik – media ta'limning natijasidir.

Media ta'lim ommaviy axborot vositalarining zararli ta'siri va tendensiyalaridan himoya qilish vositasi sifatida paydo bo'lgan. Ushbu paradigmadan birinchi bo'lib 1930-yillarda Buyuk Britaniya foydalangan. Buyuk Britaniya va Avstraliyada mediasavodxonlik gumanitar fanlar majmuasiga alohida kurs sifatida kiritilgan. Finlandiyada media va axborot savodxonligi yo'nalishi 1970-yillardan boshlab maktab va universitetlar o'quv dasturlariga kiritilgan. Mediata'lim komponenti maktab programmasiga birinchi bor kiritilganda mustaqil fan sifatida emas, balki ona-tili, tarix, estetik fanlar va ekologiya fanlariga integratsiya qilingan. 2021-yilda e'lon qilingan Mediasavodxonlik indeksiga ko'ra, Finlandiya "yolg'on xabarlar va dezinformatsiyaning salbiy ta'sirlariga qarshi turishda eng yuqori salohiyatga ega mamlakat" sifatida e'tirof etilgan va indeksda birinchi o'rinni egallagan. Shvetsiyada mediata'lim 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan. Mediata'limni joriy etishdan asosiy maqsad yoshlarda ommaviy axborot vositalarining xabarlarini tanqidiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, turli xil ma'lumotlar manbalaridan olingan xabarlar haqida o'z fikrini shakllantirish, shuningdek, tomosha qilingan filmlar va teledasturlar haqida o'z fikrini bildirish qobiliyatini shakllantirish bo'lgan. 2000-yilning kuzidan boshlab mediata'lim Shvetsiya milliy o'quv dasturiga rasman kiritilgan.



Ayrim mamlakatlarda media ta'limni qo'shimcha ravishda amaliy, me'yoriy kiritish ba'zi fanlarni o'rniga yoki ular o'rtasidagi oraliq fan sifatida o'qitishga qaror qilingan, ya'ni, darsdan tashqari vaqtda maktab gazetalar va jurnallari, radio eshittirishlar va audiovizual mahsulotlari yaratiladi. Yaratish jarayonida ishtirokchilar mediadan foydalanishning turli usullari bilan bevosita tanishish imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

Mediasavodxonlikni rivojlantirish bo'yicha metodik yondashuvlarni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish mumkin:

Trening va seminarlar: Mahalliy va xorijiy mutaxassislar ishtirokidagi treninglar va seminarlar tashkil qilish; Interfaol mashqlar va master-klasslar o'tkazish; Tajriba almashish bo'yicha xalqaro forum va konferensiyalar tashkil etish.

Fanlararo integratsiya: O'quv dasturlariga mediasavodxonlik elementlarini kiritish; Fanlararo loyihalarni amalga oshirish orqali mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish.

Onlayn va elektron ta'lim: Mediasavodxonlikka oid ochiq ta'lim resurslarini yaratish va tarqatish; Vebinarlar, masofaviy kurslar orqali mediasavodxonlik bo'yicha doimiy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish.

O'qituvchilarning mediasavodxonligini rivojlantirish uchun quyidagi metodlarni qo'llash tavsiya etiladi:

- Axborot manbalarining haqiqiylikni tekshirish texnikalari;
- Media kontentni tanqidiy va tahliliy jihatdan baholash uchun mashqlar;
- Case-study (holat tahlili) metodidan foydalangan holda, real media-holatlarni tahlil qilish;
- Raqamli vositalardan foydalangan holda media mahsulotlarini yaratish va tahlil qilish;
- Guruh ishlarini tashkil qilish orqali o'zaro tajriba almashish va jamoaviy fikrlashni rivojlantirish.

O'qituvchilarda mediasavodxonlik ko'nikmalarini takomillashtirish, zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismidir. Professional rivojlanish dasturlari, onlayn resurslardan foydalanish, hamkorlik va tajriba almashish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va amaliy mashg'ulotlar orqali o'qituvchilar mediasavodxonlik ko'nikmalarini oshirishlari mumkin. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarning axborot muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlariga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ya.Mamatova, S.Sulaymanova. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyot yo'lida. O'quv qo'llanma. Extremum-press, 2015-94.b.
2. A.B. Федоров. Медиаобразования и медиаграмотность. Учебное пособие. М. 2018 г.
3. Suvi Tyuminen, Sirkku Kotilainen, Anniina Lundvall., Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O'quv-amaliy qo'llanma. - Extremum-press, 2017-142.b
4. Yahyo, Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. Yordamchi o'quv qo'llanma. Movarounnahr, 2016.-672 b.
5. Ахметова Л.С. Медиаобразования и медиаграмотность: теория, методология, практика. Учебное пособие. КазГУ. 2016 г.
6. Судич Ю.В., Проказин В.В. Роль социальных сетей в жизни молодежи. М. 2019.



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA AKT  
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY VOSITALARI**

**Abdusamatova Shaxodat Xojiakbar qizi,  
Fozilova Gulruh Mahmudjonovna**

UNICON.UZ ilmiy xodimi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi,  
tel: +998(93) 375 42 15, e-mail: abdusamatovashahodat@gmail.com

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini dars jarayoniga qiziqtirish, mashg'ulotni samarali va mazmunli tashkil etish maqsadida foydalaniladigan AKT vositlarining qisqacha tasnifi keltirilgan

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, samaradorlik, natijaviylik

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T: «O'zbekiston», 2009, 15-bet.
2. Umida Mamadjonova “Boshlang'ich sinfdan o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish usullari” Namangan shahar 48-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.



## KIMYO FANINI O'QITISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISH

**Bekjanova Inobat Madiyarovna.**

Xiva tumani, 39- son maktabning kimyo  
fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu ishda kimyo fanini o'qitishda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati, maqsadi va tashkil etish shakllari yoritilgan. Fan to'garaklari, amaliy tajribalar, viktorinalar, ilmiy loyihalar va ekskursiyalar orqali o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va ularda mustaqil izlanish ko'nikmalarini shakllantirish muhimligi ko'rsatib berilgan. Sinfdan tashqari faoliyatlar nafaqat o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning amaliy va ilmiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Sinfdan tashqari ishlar, fan to'garaklari, ekskursiyalar, viktorinalar.

Maktablarda kimyo fanini o'qitishda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish eng muhim tadbirlarning biridir. Ilg'or o'qituvchilar qiziqarli kimyo kechasi oldiga ma'lum bir g'oyani maqsad qilib qo'yadilar. O'quvchilar kecha davomida bu g'oyani o'z tinglovchilarining saviyasiga muvofiq ravishda sekin-asta hal qilib beradilar, ilmiy tushunchalarni hamda hodisalarning mohiyatini asoslab beradilar, har qaysi demonstratsiyani izohlab beradilar. Bunday kechada tinglovchilar qiziqarli ko'pdan-ko'p faktlar bilan tasdiqlangan bir qator ilmiy qonun-qoidalarini bilib oladilar.

**Kimyo fanini o'qitishda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish** - bu o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni oshirish, bilimlarini chuqurlashtirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik faoliyatdir. Quyida bu borada asosiy yo'nalishlar va usullar keltirilgan:

**Sinfdan tashqari ishlarning maqsadi:** O'quvchilarda kimyo faniga qiziqish uyg'otish, mustaqil fikrlash, izlanish va tajriba o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va rag'batlantirishdan iborat. Tashkil etish shakllari quyidagicha:

**1) Fan to'garaklari:** Maktablarda haftada ikki kun, har oyda 4 marta o'tkaziladi. Turli mavzularda chuqurroq tahlil, tajribalar, kimyoviy reaksiyalarni muhokama qilinadi O'quvchilarni ilmiy loyihalarga tayyorlashga ko'mak beriladi.

**2) Tajriba va laboratoriya mashg'ulotlari (qo'shimcha mashg'ulotlar)** Laboratoriyada mustaqil ishlarni bajarish ko'nikmalari shakllantirish, Turli tajribalar o'tkazish. Mahalliy xomashyolar bilan tajribalar qilish (masalan: osh tuzi, sirka, kislotalar, shakar va b).

**3) Kimyo viktorinalari va musobaqalar:** Turli to'garaklar a'zolari o'rtasida "Zakovat" turnirlari, "Eng yaxshi kimyogar", "Kimyo bilimdoni" kabi tanlovlar. Guruhlar o'rtasida savol-javob va tezkor reaksiyalar musobaqalari tashkil qilish.

**4) Ilmiy konferensiyalar va loyihalar.** O'quvchilar mustaqil ravishda kimyo bilan bog'liq muammolar bo'yicha izlanish olib boradi. Taqdimotlar, plakatlar, slaydlar tayyorlab, sinf yoki maktab miqyosida himoya qiladi.

**5) Ekskursiyalar.** Kimyo zavodlari, laboratoriyalar, suv tozalash inshootlariga tashrif. Ishlab chiqarishdagi kimyoviy jarayonlarni kuzatish.

"Kimyo mo'jizalari kechasi" senariysini na'muna sifatida keltiramiz.

Maqsad: O'quvchilarda kimyo faniga bo'lgan qiziqishni oshirish, ularni ilm-fan mo'jizalari bilan tanishtirish, bilim va iqtidorlarni namoyish qilish.

Ishtirokchilar: 6-10-sinf o'quvchilari, kimyo o'qituvchisi, boshlovchilar, tajriba guruhi. Boshlovchi: - Assalomu alaykum, aziz ustozlar, mehmonlar va bilimga tashna o'quvchilar! Bugun biz siz bilan ajoyib ilm olamiga - Kimyo mo'jizalari kechasiga sayohat qilamiz!

"Sahna ko'rinishi" (2-3 o'quvchi "Mendeleyev", "Mariya Kyuri", kabi mashhur kimyogarlarning rolini o'ynaydi)

Mendeleyev: - Men unsurlar tartibini tush ko'rib kashf qilganman. Kimyo tartib va qonuniyatlardan iborat! "Ilm urug'inini eksang -elga hosil berur". Mariya Kyuri: Radioaktivlikni kashf etdim, bu fan nafaqat xavfli, balki insoniyat uchun foydali ham bo'lishi mumkin!

"Kimyoviy tajribalar shousi"-(O'quvchilar 3-4 ta xavfsiz va qiziqarli tajriba) Misollar: Rang o'zgarishi (indikatorlar bilan), "Ko'pikli favvora" - vodorod periksid va kaliy yodid reaksiyasi "Olovli pufakchalar" - metan + sovun pufaklari.

Tajriba boshlovchisi: -Hozir biz sizlarga kimyoviy reaksiyaning qanday energiya chiqarishini



ko'rsatamiz. Diqqat bilan kuzating!

Boshlovchi: -Bugungi kechamiz – ilm-fanga hurmat, kimyoga muhabbat kechasi bo'ldi. Har biringizda kelajak olimi yashirinib yotganini unutmang! Ilmni sevgan – kelajakni yutadi! Diqqat-e'tiboringiz uchun rahmat!

Xulosa qilib aytganda, kimyo fanini o'qitishda sinfdan tashqari ishlar — ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan fan to'garaklari, laboratoriya ishlari, tanlovlar va ekskursiyalar orqali o'quvchilarning nazariy bilimlari mustahkamlanadi, ular kimyoviy jarayonlarni chuqurroq anglaydi va mustaqil ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Shuningdek, sinfdan tashqari faoliyatlar orqali iqtidorli o'quvchilar aniqlanadi va ular bilan individual ishlash imkoniyati yaratiladi. Shu bois, har bir kimyo o'qituvchisi sinfdan tashqari ishlarni o'zining o'quv-uslubiy faoliyatining ajralmas qismi sifatida qarashi lozim deb hisoblayman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A., Pedagogik texnologiya asoslari. Qo'llanma. - T.: «O'qituvchi», 2004.
2. Sayidaxmedov N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: O'zMU 2005
3. Internet saytlari.





## МАТЕМАТИКА ФАНИНИ О'QITISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH

**Matniyazova Zebo Otabekovna.**

Xorazm viloyati, Xiva tumanidagi

39-son maktabning “Boshlang'ich ta'lim” fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi va dars mashg'ulotlarida didaktik materiallardan foydalanish haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

**Kalit so'zlar:** Metodika, interfaol, samaradorlik, didaktik materiallar, “Yashirin son”, “Mametamik rebus”, “Matematika yulduzi”

Matematika so'zi grekcha “mathema” so'zidan olingan bo'lib, ma'nosi “fanlarni bilish” demakdir. Matematika fanining o'rganadigan ob'ekti fazoviy shakllar va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratdir. Maktab matematika kursining maqsadi o'quvchilarga ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik bilimlar tizimini berishdan iboratdir. Bu matematik bilimlar tizimi ma'lum usullar (metodika) orqali o'quvchilarga yetkaziladi. “Metodika” grekcha so'z bo'lib, “metod” degani “yo'l” demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikadan samarali ta'lim berilishi uchun o'qituvchi boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallab, chuqur o'zlashtirib olmog'i zarur. Matematika boshlang'ich ta'lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

**1.** Matematika o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadni asoslash (Nima uchun matematika o'qitiladi, o'rgatiladi). **2.** Matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimani o'rgatish) bir tizimga keltirilgan bilimlar darajasini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib qanday taqsimlansa, fan asoslarini o'rganishda izchillik ta'minlanadi. **3.** O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o'qitish kerak, ya'ni, o'quvchilar hozirgi kunda zarur bo'lgan iqtisodiy bilimlarni, malaka, ko'nikmalarni va aqliy faoliyat qobiliyatlarini egallab olishlari uchun o'quv ishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak? **4.** O'qitish vositalari – darsliklar, didaktik materiallar, ko'rsatmali, qo'llanmalar va o'quv- texnik vositalaridan foydalanish (nima yordamida o'qitish). **5.** Ta'limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish.

Matematika o'qitish metodikasi haqidagi tushuncha birinchi bo'lib Shveytsariyalik pedagog matematik G.Pestalosining 1803-yilda yozgan “Sonni ko'rgazmali o'rganish” asarida bayon qilingan. Boshlang'ich ta'lim haqida ulug' mutafakkir Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar ta'lim va tarbiya haqidagi hur fikrlarida boshlang'ich ta'lim asoslarini o'rganish muammolari haqida o'z davrida ilg'or g'oyalarni olg'a surganlar.

**Boshlang'ich sinflarda matematika fanidan didaktik materiallardan foydalanish.** Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda, turli interfaol metodlar, qiziqarli didaktik o'yinlarni qo'llash o'quvchilarni fanga qiziqishini oshiradi, darsning samarali bo'lishi imkoniyatlarini beradi.

Quyida boshlang'ich sinflarda, matematika o'qitishning turli didaktik metodlari bayon qilingan. **“Yashirin son” o'yini:** O'qituvchi bitta satr yoki ustundagi 4 ta sonni aytadi, bittasini yashiradi. O'quvchilar yig'indisi 65 ekanini bilgan holda, yashirin sonni topishadi. Misol uchun:  $17 + \quad + 1 + 8 + 15$  yig'indi = 65 ga teng. Yulduzchada qaysi son yashiringanligini toping. Javob= 24.



Yoki o'qituvchi mavzuga oid topshiriqlarni oldindan tayyorlab keladi. Misol tariqasida qo'shish va ayirishga oid misollar..

Qo'shish misollari: **1.**  $34 + 25 =$  **2.**  $67 + 18 =$  **3.**  $123 + 45 =$

Ayirish misollari: **1.**  $86 - 35 =$  **2.**  $220 - 143 =$  **3.**  $300 - 189 =$

Misollarning javoblari yozilgan, ammo ustiga yulduzchalar bilan to'sib qo'yilgan. O'quvchilar misollarni tog'ri yechishsagina, yulduzchalarni qo'lga kiritishadi. Dars so'ngida kim ko'p yulduzcha toplagan bo'lsa, **“Matematika yulduzi”** unvoniga ega bo'ladi. Bu metodni kichik guruhlar bilan olib borsa ham bo'ladi.

**“Matematik rebuslar” metodi.** Bu metod o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, diqqatlarini jamlashlariga va xotirani mustahkamlashga ko'makchi bo'ladi. Misol tariqasida,



**1-rebusning yechimini taxlil qilamiz.** 3 ta olma 120 gramm deylik, demak  $120:3=40$ . 1ta olma va 4 ta banan 100 gramm.  $100-40=60$   $60:2=30$   $30:2=15$ . Har bitta banan 15gramm kelar ekan, 3 tasi  $15+15+15=45$ gr bo'ladi.  $45+40(\text{olma})=85$ .  $105-85=20$  olxo'ri 20 gramm va 1 banan 15 gramm ekanligini bilgan holda oxirgi misolni chiqaramiz.  $15+20=35$ . Javobi: 35 ekan. Demak, shu tariqa rebusli o'yinlar tashkil qilishda o'qituvchidan darsdan oldin tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Bu metodni 5,6 o'quvchidan iborat kichik guruhlarda tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida shu aytish joizki, boshlang'ich sinfda matematika bolalarning ongi, nutqi va savodxonligi rivojlanishiga yordam beradi. Matematika darslarida o'quvchilar yakka holda, juft-juft va guruhlarda ta'lim oladilar va tarbiyalanadilar. Ushbu jarayonda o'quvchilar matematikadan dastlabki boshlang'ich bilimlarni egallaydilar. Bu bilimlarni egallash bolalarda hayotiy tasavvurlarini va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Alixonov Matematika o'qitish metodikasi. Toshkent-2017
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent -2006
3. Tolipov O'. Q. Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: "Fan". 2005.



## MEVALI DARAXTLARNI PAYVANDLASH TEXNOLOGIYASI

**Matniyazova Zevarjon**

Xiva tumanidagi 39-son maktabining  
“Texnologiya” fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Siz ushbu maqola orqali bog‘ dorchilikda mevali daraxtlarni hosildorligi yaxshilashida muhim o‘rin tutuvchi payvandlash agrotexnikasi va payvandlash turlari haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lasiz.

**Kalit so‘zlar:** Mevali daraxt, agrotexnik, payvandlash, payvandtag, payvandust, ko‘paytirish, Iskana payvandlash.

Inson mehnat bilan shug‘ullanishni hosil qilish bilan bog‘liq rivojlanish davridanoq kuchli va kam hosil daraxtlarni va kam hosil daraxtlardan bog‘larni hosil qilish mumkin. Urug‘dan ko‘paygan daraxtlar jinsiy usulda ko‘paygan hisoblanib, ota-ona daraxtga qisman o‘xshash bo‘lsada, ular doimo bir-biridan ajralib turgan. Vaqt o‘tishi inson bog‘dorchilik bilan sirlarini chuqurroq o‘rganib, o‘zi xohlagan (odatda, serhosil va chidamli) daraxtning aynan o‘ziga xos turlarini etishtirish yo‘lini kashf qildi. Mevali daraxtlarni payvand qilish bahorgi eng muhim agrotexnik tadbirlardan biridir. Bu haqiqiy jarrohlik amaliyoti hisoblanib, jarayon mobaynida o‘simlikning bir qismi boshqa bir o‘simlikning tanasiga qo‘shilishi va uyg‘unlikdagi hosilni olishga erishish uchun ko‘chirish ishlari o‘tkaziladi. Mevali daraxtlarni payvand qilishning ko‘plab usullari mavjud. Daraxt navini aynan o‘ziga o‘xshagan turini ishlab chiqarishning ikki usuli mavjud bo‘lib, bir qalamchalar orqali ko‘paytirishdir. Oddiy qilib aytish, ko‘paytirilishi lozim bo‘lgan daraxt shoxlaridan qalamchalar ajratiladi. Payvandlashdan oldin siz sog‘lom, yaxshi rivojlangan shoxni tanlashingiz kerak. Uning yoshi kamida bir yil bo‘lishi lozim. Iskana payvandlash usulidan asosan mevali daraxtlarni payvand qilishda foydalaniladi.

O‘simlikni payvandlash yo‘li bilan ko‘paytirish uchun, daraxtning tuproq sathidan teparoq joydagi silliq poyasi tanlanadi. Payvandust o‘ziga turdosh yoki turiga yaqin bo‘lgan boshqa bir ko‘chat asosi (payvandtag) bilan birlashtiriladi.



Payvand uchun mo‘ljallangan ko‘chatdan qalamcha kesib olinib, unda 3 ta kurtak qoldiriladi. Ushbu qalamchani maxsus qaychi bilan kesish lozim. Keyin, payvandtagda u uchun mo‘ljallangan joyga joylashtiriladi. Bu yerda payvand qalamchasi va payvandtagning bir-biriga mos kelishi juda muhimdir. Agar hamma amaliyot to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, o‘simlik yaxshi o‘sadi va rivojlanadi. Payvandlangan joy yelim lenta bilan havo kirmaydigan darajada chambarchas bog‘lanadi. Payvand qilingan qalamcha o‘tib, 40-50 santimetrga yetganda, bog‘langan yelim lentani kesib yuborish kerak. Butun payvandlash amaliyotida zaxiradan ortiqcha novdalar olib tashlanadi.



Daraxtlarni iskana payvand qilish keksaygan bog'ni yangilashning eng oson va ko'p qirrali usullaridan biridir. Ushbu usul bog'bonlar tomonidan daraxtlarni tabiatning turli xil inijliklariga "immunitetini" oshirish uchun ham qo'llaniladi. Bundan tashqari, payvandlash hosildorlikni oshirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda barcha mevali daraxtlar hamda ko'plab manzarali daraxtlar vegetativ usullar orqali ko'paytirilmoqda. Chunki bu usulda o'rnatilgan ko'chatlar o'z ota-ona daraxt naviga xos barcha xususiyatlarni o'zida saqlab qo'yadi. Yaratilgan navlar, odatda, hosil yuqoriligi, sifati, shakli, guli va bargi, hamda zararkunanda va hosilga qarshi kurashiligi bilan ajralib turadi. Bu sifatlar shu nav meva urug'idan unib chiqqan ko'chatlarda uchramaydi. Ya'ni, tabiat urug'idan ko'chatlarda uchramaydi. Urug'dan unib chiqqan ko'chatlarning yana bir kamchiligi bu hosilga kech kirishidir. Payvand qilish orqali payvandtag va ko'paytirilishi lozim bo'lgan nav qalamchasi o'zaro birikuv muvafaqqiyati ta'minlanadi. Bog'bonlar tilida bu "Umumiy jarohatlarning birgalikda bitishi" ham deyiladi. Jarohatlarning bitishi, ular atrofida, asosan, kambiy tufayli, yog'och va po'stloq qismidan ajrala oladigan kambiy po'stloq to'qimalarning paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Kambiy bu – yog'och va po'stloq qism o'rtasida joylashgan hujayralar qatlami bo'lib, yillik o'sish mana shu hujayralardan boshlanadi. Payvandust yoki payvandtag kesilganda kambiy qatlami po'stloq va yog'och tutashuv joyida ko'rinib turadi. Barcha payvand usullarida payvandust va payvandtag kambiy qismlarining o'zaro jipslashuvini ta'minlash kerak. Shundagina payvand amalga oshirilgan hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa, Turkey <https://econferencezone.org> June 10th 2022
2. Bo'riyev X.Ch. Havaskor bog'bonlarga qo'llanma. - T., 1987 yil.
3. Mirzaev M.M., Sobirov M.K. Bog'dorchilik., - T., 1987 y.
4. Ribakov A.A., Ostroukova S.A. O'zbekiston mevachiligi. T., 1967 yil.





## GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLANISHISHI

**Matyakubova Muhabbat Agabayevna.**

Xorazm viloyati, Xiva tumani, 39-maktab

Geografiya fani o'qituvchisi

Telefon: +99899 963 95 35

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda, Geografiya fanini o'qitishda qo'llanishi mumkin bo'lgan ilg'or pedagogik texnologiya turlari va ulardan foydalanishning afzalliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ilg'or pedagogik texnologiyalar, "Atamalar bilan ishlash" metodi, "To'g'ri top" metodi, "Xayoliy sayohat" metodi, "Pochtalon" metodi, "Mazaika" metodi. "Kim alpist" metodi

Ta'lim jarayoniga innovatsion va interfaol metodlarni tadbiq etishga qiziqish yil sayin ortib bormoqda. Sababi, bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligini va ta'sirchanligini, o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi.

Ta'lim jarayonida innovatsion va ilg'or pedagogik metodlardan foydalanib, dars olib borishda eng avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqarilishi zarur.

Pedagogik jarayonda, o'quvchilarning faol holatni egallashi ta'lim berishda yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi. Buning uchun o'quv jarayonining barcha tashkiliy jihatlarida o'quvchilar o'qishga bo'lgan intilish, qiziqish uchun asos (*motiv*)ni shakllantirish kerak.

O'qituvchi o'quvchilarni darslarda faol bo'lishiga, o'zi va o'rganuvchilar uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari metodlarini izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga suyanib, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga harakat qiladi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishiladi.

Geografiya fanini o'qitishda, quyidagi ilg'or pedagogik texnologiyalar (*metodlar*)dan foydalanilsa, ta'lim jarayonida samaradorlikka erishish mumkin.

**"Atamalar bilan ishlash"** metodi. Bu usuldan foydalanishda, o'quvchilarda o'z ustida mustaqil ishlash va izlanuvchanlikka imkon beradi.

**G-** globus, gayzer

**I-** iqlim, irmoq

**D-** daryo, dengiz

**R-** relyef, rayon

**O-**okean, orol

**S-**seyshmik, seymagramma

**F-**fluger, fasl

**E-**endogen, ektogen

**R-**riftogen, ramzlar

**A-** azimut, aholi

**"To'g'ri top"** metodi. Bu metodni geografiya darslarida, 5-6 sinf o'quvchilariga qo'llash darsning samarali bo'lishiga ko'mak beradi. Dars mavzusiga mos ravishda o'quvchilarga 10-15 ta tasvirli chizma tarqatiladi. Masalan, tog', vulqon, daryo, orol, ayzberg, yaylov, cho'l yoki kartadagi biror shartli belgining rasmi bo'lishi mumkin. O'quvchilar 10 daqiqa davomida, qo'llaridagi rasmlarni og'zaki yoki yozma shaklda izohlab berishlari kerak bo'ladi. Javoblar aniq va puxta berilganligiga qarab g'oliblar aniqlanadi va baholanadi.

**"Xayoliy sayohat"** metodi. Bu metodni kichik guruhlariga bo'linib, o'tkazish mumkin. Har guruhdan bittadan o'quvchi chiqib, globusni aylantiradi va aylanayotgan globusni barmog'i yordamida to'xtadi. O'quvchini barmog'i turgan davlat aniqlanadi va o'sha guruh o'zlari tanlagan davlatga hayoliy sayohat qilishadi. Ya'ni bu davlatning joylashgan o'rni, tabiati, urf odatlari, iqtisodiyoti va boshqa ma'lumotlarni yozishadi yoki og'zaki javob berishadi. Qaysi guruh to'g'ri, aniq va ko'proq ma'lumotlar bersa, o'sha guruh g'olib sanaladi.

**"Pochtalon"** metodi. Bu metodni asosan 6-sinflarda o'tkazish maqsadga muvofiq. O'qituvchi bir nechta (mavzuga mos) konvert olib, uning ustiga mavzu yozib qo'yadi. Masalan, 6 ta konvertga: "Afrika", "Antarktida", "Avstraliya", "Janubiy Amerika", "Shimoliy Amerika", "Yevrosiyo" deb yozib, doskaga ilib qo'yiladi. Keyin bu materiklarda joylashgan, ko'l, daryo, shahar, cho'l, to'g', davlat, tekislik va boshqalar yozilgan kichik kartoshkalar tarqatiladi. Qaysi nom qaysi materikka mos





kelsa, o'quvchi o'sha materik nomi yozilgan konvertga solishi kerak bo'ladi. Kim kartoshkalarni to'g'ri va ko'p joylashtirgan bo'lsa, o'sha o'quvchiga yuqori ball beriladi. Bu metodni kichik guruhlariga bo'lingan holda ham o'tkazish mumkin.

**“Mazaika”** metodi. Bu metodni 6-7-8 sinflarda qo'llash tavsiya etiladi. O'quvchilar, o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan yozuvsiz xarita kesmalarini mos qilib to'g'ri joylashtirishlari va qaysi materik yoki davlat ekanligini aniqlashlari kerak bo'ladi. Masalan, etik shaklini eslatuvchi davlat- Italiya kabilar....

**“Kim alpist”** metodi. Bu metodda, o'qituvchi tomonidan, mavzu yoki bob yuzasidan qisqa savollar tuzadi. Savollar doskaga yoki katta qo'g'ozga ikki tomon (o'ng va chap) burchak shaklida tuzib chiqiladi. O'quvchilar ikki guruhga bo'linishadi va savollarni birin ketin olib javob berishadi. Qaysi guruh 1 bo'lib tepadagi oxirgi savollarga javob bera olsa, o'sha guruh g'olib deya e'lon qilinadi. Quyida savollarga misollar keltiramiz.

1. Dunyoning eng baland tog'i qanday nomlanadi? Javob: Mount Everest
2. Dunyo okeanlarining eng katta okeani qaysi? Javob: Tinch ocean
3. Yer yuzining qancha foizi suv bilan qoplangan? Javob: 71%
4. Dunyoning eng uzun daryosi qanday nomlanadi? Javob: Nil daryosi
5. O'zbekistonning eng katta ko'li qanday nomlanadi? Javob: Orol dengizi

Xulosa o'rinda shu takidlab o'tish lozimki, geografiya darslarda yuqorida ko'rsatilgan ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim jaraonini sifatli qilibgina qolmasdan, balki o'quvchilarning o'z ustida ishlashlariga izlanuvchanlikka undaydi, mavzuni chuqurroq o'rganishlari va sifatli ta'lim olishlariga ko'makchi bo'ladi, eng asosiysi, ta'limda yuqori samaradorlikka erishiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A., Pedagogik texnologiya asoslari. Qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 2004.
2. “Maktabda Geografiya” ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy jurnali. 2013-yil, 10-soni.



## АРХИТЕКТУРА ВА ДИЗАЙН ЙЎНАЛИШИ РИВОЖЛАНИШИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### TALABALARGA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISHNING ASOSIY VAZIFALARI

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Ilmiy rahbar: Ibragimov A.R  
Talaba: Ilyashev Xurshid Baxtiyor o'g'li

**Annotatsiya.** Ushbu maqola talabalarga “Kompyuter grafikasi” fanini o'qitishning asosiy vazifalariga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** konstruksiyalash, kompyuter grafikasi, muhandis-konstruktor

Hozirgi kunda jaddallashib borayotgan texnika asrida o'quv dargohlarida yangi pedagogik axborotlar bilan mashg'ulotlar o'tkazish, yanada samarali va qiziqarli o'tmoqda. Professor-o'qituvchilarimiz ma'ruza, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlar mavzularini yangi pedagogik axborotlarni qo'llash bilan bir qatorda pedagogik mahoratlarini ham oshirmoqdalar.

Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so'nggi yillarda respublikamizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi va davom etmoqda. Zotan, rivojlangan jamiyat qurish, fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan yuqori darajadagi texnikaviy yechimlarni loyihalash, yuksak texnologik qurilmalar konstruksiyalarni yarata oladigan ijodkor mutaxassislar yetishtirish ta'lim taraqqiyotiga bevosita bog'liqdir. Hususan, ishlab chiqarishga ijodkor muhandis-konstruktorlar yetkazib berish respublikamizda bir qancha oliy texnika ta'limi muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy texnika ta'lim tizimida grafik ta'lim mazmunini takomillashtirish va o'qitishning sifat samaradorligini oshirish bo'yicha ham bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Hozirgi tahlil natijalaridan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, grafik ta'limni takomillashtirish va bu sohaga kompyuter texnikasini qo'llash bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilganligiga qaramasdan, grafik ta'limni zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash asosida intensivlash muammosining pedagogik asoslari va didaktik shart-sharoitlari ishlab chiqilmaganligi muammoning dastlabki holatini o'rganish bo'yicha biz o'tkazgan o'rganuv-tasdiqlovchi pedagogik tajriba-sinov ishlari to'liq tasdiqlandi.

Bugungi zamonaviy texnika ishlab chiqarish ko'p vaqt va og'ir qo'l mehnatini talab etuvchi loyihalash va konstruksiyalash ishlarini Avtomatlashtirilgan Loyixalash Tizimi (ALT) zimmasiga yuklay oladigan bo'lajak o'qituvchilarni talab etmoqda. Shu sababli bugungi oliy o'quv yurtlari talabalari kompyuter grafikasidagi bilim va malakalari bilan qurollantirish dolzarb muammolardan biridir. Yuqorida qayd etilganidek, oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchi mutaxassislarning kompyuter grafikasi tayyorgarligi bugungi holatini o'rganish o'quv rejalari, dasturlari va mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish orqali amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda ko'plab mutaxassis (arxitektor, konstruktor, muhandislar dizayner-amaliyotchi)lar loyihalash va konstruksiyalash sohalarida Auto CAD tizimidan foydalanmoqdalar.

Shu sababli oliy ta'lim tizimida grafik ta'limni zamon talabi darajasida takomillashtirish bo'yicha quyidagi muhim vazifalarni yechish lozim:

- Bo'lajak o'qituvchilarning grafik madaniyatini zamonaviy ishlab chiqarish talablarini hisobga olgan holda kompyuter grafikasidan foydalanish bilim va malakalarini shakllantirish;

- Oliy o'quv yurtlari «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» o'qituvchilarini mashina (kompyuter) grafikasi bilim va malakalari bilan qurollantirish maqsadida markazlashgan malaka oshirish kurslarini tashkil etib, grafika o'qituvchilarini qayta tayyorlash;

- O'qituvchini maxsus kompyuter grafikasi savodxonligini oshirish va talabalarining zamonaviy grafik tayyorgarligini ta'minlash, jahon andozalari darajasidagi raqobatbardosh bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdan iboratdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zoyirov K.A. Uzluksiz ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislarni jadal grafik tayyorlash kontseptsiyasi. Xalq ta'limi jurnali. 2006 № 6. 21-25 betlar.

2. D.F. Kuchkarova, X.A. Pulatova, B.U. Xaitov. “Kompyuter grafikasi” fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tish bo'yicha metodik ko'rsatma. T.: 2009 y. 108 b.



## ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### О‘QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH ORQALI IJODIY YONDSASHISHGA YO‘NALTIRISH.

Toshkent arxitektura qurilish universiteti,  
pedagogika fanlari nomzodi, professor  
**Saydaliyev Saydkarim Saydnabiyevich**  
+998911356164

Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi  
**Yakubova Nafisa Odiljanovna**  
+998975692991 nafisaodiljonovna@gmail.com

**Annotatsiya:** Fazoviy tassavurni o‘stirishning birinchi usulida narsalarda berilgan chizmalardan foydalanib ularni oddiy figuralarga fikran ajratib o‘qish va uning yaqqol tasvirini bajarish yo‘li bilan talabalarning fazoviy tassavuri oshiriladi.

**Kalit so‘zi:** Chizma, qobiliyat, tasavvur qilish, fazoviy tasavvurlarini shakillantrish, idrok, modellashtirish, fa‘oliyat.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta‘lim–tarbiya berishda mahsus tayyorlangan o‘qituvchilar mehnati faoliyatidir. Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo‘lmagan o‘qituvchi ta‘lim–tarbiya samaradorligi va inson kamolatini ta‘minlovchi fikriga ega bo‘lmaydi.

O‘quv jarayonidagi sirtlarning o‘zaro kesishish chizig‘ini aniqlash mavzusini o‘qitish vositasida o‘quvchilarda fazoviy tasavvurni rivojlantirish haqida gapirilganda, bu masalaning ikki tomonini nazarda tutamiz.

Birinchiidan, o‘rgatuvchi shaxslarning (o‘qtuvchi, o‘quvchi uchun yozilgan kitob mualliflari) o‘tilayotgan materialni o‘quvchilar o‘zlashtirishi uchun yaxshi sharoit ishlab chiqish maqsadida sirtlarning o‘zaro kesishish chizig‘ini aniqlash mavzusini o‘qitishdan unumli foydalanish haqida so‘z yuritiladi.

Ikkinchiidan, o‘quvchilarning chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanidan fazoviy tasavvurni rivojlantirish uchun ulardan foydalanishlari muhimdir.

Chizmachilik darslarida ko‘rgazmalilik o‘quvchilarning bilish jarayonini follashtirishga ma‘lum darajada yordam beradi. O‘rganiladigan ob‘ektlar (tekis parallel ko‘chirish usuli, almashtirish, aylantirish, joylashtirishlar) ni turli ko‘rinishda berilishi o‘quvchilar ularni kuzatish va tahlil etish jarayonlarini osonlashtiradi. Chunki, bu erda idrok etish jaryoniga ko‘rish, sezish va muskul retseptor apparatlari kabi analizatorlar qo‘shiladi. Bundan tashqari, texnik detallarni ushlab ko‘rib bilish va sirtining tashqi ko‘rinishini ko‘zdan kechirib idrok qilish, o‘quvchilarga sirtlarga ishlov berish sifatini, detal o‘lchamini, o‘tish joylarining ravonligini va boshqa xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. [2.105b] Ma‘lumki, ilmiy texnikaviy rivojlanish ko‘p jihatdan, texnikaviy loyhalashga asoslangan.

Umumiy o‘rta ta‘limda o‘quvchilarni erkin fikirlashga, o‘z fikrini bayon qila olishga, uni asoslashga va ularda ko‘pchilik bilan fikirlashish madaniyatini rivojlantirishga chizmachilik fanidagi ijodiy izlanish talab qiladigan masalalar katta xizmat qila oladi.[4.67b]

